





SAYLANMA



I jild

(Ikki jildlik)

G'AFUR G'ULOM NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA
IJODIY UYI


„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2008

„Mahmud Toir yaqin-yaqinlarda Parkent shoiri edi. Bugun u o'zbek she'riyatining zabardast peshqadam vakillaridan biridir. Bunga u o'zining yorqin she'rlari bilan erishdi. Uning so'nggi yillarda e'lon qilgan she'rlari va dostonlari chuqur grajdanlik pafosi bilan sug'orilgan“, — deya yozgandi O'zbekiston Qahramoni, zabardast va zahmatkash olimimiz Ozod Sharafiddinov.

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir she'rlari xalqona ohangi, o'z samimiyati, go'zal tashbehlari bilan ham o'quvchi qalbiga yaqin. Shundanmi, shoir she'rlari tez tilga tushadi, oson yod olinadi, qo'shiqqa ko'chadi.

Muallif o'zi ta'kidlaganidek shu paytga qadar dunyo yuzini ko'rgan dil mulki sirlarini ikki jildga jamlab hukmingizga havola qilyapti. Ular sizning ham dil mulkingizga aylanishiga ishonamiz, aziz kitobxon.

HO 35610
281



T 4702620102—89
353(04)—2008 Qat'iy buyurtma — 2008

SIYRATIM SADOSI

(So'zboshi o'rnida)

Assalomu alaykum, muhtaram Vatandosh, aziz she'riyat muxlisi! Avvalo, she'riyatga, adabiyotga bo'lgan mehr-u muhabbatingiz uchun tashakkur. Zero, qaysiki ko'ngil she'riyatga, san'atga oshufta ekan, demak, unga go'zallik, hayrat, hikmat hamroh. Siz kabi yaxshi insonga ruhan, qalban ro'baro' bo'lib turganim uchun Yaratganga beaded shukr. Siz ilk sahifasini ochgan kitobga umrimning 55 bahorida qalamdan topganim, ko'nglimdan topganim she'r atalmish dil mulkimni jamlab, ikki jildda taqdim etish baxtiga muyassar bo'lganimdan mamnunman.

Qo'lga qalam olib, o'z to'g'ringda yozishdan shoir uchun she'r yozish osonroq ekanini his etdim. Ammo men haqimda bilmoqchi bo'lganlar, avvalo, men tug'ilib ulg'aygan zamin, uning qadoqqo'l, daryodil odamlari, meni kamolga yetkazgan ota-onam haqida tasavvur hosil qilsalar yaxshiroq bo'lar degan o'yga bordim.

Ijodkor bo'lganim uchun jannatliy diyorumizning ko'plab go'shalarini ko'rganman. Shunday go'zal Vatanning, ozod o'lkaning, oqibatli xalqning bitta kuychisi ekanimdan iftixor qilaman. Shu yurtning bir chamani bo'lgan, men 1952 -yilda tavallud topgan go'zal Parkent bog'bon-u sohibkorlar, dehqon-u chorvadorlar go'shasi. Bunda odamlar yer bilan, nihol bilan tillashadi, ketmoni, o'rog'i, tok qaychisini qo'lidan qo'ymaydi. Tongda, namozshomda hovlilardan issiq nonning, yangi sog'ilgan sutning muattar isi taralib turadi. Bu diyor ahli qut-barakani, fayz-u tarovatni mehnatdan topadilar. Chotqol tog'tizmalari etaklaridan, Kumushkon qishlog'idan boshlanuvchi o'jar, to'polon soy Parkentni ikkiga bo'lib o'tgan. Bahorda o'zaniga sig'may, katta-katta toshlarni ham bir-biriga urib, qirg'og'ini yulib oqadigan Parkent soyi yozning

saratonida suvni o'zi ham sog'inib qoladi. Qishloq odamlarining joniga buloqlar oro kiradi.

Parkentga azal-azaldan ulug'lar, aziz-u avliyolar talpingan, bir muddat makon tutgan. Ahmad Yassaviy hazratlari o'z nazmida valiyligini e'tirof etgan Bobomochin nomlarida qabriston bor va ul zoti sharifning o'zlari ham shu mozoristonda abadiy qo'nim topganlar. Mirzo Ulug'bekning shogirdi, Ali Qushchining nabirasi, XVI asrda yashab ijod etgan ulug' olim Hofiz Ko'ykiyning otasi Mavlono Kamoliddin Parkentda yashagan. Bu go'zal diyorning xush havosi, so'lim tabiati Xoja Ahror Valiy hazratlarini, buyuk shoh va shoir Boburni maftun etgan. Shu bois ular Parkent haqida go'zal bitiklar qoldirishgan.

Mustaqil O'zbekistonimizning ilm-fani, adabiyoti, madaniyati, san'atining rivojida bugungi parkentliklarning ham alohida o'rni, nufuzi bor. Albatta, bu qisqa so'zboshida ularning barchasini nomma-nom tilga olish mushkul. Onalarimiz allasiga Parkentning xush sabolari, sharqiroq irmoqlari jo'r bo'lgan bo'lsa ajabmas. Zero, shoirlik tug'yonining kurtagi bolalikda ko'z ochadi. Bolalikni umrimiz bahoridagi boychechakka mengzagim keladi. Boychechak bahorning elchisi ekanligi bilan qadrli. Ayoqning tafti ketmagan Momo Yerda nish urgan, to'g'rirog'i, qishning ko'ksini yorib chiqqan boychechak otasi izidan havas bilan termilib turgan bolakayga o'xshaydi. Zero, bu havas ortida sep yoyib turgan bahor bor.

Bolalikning orzulari behisob. Ammo ana shu oppoq orzulardan oq tulpor yasab, sizni unga mindirib qo'yguvchi inson kerak. Balki u bobongiz yoki momongiz bo'lar, mumkin otangiz, ehtimol onajoningizdir. Sizning beg'ubor dilingizda nish urgan so'z she'r bo'lishi uchun, albatta, bolalikda kimdir sizga she'r o'qigan, qo'shiq kuylagan, ertak so'ylagan bo'lmog'i darkor. Otam rahmatli duradgor usta edilar. Odamlarga uy qurib berardilar. Parkentdan

uzoqroqdagi qishloqlarga mashina qatnovi bo'lmas, eshak minib borib-kelar, goh-goh meni ham mingashtirib olardilar. Keyin bilsam o'n chaqirimdan uzoqroq yo'l bosarkanlar. Yo'lda esa ovoz chiqarib Mashrab, Fuzuliy g'azallaridan shirali ovozda qo'shiqday qilib o'qib borardilar. Diniy ilmni yaxshi bilar, odamlar To'xta qori aka derdilar. Afsuski, o'n uch yoshimda otam qazo qilganlar. Ammo g'azalni chiroyli o'qishlari qulog'im ostida hamon jaranglab turadi.

O'zim ham 4—5- sinfdan boshlab maktabdagi tadbirlarda jaranglatib she'r o'qirdim. She'r yozishdan oldin she'r o'qish va yodlashni xush ko'rardim. Qolaversa, otamdan keyin bolaligimdan oq ro'zg'or tashvishi boshimga tushgan. To'rtta yosh bola bilan qolgan onamga yordam berish burchim edi. O'rtta maktabning yuqori sinflarida o'qib yurgan yillarim yozda odamlar uyida mardikorchiilik qilardim, loy qorardim. Demoqchimanki, bolaligimning rohatidan ko'ra azobi ko'p bo'lgan. Balki ana shu azoblarning og'riqlari, otam rahmatli o'qigan g'azallarning ohanglari meni shoir qilgandir.

Hozirda menga „Nima uchun birinchi she'riy to'plamingiz 39 yoshingizda e'lon qilingan? Nahot, yozganlaringizni yashirib yurgansiz?“ deyishadi. Aslida unchalik emas. Birinchi she'rim 7- sinfda o'qib yurgan kezlarim tuman gazetasida 1966-yili e'lon qilingan. Undan keyin kam-kam bo'lsa ham viloyat, respublika nashrlarida chiqib turganman.

Otam erta qazo qilgani bois katta o'g'il yelkasida, ya'ni mening zimmamda otalik mas'uliyati bor edi. Opam, ukam, singlim oila qurib, uy-joyli bo'lguncha qarasam, qirqqa chiqib qolibman. Lekin ko'nglim qatida she'r gullab turardi, onam ekan rayhonlarning poyiga tiz cho'ksam qulog'imga she'r bo'lib shivirlardi. She'r yozardim, e'lon qilmasdim, ammo o'qirdim, adabiy hayotni jiddiy kuzatardim. Yana bir haq gap bor. Meni shoir qilgan — onamdagi matonat. „Bolam, ro'zg'or bir gap bo'lar, o'qishing kerak“, derdilar. 70 yoshlaridan keyin jarrohlik stolini to'rt bora ko'rgan onam

Rafiqa Norova 85 yoshlarida ham matonat bobida hamon yo'ldi yulduzim.

1969-yili o'rta maktabni tugatgach, onam da'vati bilan hozirgi Milliy universitetning filologiya fakultetiga hujjat topshirdim. Fakultet beshinchi qavatda ekan. Shu paytga qadar besh qavatli binoga kirmagan edim. Gap binoning qavatida emas, albatta. Birinchi ko'nglimdan kechgan o'y — to'rt farzand bilan qo'l uchida arang kun ko'rayotgan mushtipar onasidan bo'lak suyangan tog'i bo'lmagan mendek bir qishloqi bolaga bu dargohda o'qish nasib qilarmikan?.. Nimagadir dilimda bir shirin entikish bilan birinchi qavatdan beshinchi qavatgacha zinalarning suyanchig'ini silab chiqqanman. Kechki bo'limga kirish nasib etdi. Ikki yil kunduzi qurilish brigadasida ishladim. Keyin harbiy xizmat, so'ngra nashriyotda ekspeditor bo'lib bosmaxonalarga qog'oz, omborlarga kitob tashidim. Keyin musahhih bo'ldim. Demochimanki, talabalik onlarim kunduzi og'ir mehnatda, kechqurun o'qish bilan o'tgan.

Yana shuni alohida ta'kidlashni istardimki, o'quvchilikda, talabalikda Shayx Sa'diy hazratlarining „Guliston“, „Bo'ston“ to'plamlarini ko'p o'qirdim. Hozir ham ayrim rivoyatlarini yod bilaman. Dilimning tub-tubida „Oltmish yoshdan keyin ham shunday go'zal asarlar yozsa bo'larkan-ku“, degan havas va hayrat balqib turardi.

Bosib o'tgan umr yo'lga nazar tashlab turadigan inson, qaysi yoshda bo'lishidan qat'i nazar, vijdoni, xalqi oldida ham, Yaratganning o'ziga ham hisob berib turadi. Zero, umr insonga yelga sovurish uchun berilmaydi. Afsuski, turmush tashvishlari, nafs balosi, shayton vasvasasi gohida bizni o'z qobig'iga o'rab tashlaydi. „Otam qabrini ziyorat qilmoqchi edim, falonchi qarindoshim yoki do'stim bemor ekan, borib ko'rmoqchi edim, bolalarimning maktabiga bir bormoqchi edim, shu kitobni o'qib chiqmoqchiydim, vaqt topolmadim“, deymiz.

O'zimizdan emas, vaqtdan noliymiz. Ana shu qusurlar, eng avvalo, o'zimga ham tegishli ekanligi boshimni xam qiladi. She'r ko'ngil ko'zidan yumalagan shabnam. Lahzalik go'zallik, lahzalik qayg'u, lahzalik quvonchni ko'ngildan, ko'zdan qochirgan shoir she'rida tiniqlik jilolanmaydi. Zero, men she'rni tiniq qayg'uga, tiniq quvonchga mengzagim keladi. Ammo hamma vaqt ham ko'ngil qatidan tiniq tuyg'ular to'kilavermaydi. Yozolmay qolgan kunlarim uzayib ketsa, o'zimdanda ranjiyman. Meni bilgan muxlislarim ko'ziga tik qarolmayman.

Yangi asrning sakkizinchi yilidamiz. Yangi asr odami, uning ko'ngli, ruhiyati haqida turlicha talqinlar mavjud. Nima bo'lishidan qat'i nazar, har qanday davrda ham odam odamligicha, gul gulligicha, ko'ngil ko'ngiligicha qoladi. Muhabbatsiz, dardsiz odam barglari to'kilib, qishda qaqshab turgan yalang'och daraxtga o'xshaydi.

Qalbning malhami muhabbat! Yaratganga, yashashga, hayotga oshiqlik! Qaysi asrda bo'lsa ham insonni go'zallik asrab qoladi, iymon asrab qoladi. Chunki ezgulik uni yashashga chorlaydi.

So'zim avvalidagi shukronalik va mamnuniyat ila aytamanki, keyingi 15—16 yil mobaynida o'ndan ziyod she'riy to'plamlarim, qator dostonlarim, „Saylanma“ kitobim o'quvchilar hukmiga havola etildi.

O'zim kutmagan holda yuzlab qo'shiqlarning muallifiga aylandim. Bir necha to'plamlarim, dostonlarimga O'zbekiston Qahramonlari, o'zbek adabiyotining sarkorlari, jafokashlari O'zbekiston xalq yozuvchisi rahmatli Said Ahmad, zahmatkash, haqgo'y olim, rahmatli Ozod Sharafiddinov, O'zbekiston xalq shoiri, ustoz Abdulla Oripovlar xush niyat bilan so'zboshi yozdilar. Kamtarin ijodim 2005-yili davlatimizning yuksak mukofotiga, „O'zbekiston xalq shoiri“ unvoniga munosib topilgani zimmandagi mas'uliyatni yuz chandon oshirdi.

Yaratganga beaded shukrki, mehribon, oqila umr yo'ldoshim Gulchehraxon bilan Umida, Ulug'bek, Iroda, Nozima — to'rt farzandni kamolga yetkazib, qator nabiralarning quvonchlariga sherikmiz.

Gapni muxtasar qilsam, suratim tashvishlaridan ortib, siyratimga nazar qilganda to'kilgan dardlarim, toza tilaklarim, hayrat va havaslarimni qo'lingizdagi ikki jildga jamladim. Shoyad bir misrasi, bir to'rtligi orom va osoyish istagan dilingizga malham bo'lsa.

Aziz o'quvchim, shu umid ila so'zimga nuqta qo'yaman. Omonlik, hurlik ziyosi har birimizga, el-u yurtimizga yor bo'lsin!



*ST. JOHN
HARBOR*

1991-III





AYT ENDI, YURAGIM

Maysa yonog'ida tomchi yosh ko'rdim,
Gullarning labida bol talosh ko'rdim,
Yuragim, bag'ringda bir quyosh ko'rdim,
Ayt endi, odamlar uyg'onsin.

Tog'lardan bir ajib nasim yeladir,
Dardim qo'shiq qilib aytgim keladir,
Oh, uni aytsam dilim kuyadir,
Ayt endi, odamlar uyg'onsin.

Quyosh yer yuziga nurdan suv separ,
Irmoqlar tog'lardan kelguvchi chopar,
Teraklar ko'zidan uyqular qochar,
Ayt endi, odamlar uyg'onsin.

G'uncha yuz ochadi, bulbul to'lg'onar,
Sezurman, entikib tog'lar uyg'onar,
Bog'lar uyg'ondi-ku, zog'lar uyg'onar,
Ayt endi, odamlar uyg'onsin.



OMONLIK TILAYMAN

Tongda yuragimda uygʻongan armon,
Gulning yaprogʻida titrab turgan jon,
Koʻzlarimga sigʻmagan yer, ey osmon,
Men sizga omonlik tilayman.

Meni tark etmaydi bir oʻy, bir istak,
Dunyoga chinqirib kelgan, ey goʻdak,
Bu koʻhna Turonga bir Temur kerak,
Men senga omonlik tilayman.

Mudom haqiqatga tashna bu ochun,
Oʻzbekka oʻzligin anglatmoq uchun,
Erkin, Abdullalar kerakdir bugun,
Ularga omonlik tilayman.

Ayollarga Bibi Oysha imoni,
Erlargami — Muhammadning vijdoni,
Kimki unutmagan haqni, xudoni,
Men sizga omonlik tilayman.

Kunduz kulib turgan bobo quyoshim,
Tunda shamchirogʻim, oyim, yoʻldoshim,
Malomat toshida qolgan bu boshim,
Men sizga omonlik tilayman.

Kunda tin olarmish bolta tushguncha,
Boʻgʻziga faryodi sigʻmagan qushcha,
Boʻzlab ol u qonxoʻr sayyod kelguncha,
Men senga omonlik tilayman.



MASHRAB

Orni osib uzilmagan dorlar-a,
Zorni osib uzilmagan dorlar-a,
Shoh Mashrab-ey, Turonini bo'zlatib,
Uch asrki dor ostida zorlar-a.

Ohlar urib u ohiga sig'madi,
Bu dunyoning dargohiga sig'madi,
So'zni osar murtadlari bor uchun,
Yig'ladi-yey, Allohiga yig'ladi.

Shohlar asli bir sirdan ogoh edi,
Ul devona so'z mulkiga shoh edi.
Devonasin sig'dirmagan bu yurtida,
Taxt egasi shoh emas, gumroh edi.

Namanganning osmonida oy yig'lar,
Ne zamonkim, gadoy yig'lar, boy yig'lar.
Mashrab ohi qulog'iga yetganmu,
Ko'kda kuyib hattoki Humoy yig'lar.

Orni osib uzilmagan dorlar-a,
Zorni osib uzilmagan dorlar-a,
Mashrab ketdi. Qodiriy ham, Cho'lpon ham,
Endi kimni qoshlariga chorlar-a,
Orni osib uzilmagan dorlar-a...



CHUMOLIGA KELAR HAVASIM

O'z rizqini o'zi tashiydi,
Sudralsa-da, mag'rur yashaydi,
Odam shundoq bo'lsa koshkiydi,
Chumoliga kelar havasim.

Yetimlarning haqini yemas,
Hokimlarning poyini o'pmas,
U chumoli — u odam emas,
Chumoliga kelar havasim.

O'zi zarra, rangi qoradir,
Mitti ko'zda mehr yonadir,
Bir-biriga xo'p parvonadir,
Chumoliga kelar havasim.

Tizilishib yuradi ular,
Ezilishib yuradi ular,
Balki yig'lar yo balki kular,
Kulsa bizdan kuladi ular...
Chumoliga kelar havasim.



SIZNI YO‘QLAB KELDIM

Mirtemir xotirasiga


Tush ko‘rdim, ta‘biri dilimda qoldi,
Sizni yo‘qlab keldim, Mirtemir bobo.
Dedingiz: — Tur, bo‘tam, elim uyg‘ondi.
Sizni yo‘qlar ko‘ngil, Mirtemir bobo.

Ona til erk olsa, ona Yer titrab,
Sizni voqif etsa baxtkim bir ajab.
Turibsiz tushimda quvonchdan yig‘lab,
Sizni yo‘qlar ko‘ngil, Mirtemir bobo.

Shoir bor elini yakqalam qilar,
Shoir bor unvon deb ko‘zin nam qilar,
Siz yo‘qsiz, menga oh, ko‘p alam qilar,
Sizni yo‘qlar ko‘ngil, Mirtemir bobo.

Tirigida qadrin bilmas odamzod,
Sizni siylamadi ba‘zida hayot.
Endi sog‘inarlar „bo‘talar“ bot-bot,
Sizni yo‘qlar ko‘ngil, Mirtemir bobo.

Shukrkim, haq o‘zin yo‘lini topdi,
Cho‘lponlar, Fitratlar elini topdi.
O‘zbergim yo‘qotgan tilini topdi,
Sizni qutlar ko‘ngil, Mirtemir bobo.
Sizni yo‘qlar ko‘ngil, Mirtemir bobo.



NOLA

Momo Havo, Momojonim, sen onamni asragin,
Men do'lvorni chiroq bilgan parvonamni asragin,
Yetmish ikki tomirimda noxush tuyg'u titragay,
Momo Havo, Momojonim, sen onamni asragin.

Javdiragan yulduzlar-ey, xayollarim olgaydir,
Nahot onam bir kun kelib yulduz bo'lib qolgaydir,
Ko'rguzmagan mehrim mening yurak-bag'rim o'rtaydir,
Momo Havo, Momojonim, sen onamni asragin.

Sochining har tolasida ming bir azob qartaydi,
Tongda onam sochin emas, azoblarin taraydi,
Kech kirgan bu aqlim armon bo'lib unsiz ingraydi,
Momo Havo, Momojonim, sen onamni asragin.

Vijdon tunlar uyqu bermas armon chaqar meni ham,
Yuragimdan ko'zlarimga mehr qalqar meni ham,
Yomon demas, har kun yuz bor onam alqar meni ham,
Momo Havo, Momojonim, sen onamni asragin.

She'rga sig'mas Abdullaning sog'inch qalbin tig'laydir,
Bu dunyoning ishlaridan O'tkir og'am yig'laydir,
Mahmud qilgan nola, Momo, qulog'ingga yetgaydir,
Momo Havo, Momojonim, sen onamni asragin.



BOBUR ARMONI


Hind elida yurt sog'ingan ko'zim yig'lar,
Andijonim deya bunda so'zim yig'lar,
Yoronlarim, qaro bo'lgan yuzim yig'lar,
Na-da o'zim, yurakdagi tuzim yig'lar.

Shohman bunda, ammo cho'zsam yetmas qo'lim,
Nahot endi ko'rolmayman turkiy elim,
Qovunlari tushlarimda tilim-tilim,
Sharbatlari ko'zdan oqib kuzim yig'lar.

Yigitlikning tulporida uchib yurdim,
Yorni emas, alamlarni quchib yurdim,
O'z elimda begonaday ko'chib yurdim,
Samarqandda qolgan o'chmas izim yig'lar.

Tushlarimda Mir Alisher qo'lin oldim,
Ayriliqda Vatan dardini she'rga soldim,
Xato qildim, yot ellarda nechun qoldim,
«Sabr tagi oltin» bo'lsa, to'zim yig'lar.

Bo'lgunimcha Hindistonda Bobur Mirzo,
Yursam edi Andijonda bo'lib gado,
Oxiratim obod ayla o'zing, Xudo,
Nahot endi o'g'lim yig'lar, qizim yig'lar.



SUYIB NETSIN BOSHQALAR

Ko'zlarimda ko'kargan gullarimni uzgandim,
Jonimga o'rab atay guldastalar tuzgandim,
Yuragimning qoniga cho'ka-cho'ka yuzgandim,
Yetolmadim senga, yor, yetolmasin boshqalar,
Men yetmagan baxtga, yor, nega yetsin boshqalar!

Ko'zlaring otashida qovrilib ketgay jonim,
Kaloming nasimiga sovrilib ketgay jonim,
Yangi tongdan umidvor jon saqlagay bu jonim,
Visolingga yetsam, yor, kuyar-kuyar boshqalar,
Kim aytibdi senga, yor, mendek suyar boshqalar!

O'rtamizda jarlik bor, ko'z yoshim-la to'ldiray,
G'animlarim birma-bir bardoshim-la o'ldiray,
Bu dunyoda men senga, o'zinga umr tilay,
Jonlaridan o'zlari to'yib ketsin boshqalar,
Men turganda seni, yor, suyib netsin boshqalar!

Bag'ringda jism-u jonim bir nafas sarxush ko'rsam,
Visoling lazzatidan o'zimni behush ko'rsam.
Quvnab-quvnab o'lardim, agarda shundoq o'lsam,
Mendek o'lmoq baxtiga qandoq yetsin boshqalar,
Armonlar olovida kuyib ketsin boshqalar.



TINIQLIK

Ruhimda tong kabi tiniqlik,
Ko'zimda kuladi quyoshim.
Jonimda yugurar iliqlik,
Atirgul tikani sirdoshim.

Bu tongda shirinim bolamga,
Qush bo'lib so'zlagim keladi.
Yolg'izim, munisam onamga,
Yukunib yig'lagim keladi.

Maysalar ko'z yoshi — shabnamlar,
Yuragim jomiga tomadi.
Sipqoring, siz uni, odamlar,
Topmaysiz bunday may — omadi.

Dilimning qirg'og'i — yurakka
Urilar hislarim to'fqini.
Oh, senga sig'indim men yakka,
Quyoshim — tiriklik yolqini.

Tonglarni quchadi bir qo'shiq,
Gullardan bol olgan kalomi.
Odamlar, sizlarga shu qo'shiq,
Qalbimning tongdagi in'omi.



QODIRIYNING SO'NGGI SO'ZI

Qaro yerda haqiqatni quchib yotgan,
Armonlari qabri ichra ko'pchib yotgan,
O'lsa hamki, so'roqlardan cho'chib yotgan,
Qodiriyning so'nggi so'zi — gunohsizman!

Qabrimda ham qilar menga ko'p alamlar,
Nahot meni o'ldirdilar hamqalamlar,
Aytar so'zim — hushyor bo'ling, hoy odamlar,
Ko'zlarimda armon yig'lar: gunohsizman!..

O'zingniki o'zagingni kessa yomon,
Bizlar kabi gunoh qilsa agar har jon,
Oh, gunohkor bo'lmas edi O'zbekiston,
Kunlar keldi, bu kun mana, gunohsizman!..

Gunohlarim:
O'z yurtida erkin bo'lsin elim dedim,
Yuragimda ungan gulim — tilim dedim,
Gulim so'lsa, erkim o'lsa — o'lim dedim,
Avlodlarga aytar so'zim: gunohsizman!..

SHU ODAM

Yo'lingga tosh emas, tikan qadaydi,
Aqcha ber, qavmiga firib qo'llaydi,
To'qlikdan kekirib ochni talaydi,
Qatoringda yurgan shu odam.

Karamin ayamas egam bu zotdan,
U esa quturar fisq-u fasoddan,
Qo'rqmaydi oxirat, uyat, isnoddan,
Qatoringda yurgan shu odam.

Oson ko'payadi bunday to'ralar,
Bag'rida ulg'ayar bir to'p qarg'alar.
Bilmaydi, haromdan harom yaralar,
Qatoringda yurgan shu odam.

YULDUZLAR

Ushalmagan armonlarim, yulduzlar,
Shahid ketgan yoronlarim, yulduzlar.
Mening yonar mujgonlarim yulduzlar,
Yerga sig' mas giryonlarim, yulduzlar.

Tunlar meni yonlariga chorlaydi,
Yuragimda yana biri zorlaydi.
Osmon go'yo qabristonga o'xshaydi,
Ko'kda boqqan ruh, jonlarim, yulduzlar.

Ko'rdim, biri Temur bobomga o'xshar,
Mo'min Mirzo bo'lib, birisi qaqshar,
Ana, hazrat Bobur, o'ksinib yashar,
Ulug'begim, sultonlarim, yulduzlar.

Ko'rdi, yerda qo'ymas xoli joniga,
Alloh oldi sizni o'zin yoniga.
Gard yuqtirmay ketgan pok imoniga,
O'zbeklarim, armonlarim, yulduzlar.



HOFIZ NIDOSI*Botir Zokirov xotirasiga*

Bir qo'shiq taralar, dilbar, xush, mayin,
Sehridan deymanki, jannat sadosi,
Jannatni ham bu kun kuydirib yotar
Botir Zokirovning nidosi.

Kimni axtarasan charx urib giryon,
Uni sog'indingmi o'lkam sabosi?
G'aflat uyqusidan uyg'otar hamon
Botir Zokirovning nidosi.

Muhabbat visoldir, muhabbat armon,
Otabekni o'rtar Kumush vidosi,
Majnunning, oh, o'tlug' faryodimi u
Botir Zokirovning nidosi.

Ko'p dilga yaqindir, ko'p elga aziz,
Dunyoga taralmish uning navosi,
Qaro yer bag'riga qandoq sig'diykin
Botir Zokirovning nidosi.



YOMG'IR

Yuragimning oynasiga yog'ar yomg'ir,
Bir sanamning siynasiga yog'ar yomg'ir.
Quyosh tutgil, nurdan chog'ir, desam hamki,
Yog'ar yomg'ir, yog'ar yomg'ir, yog'ar yomg'ir.

Yoronlarim, osmon mening boshimmikin,
Yoronlarim, yomg'irim ko'z yoshimmikin,
Yoronlarim, bag'rimda quyoshimmikin,
Ovutolmam, yig'lab-yig'lab yog'ar yomg'ir.

Yuragimning oynasiga yog'ar yomg'ir,
Bir sanamning siynasiga yog'ar yomg'ir,
Kiprigimga, oh, o'zini osgan sog'inch,
Biram og'ir, biram og'ir, biram og'ir.

Ul sanamning ko'zlarida o'zim yomg'ir,
Selob oqqan yuzlarida ko'zim yomg'ir,
Bo'g'zida-yey, aytolmagan so'zim yomg'ir,
Ishqning otash olovida yonmoq og'ir,
Ovutolmam, yig'lab-yig'lab yog'ar yomg'ir.



BELBOG'

Bobomiz belida bo'lgan shu belbog',
Momomiz ko'ksini qilgan edi tog',
Ana u qoziqda jovdirar bu chog',
Belingda shu belbog' bo'lsin, o'g'lonim.

Belbog' har yigitga oriyat edi,
Suluvlar dilida xush niyat edi.
Belbog'lik bobongni yurti bog' edi,
Belingda shu belbog' bo'lsin, o'g'lonim.

Navoiy bobong ham suyib bog'lagan,
Bobur ayriliqda kuyib bog'lagan.
Oh, Temur bobongni jangga chog'lagan,
Belingda shu belbog' bo'lsin, o'g'lonim.

Belbog'siz hech polvon maydonga tushmas,
Ufqni ko'zlamagan burgut burgutmas.
Er yigit o'zligin, elin unutmaz,
Belingda shu belbog' bo'lsin, o'g'lonim.

Belbog' — bu belingda o'zliging bo'lsin,
Haqdan qaytmaguvchi so'zliging bo'lsin.
Ko'zlari ochilgan o'zbeqing bo'lsin,
Belingda shu belbog' bo'lsin, o'g'lonim.



FARYOD

O'zbek-u tojikning, qozoqning, hayhot,
 Qirg'izning uyidan chiqar bu faryod.
 Afg'on zabonlarga baxsh etgan bu dod,
 Qay tilda bo'lmasin faryod bu faryod.
 Ohi-yu nolasi bir xil — bo'zlaydir,
 Tushlarida shahidlarni izlaydir.

Ko'rsatmadi o'g'lonlarin yuzlarin,
 Va dahshatda qotgan qaro ko'zlarin.
 Endi istab topolmaydir izlarin,
 Kim ovutar ular sevgan qizlarin?..
 Ohi-yu nolasi bir xil — bo'zlaydir,
 Tushlarida shahidlarni izlaydir.

Tohir kabi soldilar sandiqlarga,
 Ko'z tushmasin deb yara, chandiqlarga.
 Ko'rsatmadi yo'llarga intiqlarga,
 Ey Xudoyim, sabr bergin sen ularga,
 Ohi-yu nolasi bir xil — bo'zlaydir,
 Tushlarida shahidlarni izlaydir.

Sarg'aydimi sandiqlarda yuzlaringiz,
 Ukajonlar, sog'indik biz so'zlaringiz,
 Balki yo'qdir, qo'llaringiz, ko'zlaringiz,
 Sandiqlarda bormidingiz o'zlaringiz?..
 Siz qaytmaysiz, ular abad bo'zlaydilar,
 Ukalarim, sizni qaydan izlaydilar?

Bu shum xabar Parkentning Jo'nqishloq mahalla ahliga
 bir zunda tarqaldi.

— Hoy, eshitdingizmi, o'qituvchi Sobirjon bor-ku,
 o'shaning katta o'g'li Afg'onda qazo qilibdi.

— Voy sho'rlik, uvol ketibdi.

— O'ziyam suqsurday yigit edi-ya...

— Onasiga qiyin bo'libdi. Bechora qanday ko'taradi bu
 dardni endi?

Sobirjon akaning uyiga o'sha kuni tumonat odam yig'ildi. Olimjonning jasad solingan maxsus tobutni olib kelishdi. Ko'plab fojialarning guvohi bo'lgan bu qadim dunyo, o'lik ko'raverib diydalari qotib qolgan mahallaning keksalari ham hali bunday faryodni eshitmagandilar. Bu — ona faryodi edi.

Ona o'zini, o'zligini unutgandi. Yulib tashlagan yuzlaridan qon tomardi. U buni sezmasdi. To'g'rirog'i, atrofdagilarni ham ko'rmasdi. Uni o'g'lining jasad solingan temir «sandiqdan» ajratib olish qiyin edi. U faryod solardi. Bo'zlardi, qarg'ardi, iltijo qilardi...

— Hoy musulmonlar, mana bu askarlar boshlig'iga aytinglar. Olimjonimning ruxsori so'nggi bor ko'rib qolay. Agar shu mening bolam bo'lsa, nega ko'rsatmaysizlar? Juda bo'lmasa oyog'ining uchini ko'rsatinglar. Insoflaring bormi o'zi?

Onaning, otaning, amakilarning iltijolariga, dod-faryodlariga quloq solishmadi.

— Mumkin emas, — dedi qat'iy ohangda harbiy qismdan kelgan vakil.

— Mumkin emas ekan, — deyishdi chor-nochor shu yerlik rahbarlar.

Olimjonni o'sha kuni tuproqqa qo'yishdi. 4—5 kun o'tib Sobirjon aka tush ko'rdi.

— Adajon, — dermish tushida o'g'li Olimjon. — Men institutni tugatib keldim. Mana shu bog'ga men bog'bonman endi. Nima uchun bu daraxtning ustini temir panjara bilan o'rab qo'yishibdi. Ularga quyosh tegmayapti. Bu ahvolda bog' quriydi. Men ham bo'g'ilib ketyapman. Siz yordam bering, adajon?

Sobirjon aka sapchib o'rnidan turdi. Yuragi gursullab urardi. Hovliga tushdi. Yum-yum yig'ladi.

— Oh, otang aylansin, bolam. Go'ring to'la nur bo'lsin, bolam. Senga qandoq yordam beraman endi?

Tong otdi. Sobirjon aka ko'rgan tushini yaqinlariga aytdi.

— O'g'limning qabrini ochaman, — dedi u yig'lab.

— Uni o'sha tunuka tobut ichidan olib yerga qo'yaman.

Yaqinlari uni bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'lishdi. Lekin uddasidan chiqa olishmadi. Keyin uning yoniga uch-to'rt kishi qo'shildi. Go'rkovning huzuriga bordilar. Go'rkov ularni eshitishni ham istamadi.

— Mening bola-chaqam bor. Jo'jabirday jonman. Qolaversa, bu gunoh. Vijdonim oldida ham, tegishli joyda ham javob berishni xohlamayman.

Sobirjon aka butunlay halovatini yo'qotdi. Boshini yostiqa qo'ysa, o'g'li „Adajon, yordam bering“ deyayotgandek bo'laverdi. Uni ko'rgan qarindosh-urug'lari ham nima qilishni bilmay qoldilar. Oxiri bir qarorga kelishdi. Qabrni ochishdi...

Tobutni tashqariga olib, po'lat qaychi bilan qirqadilar. Juda oson ochildi. Unda Olimjon yotardi. Kiyimlari o'ziga yarashgan. Go'yo nimtabassum hilan yotgandek edi. Faqat yon miyasidan o'q tegib, ikkinchi tomonidan chiqib ketgan ekan. Bo'ynidan ham o'q yebdi. Sobirjon aka ko'rib, hushidan ketib qoldi. Suv sepishdi, o'ziga keltirishdi. Olimjonni qayta ko'mdilar. Qabriga tuproq ham tortib bo'luvdilar, sharros yong'ir quyib berdi. Tabiat bu sirni o'zi yashirdi go'yo.

— Onasini olib chiqsam bo'larkan, xato qilgan ekanman, — deya peshanasiga urdi Sobirjon aka. Buni eshitib, Inobat opa qayta faryod ko'tardi, o'g'lini ko'rsatmaganlarni qarg'adi.

U har kuni bo'zlaydi. Qalbini armon kemiradi. Shundoq o'g'lidan judo bo'lsa. „Bir marta ko'rsatishsa bo'lardi-ku, axir?!“

Ha, bu Inobat opa armoni, o'g'li Afg'onda shahid bo'lgan yuzlab onalarning armonidir. Yillar o'tar, lekin bu faryodning adog'i ko'rinmas...

Bu faryodni yozmoq og'ir, lek qaytaman,
Yig'lamagin, ona, deb qandoq aytaman.

Bu jumboqni endi kimlar yechadi-yey,
Ko'z yoshlaring toshlarni ham teshadi-yey.
Topolmassan endi, ona, ul mardingni,
Mayli yig'la, yig'i olar bu dardingni.
Sen shohlardan yig'lab-yig'lab insof so'ra,
Yer yuziga tinchlik so'ra, savob so'ra.
Ona zamin o'z o'qida tursin degin,
Ahli odam omon-omon yursin degin.
Osmon bitta, Zamin bitta olam aro,
Onalarni ko'rmaylik de motamsaro!



BİZ NEÇİN
ÜÇÜR-İSHDİK

1928





PARKENTDA TONG

Oy bizning qishloqda yerga yaqindir,
Quyosh ham tog'larni o'pib yuz ochar.
Parkent osmonida yulduz uchsa gar,
Qirlarning ko'zidan uyqular qochar.

Tong sahar machitda azon xitobi,
Mudroq qalbingizda iymon uyg'otar.
Duo bu aslida dilning oftobi,
Tongda eshik zulfin farishta qoqar.

Nuroniylar momolar Allohni alqab,
Taqvo-ibodatda huzur topadi.
Kelinlar g'aflatni tandirga qalab,
Joni kabi shirin nonlar yopadi.

Mehrga muhtojdir har bir giyoh ham,
Bahor bu bog'larga chorlovchi chopar.
Parkentda erlarni axtargan odam,
Boli tomib turgan bog'lardan topar.

Yigitlarning belda belbog'lari bor,
Parkent polvonlarin ayting, kim bilmas.
Qizlari ohu ko'z, qalamqosh, dildor,
O'smalar dog'dadir, surmani suymas.

Allomasi ko'pdir, jonbaxsh har so'zi,
Dunyoda toabad barhayot qolgan.
Parkent tuprog'ini yondirib izi,
Bobom hazrat Bobur bunda tin olgan.

Turondek qadimdir shu ko'hna tuproq,
Quvonchga posangi aslida alam.
Qabristonga kelsang ko'rgaysan bu choq,
O'qqa uchib yotgan shahidlarni ham.

Bular ham o'zbekning uzilgan bag'ri,
Onasin jismida bir joni edi.
Ba'zisin ortidan bo'zlar sag'iri,
O'lmasa mumkin el sultoni edi.

Parkentda tong otar dilbar, osuda,
Ona farzand ko'rdi. Quyosh jilmayar,
Xudoyim xohlasa, shu go'dak elda,
Balki Amir Temur bo'lib ulg'ayar.

Parkentda tong otar, azon xitobi
Ahli musulmonni sajdaga chorlab.
Ezgulikka to'lgay machit mehrobi,
Allohdan dunyoga omonlik so'rab.

Oy bizning qishloqda yerga yaqindir,
Quyosh ham tog'larni o'pib yuz ochar.
Mahmud ham shu elda bitta oqindir,
Undan duo tilab, poyiga cho'kar.

QAYDASAN, MUHABBAT?

Sog'inch mening ko'zlarim tilar,
Orzu aldab sochlarim silar,
Yurak esa visoling tilar,
Sen qaydasan, izziz muhabbat?

Gulni ko'rsam ko'zim kuyadi,
Dilim shirin dardin tuyadi.
O'zga nahot mendek suyadi,
Sen qaydasan, izziz muhabbat?

Mening dilim g'amdin yarodir,
Sevmoq o'zi jonga balodir,
Sensiz kunim tundeq qarodir,
Sen qaydasan, izziz muhabbat?

Bulbul kuygan gulzordamisan,
Majnun chekkan oh-zordamisan,
Sen ham mendek ozordamisan,
Sen qaydasan, izziz muhabbat?



POKLIK

Umidli dunyoning nurli tongida,
Qalam terib olar dildagi dardim.
Ko'z ochgan g'unchaning sirli rangida,
Ruxsoring ko'ray deb, seni axtardim.

Savob umidida poklik ulashib,
Shabnamlar, yaproqlar yuzin chayadi.
Bir novdada tikan gul-la sirlashib,
Gulni asrar, ko'rgan ko'zlar kuyadi.

Poklik — tong ko'zida tug'ilgan orzu,
Quyosh unga nurdan belanchak yasar.
Majnuntol soch yoysa, oqarsuv ko'zgu,
Sohillar yuziga yalpizlar toshar.

Barglaridan anbar to'kilib turgan,
Rayhonlarni onam silab o'ltirar.
Nihollar qatiga poklik jo etgan,
Yolg'iz yaratganga imon keltirar.

Poklik, umrimning shu nurli tongida,
Shukrona dil bilan vaslingga qondim.
Sen kulib turibsan gulning rangida,
Lekin seni insonlardan axtardim...



KAPALAK

Izlaringdan o'pay, kapalak,
Ko'zlaringdan o'pay, kapalak.
G'unchalarning labidan tomgan
So'zlaringdan o'pay, kapalak.

Bir jonimga ming bitta jafu,
Gohi shohman, gohida gado.
Seni guldan, meni dildordan
Ayirmasin mehribon Xudo.

Gulzor ichra izingdan chopdim,
Kapalagim, sendan mehr topdim.
Sen-ku, guling topding, men netay,
O'z dilimdan o'tli dod topdim.

Gulday go'zal gulim, kapalak,
Senga yetmas qo'lim, kapalak.
Termilaman ortingdan mahzun,
Kel, jonimga qo'ngil, kapalak...



TURNALAR

Bahorning ortidan ergashib kelgan,
Allohning tilida sirlashib kelgan,
Izlari osmonda gullashib kelgan,
Turnalar, xush ko'rdik, xush ko'rdik endi.

Sizni ko'rib yer-u osmon jilmaydi,
Ko'zlarda zorlangan armon jilmaydi,
Shahidlar onasi — zamon jilmaydi,
Turnalar, xush ko'rdik, xush ko'rdik endi.

Samodan ham botgay izingiz ko'zga,
Siz qaytmas yordaysiz bag'ri qon qizga,
Havasim keladi, hur qushlar, sizga,
Turnalar, xush ko'rdik, xush ko'rdik endi.

Qarang, tashrifingiz qalding'och qutlar,
O'ziga shukr der imoni butlar,
Hushyor bo'ling, hali ko'pdir beburdlar,
Turnalar, xush ko'rdik, xush ko'rdik endi.

Inson ham, qushlar ham o'tar dunyodan,
Yaxshilar ozori fitna, riyyodan,
Sizga umr so'rar Mahmud Xudodan,
Turnalar, xush ko'rdik, xush ko'rdik endi!



UYG'OTAR

Tushlarimda „tur“, deb gohi armon meni uyg'otar,
G'aflat bossa jism-u jonim, iymon meni uyg'otar.
Ohlarki, ming armon bilan ingrab-ingrab tong otar,
Shoirlari uxlab yotsa, elini kim uyg'otar?..

Ko'zlaringni och, o'g'lonim, so'zlarimga quloq sol,
Guldek toza yuzlaringni shabnamlarga chayib ol,
Ulug'begim, sulton bolam, tonglar otar, tura qol,
Sultonlari uxlab yotsa, elini kim uyg'otar?..

Sen bag'rimda guldek yonib yotgan mening Gulchehram,
Dilbar bu tong yuz ochmoqda, turgin endi nur chehram,
Sen ham uyg'on, opam, singlim, sen qizimsan, sen onam,
Ayollari uxlab yotsa, elini kim uyg'otar?..

Tong — bu olam yuzidagi gul bargidek pardadir,
Gar pardani tortsa quyosh kim to'rda, kim jardadir,
Dilni uyg'otgan o'sha — tong bulbuli xonandadir,
Hofizlari uxlab yotsa, elini kim uyg'otar?..

Ufq nechun bag'ri qondir, qon yig'labmi kun botar,
Kuyub-kuyub haqsizlikdan jon tig'labmi, kun botar,
Mahmud agar turmasa ham erta yana tong otar,
Cho'lponlari uxlab yotsa, elini kim uyg'otar?..



QAYLARDAN SO'ROQLAY

Ko'zlarining umrimning yonar chirog'i,
Kipriging chiqmagan jonim titrog'i,
Bag'rimni o'rtaydi hijron qiynog'i,
Ayt, seni qaylardan so'roqlayin, yor?

Qaldirg'och qon yutar holimni ko'rib,
Maysa aso bo'lg'ay dolimni ko'rib,
Sen qandoq yurursan xandalar urib,
Ayt, seni qaylardan so'roqlayin, yor?

Yo'llaringda yulduz misol javdirab,
Yolvorgum Allohdan mehringni so'rab,
Sen-chi, qahring darig' tutasan, yo rab,
Ayt, seni qaylardan so'roqlayin, yor?

Ko'zim irmoqlarda ketmoqda oqib,
Ohim yuborgaydir o'zimni yoqib,
Mahmud umidvordir yo'lingga boqib,
Ayt, seni qaylardan so'roqlayin, yor?

* * *

Sening kulgularing lolaqizg'aldoq,
Qirlarda kuliblar yotar.
Mening qayg'ularim lolaqizg'aldoq,
Qirlarda qoniga botar.

Ko'zimda zorlangan iltijo,
Gul bo'lib izingda ochilgay.
Yuragim qon to'la piyola,
Kelmasang yo'lingga sochilgay.



KELMADING

Yurakka nolishlar botdi, kelmading,
Boshimga bolishlar botdi, kelmading,
Bag'ritoshim, yo nazarga ilmading,
Boshimga bolishlar botdi, kelmading.

Sayyoddan cho'chigan ohudek cho'chib,
Kelmassan, yoturman, dardimni quchib,
Qaniydi borolsam qoshingga uchib,
Boshimga bolishlar botdi, kelmading.

Majnunman sahroda imkon topmadim,
Dardmand bu jonimga darmon topmadim,
Kulbanga sen kabi mehmon topmadim,
Boshimga bolishlar botdi, kelmading.

Chiqmagan bu jondan umidlarim bor,
Sog'inchim yo'lingga gulday sochay, yor,
Oshiqqa azaldan Alloh o'zi yor,
Boshimga bolishlar botdi, kelmading,
Yurakka nolishlar botdi, kelmading.



KULGING

Kulging ko'zlarindan to'kilib ketar,
Jonim chok-chokidan so'kilib ketar,
Ko'rdim g'animlarim o'kinib ketar,
Yor, ko'changda bo'zlab yurgan darveshman.

Quyoshning jilvasi yuzingga ko'chib,
Ko'kdan bir juft yulduz ko'zingga ko'chib,
Qaldirg'och qoshingda xayolim uchib,
Junun sahrosida Majnunga xeshman.

Tushimda kipriging qonimni to'kar,
Sochlaring bo'ynimda jonimni o'par,
G'ururim poyingda nochor tiz cho'kar,
Bulbul degan oshiq — men o'sha qushman.

Allohdan men yolg'iz visol tilayman,
G'uncha dudog'ingdan men bol tilayman,
Sensiz kunlaringa zavol tilayman,
Parq-u bolishingda men shirin tushman.

* * *

Shoir ahli muhabbatga qul bo'ladi,
Mening ohim unib bir kun gul bo'ladi,
Tanamdan uchsa ruhim bulbul bo'ladi,
Guldir dilim, bulbul tilim, yorim qani?

Muhabbatsiz kishilarni jinim suymas,
Tutab yashar unday kaslar, ular kuymas,
Tushlarimda yor vaslidan erurman mast,
Ko'z ochganda bag'rim tig'lar zorim mani.

Suyganimni, kuyganimni yor bilmadi,
Mening qaro tunimda bir oy kulmadi,
To'lur paymonam, Mahmud, bag'rim to'lmadi,
Yorsiz jonim ol, parvardigorim mani!

BIZ NECHUN UCHRASHDIK

Gulim, ayt, gunohlar mendami yolg'iz,
Biz nechun uchrashdik qirqdan oshganda?
Tushlarimda yig'lar uzun soch bir qiz,
Biz nechun uchrashdik qirqdan oshganda?

Qalbdan tuyg'u so'nib aql toshganda,
Jonni qirsillatgan hislar qochganda,
Bag'ringda buloqlar ko'zin ochganda,
Biz nechun uchrashdik qirqdan oshganda?

Derlar, muhabbat yosh tanlamas emish,
Laylimiding, Zuhromi, balki sen Kumush,
Qo'linga bir qo'nmay uchib ketgan qush,
Biz nechun uchrashdik qirqdan oshganda?

Yuraklar bir-birga talpinar, zordir,
O'rtada yig'lagan diyonat, ordir,
Bo'zlab yaratgandan so'rorim bordir,
Biz nechun uchrashdik qirqdan oshganda?

Alpomishga o'zim bermagan chog'da,
Barchin bo'lib izlabmiding firoqda?
Bu dunyodan o'tar bo'ldik qiynoqda,
Biz nechun uchrashdik qirqdan oshganda?



BOYCHECHAK

Bahor yoqqan dastlabki
Uchqunmiding, boychechak,
Yer ostida qish bo'yi
Tutqunmiding, boychechak.

Qizg'aldoqlar, lolalar,
Alvon-alvon alanga,
Boychechak, ho boychechak,
O'xshar seni bolangga.

Seni ko'rib bog'larda
Chuchmomalar yuz ochdi,
Majnuntol ham uyaldi,
Ko'zidan uyqu qochdi.

Mudroq, karaxt daraxtlar,
Ko'ksini tilib-tilib,
O'rik, shaftoli gullar,
Har tongda kulib-kulib.

Momo Yerni gullarga,
To'ldirding-a, boychechak.
Qora qishni sen o'zing,
O'ldirding-a, boychechak...



SOG'INDIM

Ko'z ochgan kurtaklar ishonch tog'idir,
Erta yuz ochajak Eram bog'idir,
Muhabbat qalbimning bir chirog'idir,
Sog'indim, bahorim, sog'indim seni!..

Bolari tushiga gul kirgan kecha,
Bo'g'otlarni yoqib yig'lar musicha,
Men seni so'roqlab yotdim tonggacha,
Sog'indim, bahorim, sog'indim seni!..

Orom qorlar bilan eriblar ketdi,
U quv nab jilg'aning etagin tutdi,
Hijron oshiqqlarning jonidan o'tdi,
Sog'indim, bahorim, sog'indim seni!..

Tog'lar bag'riga ham muzlar botadi,
Kelmasang toshlarni kim uyg'otadi?
Gul istab, gul umrim mahzun o'tadi,
Sog'indim, bahorim, sog'indim seni!..

Bahorni sog'ingan andalib giryon,
Ular ham bir yondir, men o'zim bir yon,
Malikam, sen faqat Mahmudga inon,
Sog'indim, bahorim, sog'indim seni!..



TONGDA

Shabbodaning tilidan o'pdim,
Sochlarimni siladi mayin.
Maysaning qoshida tiz cho'kdim,
U bo'y cho'zdi cho'kkanim sayin.

G'unchalarning titroq bargida,
Bulbullarning ko'z yoshin ko'rdim,
Irmoqlarning xush jarangida
Yalpiz bilan chayqalib turdim.

Ko'zlarimdan uchirgan qushim,
Qaldirg'ochning sarxush nolasi,
Olib qo'ydi bor aql-u hushim,
Men ojizman inson bolasi.

Bolarilar zahmatkash inim,
Ko'rdim tongda qandini urar.
Kapalaklar mehribon singlim,
O'zigamas gulga umr so'rar.

Ana quyosh tog'larni yoqdi,
Chapak chalar teraklar xushhol.
Ko'zlarimda bir inju qalqdi,
Ifodasi, oh, so'zda dushvor.

Qodir Xudo, ona tabiat
Olqish aytar inson nomiga,
Ey, sen inson, uyg'onib faqat,
Alik olgin tong salomiga.



ILTIJO

Oy osmonga osilib yig'lar,
Motamsaro ona misoli,
Yulduzlar ham bag'rini tig'lar,
Har birining yerda xayoli.

Oyning dog'li yuzlarida men
Tunlar boqib jafu ko'raman,
Yulduzlarning ko'zlarida men
Bir iltijo, nido ko'raman.

Oh, tonggacha ular sirdoshim,
Oyning ohi ko'zimga botar.
Yolvoraman tugab bardoshim,
Jonim mening bo'g'zimga botar.

Ular so'zlar, so'zlar nihoyat:
Tushunmaymiz biz hech insonni,
Bir-biriga qilmas himoyat,
Asramaydi omonat jonni.

O'tinchimiz shu sizdan faqat,
Qalbingizda yuz ochsin qadr.
Gar qilsangiz yerda qiyomat,
Axir ko'kka sig'maydi qabr.



SENGA YOLVORAMAN

Kulguvchi ko'zlarda hayo ko'rmasam,
Oydayin yuzlarda ibo ko'rmasam,
Bol kabi so'zlarda vafo ko'rmasam,
Kimga yolvoraman, yo Rasululloh,
Senga yolvoraman, yo qodir Alloh!

Odamlar bozorda iymon sotsalar,
Bilib, ko'rib turib vijdon sotsalar,
Gunohkor bandalar to'lib yotsalar,
Kimga yolvoraman, yo Rasululloh,
Senga yolvoraman, yo qodir Alloh!

Ig'vogar qo'lida gul ham qo'lansa,
Oriyat, hamiyat, insof toptalsa,
Yaxshini yomonlab, yomon maqtalsa,
Kimga yolvoraman, yo Rasululloh,
Senga yolvoraman, yo qodir Alloh!

Tunda hayosizdan oy ham yig'lasa,
Majnuntol soch yoyib, soy ham yig'lasa,
Farzand ota-ona qadrin bilmasa,
Kimga yolvoraman, yo Rasululloh,
Senga yolvoraman, yo qodir Alloh!

Odamning bir baxti insof, chiroyda,
Aytingiz, insofning makoni qayda,
Nahotki, bo'lsa u siz yotar joyda,
Kimga yolvoraman, yo Rasululloh,
Senga yolvoraman, yo qodir Alloh!



GUNOHI NE AHLI PARKENTNING?

Armonim ko'zimda joladir,
Tilimda dil o'rtar noladir,
So'rog'im javobsiz qoladir,
Gunohi ne ahli Parkentning?

Gunohsiz o'g'lonlar qurbondir,
O'q otgan yosuman omondir,
Bu qanday egasiz zamondir,
Gunohi ne ahli Parkentning?

Guldayin kelinlar tul bo'ldi,
Ko'z yoshlar qabrda gul bo'ldi,
Barchasi oh, endi sir bo'ldi,
Gunohi ne ahli Parkentning?

Derlar: o'qlar o'ylab otildi,
O'zbeklarni „siylab“ otildi,
O'zbekdan ham kimlar sotildi,
Gunohi ne ahli Parkentning?

Farg'onada o'ldi „kam“ dedi,
Qo'qonda o'ldi „ne g'am“ dedi,
O'zganda „ana motam“ dedi,
Gunohi ne ahli Parkentning?

Armonim ko'zimda joladir,
Mahmud ham o'zbekka boladir,
So'rog'im javobsiz qoladir,
Gunohi ne ahli Parkentning?



SAVOB

Azaliy hikmatni yodga olaman,
Bizsiz ham dunyoda bori ziyoda.
O'zimdanda so'rayman, o'yga olaman,
Mendan nima qolar ko'hna dunyoda?..

Otamdan meros uy qolar bolamga,
Birovning xasmidir shirin qizlarim.
Kun kelar ular ham sig'mas olamga,
Ko'kdan ham uchgaydir hur yulduzlarim.

Nahotki, ketgayman benom-u nishon,
Izimda unmasmi umrimning guli,
Sukut ummoniga g'arq edim. Shu on,
So'zladi yuragim — jonim bulbuli.

Yaxshidan ot qolar, yomondan-chi, dod,
Bu so'z ham merosdir Odam Atodan.
Qabrison bir bog'dir — niholi faryod,
O'zga mehribon yo'q bunda Xudodan.

Bandasi dunyoni ko'tarib ketmas,
O'lsa olib ketgay yolg'iz armonin.
Va lekin tuproqqa ko'mib ham bo'lmas,
Savob-u gunohin, insonning nomin.

Uni so'nggi yo'lga kuzatar chog'da,
Ortidan tosh otar qilgan gunohi.
Savobi chiroqdir, u bormay turib,
Qabriga ham yoqib qo'ygay Ilohi.



SHE'RIMGA

Tun borliqni bag'riga bosib,
Oy osmonda aytardi alla.
Yuragimning dardi bo'lib sen,
Oq qog'ozga to'kilgan palla.

Oshiqlarning shivir-shiviri,
Tun bag'rini tilardi yalla.
Muhabbatning o'zi bo'lib sen,
Oq qog'ozga to'kilgan palla.

Hur kelinchak beshigin quchib,
Sokin tunda kuylar baralla,
Shu go'dakning tushi bo'lib sen
Oq qog'ozga to'kilgan palla.

Men tonggacha izladim qiyos,
Yuz ko'rishdim tong bilan sen-la,
Oq qog'ozda kular eding sen
Quyosh bo'lib ayni tong palla.



ASO

Qo'lga otam tutgan asoni olib,
Yuzlarimga bosdim, aso jilmaydi.
Kech kirgan aqlim-a, o'zimdanda nolib,
Ko'kragimda zada bir qush yig'laydi.

Ko'zimdanda o'kinchim to'kilib bir-bir,
Kunduz tikan bo'lib tovonim teshar.
Tushimda armonim — yosuman kampir,
Arqon qilib mening jonimni eshar.

Bo'g'zimdanda jon bilan chiqquvchi alam,
Qo'limdanda yetaklar qabrison tomon.
Sukunat qabrlarda chinqirguvchi g'am,
Bunda cho'k tushadi hattoki osmon.

Dilim chok-chokidan ketar so'kilib,
Nazdimda o'zimga sig'magan dardman.
Otajon, netayin, dunyoga kelib,
Bir asocha bo'lolmagan farzandman...

* * *

Og'zi oshga yetganda kambag'alning,
It qopar tuyaning ustida hatto.
Ey voh, bu itlarning ko'pligi hozir,
O'zing asragaysan yomondan Xudo.

Ular ham asli odam tanlaydi,
Zero, yo'qdan axir nima ortadi.
Shundanmi, eh itlar, koshonalarda,
Xo'jasidan suyak tilab yotadi.



CHO'LPON

Diydamdan sizgan tomchi qona o'xshar,
Bo'g'zimdam-u, ul chiqar jona o'xshar.
Sezurman bu so'nggi imkona o'xshar,
Yo rab, kimga aytay dil so'zim endi.

Oydan-da go'zalim, gulim ne derkin,
Jondan-da suyganim, elim ne derkin,
Men do'stlarni sotsam dilim ne derkin,
Yo rab, yorug' ayla sen yuzim endi.

Ozod ko'ray devdim ona Turonim,
Uning-chun bergum bo'lsa ming jonim.
O'zim bilan ketur bu pok iymonim,
Roziman, yumil-ey, kel, ko'zim, endi.

Ko'kdagi yulduzim Cho'lpon ko'rinmas,
Sog'indim, Qodiriy, Usmon ko'rinmas,
Iyagim bog'lar musulmon ko'rinmas,
Yolg'izim, Allohim, ber to'zim endi.

Uyg'onur Turonim, bir kun uyg'onur,
O'shal kun qabrimda jonim to'lg'onur,
Bo'lg'aydir mening ham go'rim to'la nur,
Yo rab, yorug' ayla sen yuzim endi,
Ijobat aylagil shul so'zim endi.



ARMON

Armonimni bag'ringa bosib,
Hasratimning ko'zidan o'pdim,
G'amlar quchar meni yutoqib,
Firoqlarda ezildim, do'stim.

Bag'ringa uchadi yulduzlar,
Oqshom oy, kunduz quyosh bo'zlar,
Ertaklarda qolmish hur qizlar,
Jumboqlardan ezildim, do'stim.

Nechun olam ostonasi yo'q,
Maymunlarning toshoynasi yo'q,
Oqillarning bahonasi yo'q,
So'roqlardan ezildim, do'stim.

O'qlar mening jonimni teshar,
Qaro kunlar yodimga tushar,
Ko'zlarimdan alamlar toshar,
Qiynoqlardan ezildim, do'stim.

Yaratganning gulidir inson,
Lek shuhratning qulidir inson,
Mahmud, endi o'zingga inon,
No'noqlardan ezildim, do'stim!



OTAMNING SO'ZI

O'tmishda bir mo'ysafid kuni bitib, dunyodan o'tishiga ko'zi yetgach, yoniga yolg'iz o'g'lini chorlabdi:

— *O'g'lim, men butun umr halol mehnat qildim, seni ham halollik bilan tarbiyaladim. Yaratgandan umidim shuki, mendan keyin ham halol yashagaysan. Tag'in: „Otam olamdan o'tdi-ku, meni kim ham nazorat qilardi?“ degan xayolga borma. Sen o'tirgan yerlarda tangadek nur tushadigan joy bo'lsa, shu yerdan mening ruhim seni kuzatib turadi:*

Derazadan tushgan nurda, o'g'lim, mening ko'zim bor,
Elga qilgan savobingda, bilki yorug' yuzim bor,
Gar g'aflatdan yiroq ersang, vujudingda o'zim bor,
Bolam, otam o'lgan dema, men o'zingda yashayman,
Kim ortingdan duo qilsa, men izingda yashayman.

Bandasidan qo'rqma, bolam, qo'rqqin faqat Xudodan,
Yukunmagin sen har kasga, shafqat tila Allohndan,
Rosti, o'lmoq — kulib ketish bu yolg'onchi dunyodan,
Bolam, otam o'lgan dema, men o'zingda yashayman,
Diling, tiling bir bo'lsa gar, men so'zingda yashayman.

Farzand inson ortidagi yonib qolgan chiroqdir,
Chiroq yoqsang, parvonaman, ruhim mening uyg'oqdir,
Sen unutmam, oxiratda har daqiqang so'roqdir,
Bolam, otam o'lgan dema, men o'zingda yashayman,
Jondan aziz suygan o'g'ling ham qizingda yashayman.

Umr o'zi oqar daryo, to'g'oni bu o'limdir,
Qaro yerga bo'sh kelgan mening ikki qo'limdir,
Bu dunyoda she'r gadosi Mahmud mening o'g'limdir,
Bolam, otam o'lgan dema, men o'zingda yashayman,
Halol bo'lsa topgan noning, men tuzingda yashayman.

ALICE IN
SYRIA

1900





OLOV MENING CHAMANIM

Daryo mening samanim,
To'liqiniga mingayman.
Olov mening chamanim,
Yolqinida ungayman.

Ko'zimdagi kurtaklar,
Dilingizda ochilgay.
Nurdan nurli tilaklar,
Yo'lingizga sochilgay.

Oftobning armonlari,
Oy yuzida dog' bo'lgay.
Dunyoning nodonlari,
Oshiq holidan kulgay.

Yolg'onga yetaklashib,
Yoriga yot bo'lganlar.
Vafoga etaklashib,
Uyi obod bo'lganlar.

Ko'ksim nurda tilvorib,
Yuragimni o'pgim bor.
Yaratganga yolvorib,
Yuvgayman dildan g'ubor.

Ko'ngli-la gurunglashib,
Yurgan bitta shoirman.
O'zbekning Parkentida
O'sgan Mahmud Toirman.



QALDIRG'OCH

Yo'llar yurib, mo'l yurib, horib kelgan qaldirg'och,
Qanotida bahorni olib kelgan qaldirg'och,
Qarg'alardan, zog'lardan g'olib kelgan qaldirg'och,
Seni qaro qoshingga jon kerakmi, ol, qushim,
Kel, uyimni to'ldirib ayvonimda qol, qushim.

Chug'ur-chug'ur tilingdan quvonchlar to'kiladi,
Qanotingdan qarsillab ishonchlar to'kiladi,
Hasaddan qarg'alarning qadlari bukiladi,
Har bahorda har dilga olam ishonch sol, qushim,
Kel, uyimni to'ldirib ayvonimda qol, qushim.

Qaldirg'ochim, oh, seni suq nafasdan asrasin,
Gar tillodan bo'lsa ham to'r, qafasdan asrasin,
O'ylagani kin, riyo har nokasdan asrasin,
Qanoting qayrilmasin, ko'rmagin zavol, qushim,
Kel, uyimni to'ldirib ayvonimda qol, qushim.

Bu samo peshtoqida har qushning o'z izi bor,
Qush tilini qush bilur, banda bilmas so'zi bor,
Har tirik jonning asli sevgan bir gul yuzi bor,
Mendek diling xunmasmi, bu senga savol, qushim,
Kel, uyimni to'ldirib ayvonimda qol, qushim.

Senga boqib nogahon qush bo'lgim kelar mening,
Qanotlaring qatida xush bo'lgim kelar mening,
Bu bevafo dunyoga tush bo'lgim kelar mening,
Mahmudga bahorlarda sen oppoq xayol, qushim,
Kel, uyimni to'ldirib ayvonimda qol, qushim.



YOLG'ONCHILAR YETMAS MURODGA

Mashhur bo'lsang yo'q dilda kinim,
Hasadg'oyi suymaydi jinim,
Faqat yolg'on so'ylama inim,
Yolg'onchilar yetmas murodga.

Ko'rgin, oftob aldamas sira,
Qaro tunda oy ham bokira,
Nurlarida qalbingni tara,
Yolg'onchilar yetmas murodga.

O'ylab gapir, do'lday to'kilma,
Dilda yig'la, tilda kerilma,
O'z tilingga o'zing sirilma,
Yolg'onchilar yetmas murodga.

Sen uchun ham unar gullar bor,
Ular seni kutar har bahor,
To'g'ri bo'lsang Alloh o'zi yor,
Yolg'onchilar yetmas murodga.

Seni tug'ib onang quvongan,
Otang ko'rib quvonchdan yongan,
Ozor bo'lma quvonchda ungan,
Yolg'onchilar yetmas murodga.

Men-ku, yangi hikmat aytmadim,
Lekin, Mahmud, haqdan qaytmadim,
Nuring bo'lsin dilda bir qatim,
Yolg'onchilar yetmas murodga.



NAVRO'ZNI YETAKLAB KELADI BAHOR

Tog'larning bag'rida qori bo'lsa ham,
Ayozning aytajak zori bo'lsa ham,
Qarg'alarning hali kori bo'lsa ham,
Qishni beshigiga beladi bahor,
Navro'zni yetaklab keladi bahor.

Daraxtlar shoxida kular kurtaklar,
G'unchalar lab ochar, gulgun tilaklar,
Yulduzlar ko'zidan to'kib ertaklar,
Quyoshning yuzini siladi bahor,
Navro'zni yetaklab keladi bahor.

Sevgining muborak sadosi bo'lib,
Bulbulning aytajak navosi bo'lib,
Oshiq yuraklarning gadosi bo'lib,
Tutashgan ko'zlarda kuladi bahor,
Navro'zni yetaklab keladi bahor.

Tuyoqlarin maysa o'pgan tulporlar,
Oy yuzidan orzu terar bedorlar,
Kokil tashlar majnuntollar, dildorlar,
Irmoqlar torini chaladi bahor,
Navro'zni yetaklab keladi bahor.



BOBOLARIM*Shermuhammadbek xotirasiga bag'ishlayman*

Tog'lar toshi boshingizga bolish bo'lib,
Siz yotibsiz qay mozorda xomush bo'lib,
Qoshingizda quyosh yig'lar Kumush bo'lib,
Erkim, deya tog'da qolgan sadolarim,
«Bosmachi» deb nom olgansiz, bobolarim!

So'qir edik, nomingizdan or qildik biz,
Erkim degan bek zotini xor qildik biz,
Belbog'ingiz bo'yingizga dor qildik biz,
Dor ostida dod solganda momolarim,
Neni o'ylab jon berdingiz, bobolarim!

Beksiz qolgan arg'umoqlar yer tepadi,
Ko'zlaridan qabringizga suv sepadi,
Er yigitga tulporlar ham tiz cho'kadi,
Turon bag'rin tilib yotgan jafolarim,
Siz qullikdan hazar qilgan bobolarim!

Turk elida tobuti yelkama-yelka,
To'nin barin tutqazmay ketgan o'zbekka,
Dunyo tahsin o'qir Shermuhammadbekka,
Ruhingizga baxsh ayladim duolarim,
Madaminbek, Ibrohimbek bobolarim!

Yulduzlar samoga qadalgan armon,
Tunlar sizni sog'inib yig'larmi, Cho'lpon,
Axir Xudo bandalari hur yaralg'on,
Yot ellarda siz ko'zlari jolalarim,
Istiqlolni ko'rmay ketgan bobolarim!

Tog'lar toshi boshingizga bolish bo'lib,
Siz yotibsiz qay mozorda xomush bo'lib,
Qoshingizda quyosh yig'lar Kumush bo'lib,
Sog'inch bo'lib yurtda esgan sabolarim,
Jannatmakon, mening aziz bobolarim!

RAYHONLAR ISLARIN BULOG' I VATAN

Shabnamga maysaning yonog'i Vatan,
Ko'z yoshga insonning qarog'i Vatan,
Ne ajab, jon berib poyiga tushsa,
Parvonaga har uy chirog'i Vatan.

Onam allasida ohangin tuyub,
Bolam kulgusida jarangin suyub.
Rayhonlar poyiga boshimni qo'yib,
Angladim, islarin bulog'i Vatan.

Yulduz uchsa osmon yerga tashlamas,
Oqqushlar ham yot to'lqinga to'shlamas,
Cho'kar bo'lsang xas qo'lingdan ushlamas,
To'lqinga daryoning qirg'og'i Vatan.

Sulton suyagini xo'rlabdi qachon?
Insonmas, vaqt erur zamonga sulton.
Tandirni to'ldirib kulib tursa non,
Ko'zimga shu nonning uvog'i Vatan.

Chopgim kelar irmoqlarning ortidan,
O'pgim kelar Momo Yerning betidan,
Kim ajratgay tirnog'ini etidan,
Entikkan yurakning titrog'i Vatan.

Mehnatning surati chumoli izi,
Qaro tunga oyna to'lin oy yuzi,
Bir pishgan olmadek to'kilsa o'zi,
Mahmudga shu tuproq quchog'i Vatan.



KARAM

Dunyo mening dunyoim,
Senga vafo qilmagay.
Ko'nglim mening ziyoim,
Senga jafo qilmagay.

Qaldirg'ochni xush ko'rsam,
Sen ham ko'rib quvongin.
Jannatlarni tush ko'rsam,
Sen ham Alloh deb yongin.

Quyosh nurli qo'lida,
Sening ham boshing silar.
Oy osmonning yo'lida,
Mening ham umrim tilar.

Tulporlarning tishida,
Maysa qiqirlab kular,
Nomard pinhon ishida,
Mardlar oshkora o'lar.

Irmoqlarning tushiga,
Daryo kirsam ne ajab,
Ketar kelmay hushiga,
Xazonlar kuzni qarg'ab.

Kel, ketaylik bizlar ham,
Avval o'zlardan rozi,
Bir-birga qilsak karam,
Alloh bizlardan rozi.



QADR

Oydan to'kilguvchi nurlarni terdim,
Yulduzlar ko'zidan durlarni terdim,
Men uni zaminda hurlarga berdim,
Hurlarning safida hur bo'lding, elim,
Bu ko'hna Turonda nur bo'lding, elim.

Armoningni ortgan karvonlar toldi,
Tizginni adashgan sarbonlar oldi,
Moziyga aylanib yolg'onlar qoldi,
Ohing moziyni ham o'rtaydi, elim,
Bag'ringda alamlar qartaydi, elim.

Kulib eshitdilar yig'lab aytganing,
Yodingda turgaymi bo'zlab qaytganing,
Tepib ham o'tdilar holsiz yotganing,
Ilm-u ma'rifatda gul bo'lgan elim,
Jannat diyorida qul bo'lgan elim.

Razolat, xiyonat joningdan o'tib,
Bir kun bosh ko'tarding o'zingni tutib,
Shahidlar shu kunni yotgandi kutib,
Temurdek sultoni bor bo'lgan elim,
Allohi o'ziga yor bo'lgan elim.

Andijonda ot minib turmish Bobur,
O'z xokin tuprog'ida ko'rmish Bobur,
Isloming qodirdir, Isloming botir,
Noringni qadrla, nor bilgin, elim,
Qoringa qullikni or bilgin, elim.

Zo'rlikni tush ko'rmish johil hali ham,
Hurlikni xush ko'rmish yaratgan egam,
Bizdan iltijodir, o'zidan karam,
Qadring qarog'ingda cho'g' bo'lsin, elim,
Qo'lingda erk degan tug' bo'lsin, elim.

BAXT

Chiroq qadrini so'rsang qorong'u kechalardan,
Bu ko'hna haqiqatni so'rab ko'r nechalardan,
Kim uyidan baxt topmay, topganmish ko'chalardan,
Uyida baxti borlar har yerda baxtiyordir.

Baxtingizni izlamang o'zga yurt, koshonadan,
Vatan ham boshlang'usi degaylar ostonadan,
Har bir so'zning avvali, so'rang mushfiq onadan,
Uyida baxti borlar har yerda baxtiyordir.

Tiniq bo'lsa, tinmasa izingdagi irmog'ing,
«Bolam», desang, kuydirsa, qo'rlar to'ksa dudog'ing,
Yonog'ingdan o't olib, yonib tursa chirog'ing,
Uyida baxti borlar har yerda baxtiyordir.

Tonglarda ko'zlaringda vafo kulib uyg'onsa,
Oqshomlar bolishingda sadoqat guldek yonsa,
Qadam bossang ostonang mehr bo'lib to'lg'onsa,
Uyida baxti borlar har yerda baxtiyordir.

Ketayapman, xush qoling, kelayapman, assalom,
Sizdan dunyo so'rmaymiz, birgina shirin kalom,
Shu ko'hna, haqiqatni Mahmud takrorlar mudom,
Uyida baxti borlar har yerda baxtiyordir.



MING YIL YUMALASA...

Ming yil yumalasa kesak tosh bo'lmas,
Yuz yil ulg'ayganda echki bosh bo'lmas,
Tunda kulgan bilan oy quyosh bo'lmas,
Kerilib sen ko'kdan yulduz termagin,
Ko'zing yetmas ishga qo'ling urmagin.

Erta kim-la osh yeysan bir toboqdan,
Bilmagaysan, foyda yo'qdir so'roqdan,
Nasib etsa kelur Shom-u Iroqdan,
Xudodan boshqadan rizqing so'rmagin,
Bermasalar yuzi qaro yurmagin.

Har bir dilning bir oynasi ko'z bo'lur,
Yana biri — qalb izhori so'z bo'lur,
Gar luqmangda zarra harom tuz bo'lur,
Ko'zing aytur, sen qancha lof urmagin,
Qiyomatda qonlar qaqshab turmagin.

Magar dilda kin, riyo pinhon yotur,
Ayt, qay daraxt mevasin chetga otur,
Niyating yomondir, ko'ksingga botur,
Yaxshilar chorlasa sen yuz burmagin,
G'amginlar ichinda xanda urmagin.

Ostonangga to'kilar gadoning ori,
Kimga vafu qildi dunyoning zari,
Mahmud, bitganlarim ko'nglimning zori,
Malomat bog'idan tikan termagin,
Saxovat bog'iga hech qulf urmagin.



SIZNI YOD ETARMIZ*Komiljon Otaniyozov xotirasiga*

Siz ketgansiz bu dunyodan bosh olib,
Sizni yod etarmiz, Komiljon ustoz.
Xalq ichinda qo'limizga soz olib,
Sizni yod etarmiz, Komiljon ustoz.

Xorazm bir guli ko'hna Turonni,
Bu elning ko'p erur bulbulzaboni,
Bulbulzabonlarning bo'lgan sultoni,
Sizni yod etarmiz, Komiljon ustoz.

Otaliqni molin boqqan bolasi,
Bu qo'shiqmi yo Xorazm nolasi,
Tinglaganning ko'zdan oqib jolasi,
Sizni yod etarmiz, Komiljon ustoz.

Har banda sig'ingay yolg'iz Xudoga,
So'raymiz, qabringiz to'lsin ziyoga,
O'zbek, turkman qo'l ochibon duoga,
Sizni yod etarmiz, Komiljon ustoz.

Bu dunyoga qayta kelmoq bo'lsaydi,
Siz kelmaydiz, ahli Turon qo'msaydi,
Lekin sizdek piri Komil o'lmaydi,
Sizni yod etarmiz, Komiljon ustoz.



BAXIL

Hasadgo'y o'z jonin jallodi emish,
Ig'vogar chayonning faryodi emish,
Bu qanday ko'ngilkim, faqat kin unmesh,
Baxilning niyati bog'ida unsin.

Dunyoning tayanchi yaxshilik bo'lsin,
Tutashgan ko'zlarda oftoblar kulsin,
Har uyga anduhmas, bug'doylar to'lsin,
Baxilning niyati bog'ida unsin.

Tongda ko'zin ochib nur ko'rsin inson,
Bir-birin baxtiyor, hur ko'rsin inson,
Yoronlar, dunyoda baxillik yomon,
Baxilning niyati bog'ida unsin.

Ko'zlari kulsa-yu, o'rtansa dili,
Salomga uzatsa, titrasa qo'li,
Bilingki, u banda yantoqning guli,
Ayt, Mahmud, yantog'i bog'ida unsin.



ONA

Mehringiz bulog'i ummonga o'xshar,
So'zingiz suxani Luqmonga o'xshar,
Jon ona, ko'rmasam, ko'zlarim qaqshar,
Ko'zim chirog'ida parvonam mening.

Sizga qiyos yo'qdir, qiyoslar ojiz,
Bitta ne, o'n bo'lsa quyoshlar ojiz,
Ko'nglimning gavhari nurlangan hargiz,
Bu mulki borliqda yagonam mening.

Oppoq sochlaringiz tog'larga ro'mol,
Dilingiz muattar rayhonga xayol,
Tilingizdan tomar baxt, iqbol, kamol,
Kamolimni ko'rib, mastonam mening.

Izimdanda bir shirin duo o'qilsa,
Ko'zimdan yo'limga quvonch to'kilsa,
Ziyoga yo'g'rilgan bir she'r to'qilsa,
Onam duodadir — jon onam mening.

Onajon, ne qildim, men qirqdan oshib,
Hamon mehringizni ketaman tashib,
Dilim to'lib borar ko'zimdan toshib,
Axir o'lchangan-ku, umrim ham mening.

Subhi sabo bo'lib sochingiz silay,
Umri fido bo'lib, umringiz tilay,
Ona, ko'zingizda quyoshday kulay,
Bosh ursam Makkamsiz, Madinam mening.



OT MINGAN YIGIT*(Rivoyat)*

Ketib borar ot mingan yigit,
Tulporining tuyog'i chaqin,
Ketib borar ot mingan yigit,
Manzil yaqin, oh, visol yaqin.

Xayolida o'tli bo'salar,
Yulduzlarga boqar jilmayib,
Undan yiroq g'amlar, g'ussalar,
Yayrar, oy nuriga yuz chayib.

Tunning qaro bag'rini tilar,
Tulporining o'tli nafasi,
Xayolida yor sochin silar,
Dimog'ida mushk-anbar sasi.

Ketib borar ot mingan yigit,
Tulporining tuyog'i chaqin.
Ketib borar ot mingan yigit,
Manzil yaqin, oh, visol yaqin.

Vah, qoqildi yigit tulpori,
Uchib ketdi har ikkisi ham.
Otning zorin, yigitning zorin,
Eshitmadi hech bitta odam.

Singan edi tulpor oyog'i,
Intilardi yigitga tomon.
Sog' emasdi uning hech yog'i,
Ishonardi otiga hamon.

O'krab-o'krab kishnardi tulpor,
Ko'z yoshlari tilin yorardi,
Oh, yigitni kutardi dildor,
Yolvorardi, otga qarardi.

Qurib borar yigit madori,
Otning ohi tunni o'rtaydi,
Oyga yetar ularning zori,
Bir-biriga ular yetmaydi.

Tongga yaqin yigit berdi jon,
Ot ham boshin toshlarga urdi.
Tong otganda g'ofil olomon,
Jonsiz otni, yigitni ko'rdi.

Shum xabarning qanoti bordir,
Uchib keldi qiz faryod bo'lib,
Endi unga bu dunyo tordir,
Bo'zlar edi bo'g'zini tilib.

— Qoqildimi otingiz, begim,
Kim eshitdi dodingiz, begim?
Meni kimga tashlab ketdingiz,
Yoningizga olingiz, begim?!

Aytib-aytib yig'lar edi qiz,
Qonli bag'rin tig'lar edi qiz,
Ne ko'z bilan ko'rsin olomon,
Yor ko'ksida jon berdi shu kez.

Kumushkontog' etaklarida,
Toshlar aro uch qabr bordir.
Tog'liklarning ertaklariga,
Afsonamas, haqiqat yordir.

Bir yonda ot, bir yonda hur qiz,
O'rtada-chi, yigit yotadi.
Bir xil suyar ikkisin hargiz,
Tonglar otib, kunlar botadi.

Uch qabrdan sal quyiroqda,
Ko'z ochgandir uch qaynar buloq.
Ular birga, ular firoqda,
Javobsizdir qiz bergan so'roq:

— Qoqildimi otingiz, begim,
Kim eshitdi dodingiz, begim?
Siz kuyinmang, yoningizdaman,
Og'ushimda yotingiz, begim!

Ketib borar ot mingan yigit,
Kumushkontog' etaklarida.
Haqiqat bor, muhabbat bordir,
Tog'liklarning ertaklarida.



EY DO'ST

Qo'lim yuvdim sendan, ey do'st,
Sabolarga qo'l cho'zgayman,
Ostonamga mehr to'kkan
Gadolarga qo'l cho'zgayman.

Tiling bo'lsa tillashib ko'r,
Gul yuzida shabnam bilan,
Rayhonlarga tomib yotgan
Vafolarga qo'l cho'zgayman.

Bilsang oyni dog'i asrar,
Yulduzlarning taloshidan,
Oy ortidan yursam nolon,
Ziyolarga qo'l cho'zgayman.

Zog'lar kular andalibdan,
Chunki uning dili giryon,
Andalibman, g'unchadagi
Ibolarga qo'l cho'zgayman.

Qo'lim cho'zsam agar ko'kka,
Alloh bir-u Rasul barhaq,
O'ylamagin men yerdagi
Xudolarga qo'l cho'zgayman.

To'kiladi dilim, Mahmud,
Dildosh topmay bu olamdan,
Ketar bo'lsam endi, do'stlar,
Baqolarga qo'l cho'zgayman.



SIZDAN O'RGANDIM

Onajon,
Fidolikni sizdan o'rgandim,
Adolikni sizdan o'rgandim,
Farzandining tabassumiga
Shaydolikni sizdan o'rgandim.

Onajon,
Soy toshiga boshin urib suv,
Shu toshlarga sochadi kulgu,
Jismi jonim band etgan tuyg'u,
Vafolikni sizdan o'rgandim.

Onajon,
Maysalarning yuzida shabnam,
Muloyimdir siz kabi hiram,
G'animlarim tosh otganda ham,
Sipolikni sizdan o'rgandim.

Onajon,
Oyga cho'zsam qo'lim yetmaydi,
Yo ko'chamdan Xizr o'tmaydi,
Bir ro'molga pulim yetmaydi,
Gadolikni kimdan o'rgandim?!



BEMOR BOLALARNI YIG‘LATMANG ASLO

*Yosh ota muharririyatga nolib keldi. Emishki,
«Boylar ham yig‘laydi» filmi tugamaguncha
shifokor bemor bolasiga qaramabdi.*

Yig‘lamoqchi bo‘lsa boylar yig‘lasin,
Uyuridan adashgan toylar yig‘lasin,
Yaratgandan qilgan gunohin so‘rab,
Qozoni, pichog‘i moylar yig‘lasin,
Bemor bolalarni yig‘latmang aslo!

Onasi ohidan ostona kuyib,
Bolajon ingrasa dardidan to‘yib,
Siz Sino ruhini bo‘zlatib qo‘yib,
Bemor bolalarni yig‘latmang aslo!

Soylarning toshini suvlar silarmish,
Atirgul tikanga umr tilarmish,
Yig‘lasa kinoda boylar yig‘larmish,
Bemor bolalarni yig‘latmang aslo!

Oppoq xalatingiz kuymasin dog‘dan,
She‘rim o‘qib zahar sochmang qaboqdan,
Dardi borga shifo so‘rang Allohdan,
Bemor bolalarni yig‘latmang aslo!

Yig‘lamoqchi bo‘lsa boylar yig‘lasin,
Uyuridan adashgan toylar yig‘lasin,
Yaratgandan qilgan gunohin so‘rab,
Qozoni, pichog‘i moylar yig‘lasin,
Bemor bolalarni yig‘latmang aslo!



ORTINGIZDAN OTADI TOSHNI

Salomidan tomar mehr-u vafolar,
Maqomidan esa jonbaxsh duolar,
Do'stlarki, jonlarin aylar fidolar,
Faqat ortingizdan otadi toshni.

Guldurab kelishar chaqmog'i to'la,
Tunda chiroq yoqqan so'qmog'i to'la,
Qadr so'rasangiz qarog'i to'la,
Faqat ortingizdan otadi toshni.

Otasi o'lganda egmagan boshni,
Onasi o'lganda to'kmagan yoshni,
Sizga to'kadilar topib bardoshni,
Faqat ortingizdan otadi toshni.

Piyola jarangidek kulgusi bor,
She'r eshitar, kuyinadi, tuyg'usi bor,
Yo rabbim, ko'ngilda ne g'ulusi bor,
Faqat ortingizdan otadi toshni.

Men-ku, bu olamda she'r gadosiman,
Ko'zingizga qalqqan dardning sadosiman,
Tosh tekkanning, ey, Mahmud, shifosiman,
Faqat ortingizdan otadi toshni.



BOLAJON

Ko'zlarimdan to'kilgan nurimdiansan, bolajon,
Yuragimdan to'kilgan qo'rimdiansan, bolajon,
Bir niholga tunda oy, kunduz quyosh parvona,
Qalbm daryo, sen irmoq, jo'rimdiansan, bolajon.

Mehrimning beshigida e'zoz topgan qo'zimsan,
Sog'inchim eshigida kulib turgan ko'zimsan,
Senga qiyos ne darkor, jon-jahonim, o'zimsan,
Hurlar ichra sen o'zing hurimdiansan, bolajon.

Hech kim mendan so'rmadi, davlatingiz bormi, deb,
So'rdilar farzandlarim, tan-sihatlik yormi, deb,
Mehrimni taqib qo'yay bo'yningga tumor etib,
Bu dunyodan topganim, durimdiansan, bolajon.

Yaratgandan tun-u kun men baxtingni tilarman,
Oqibatdan yaralgan bir taxtingni tilarman,
Elim, desang til kuygan bir ahdingni tilarman,
Mahmud aytar, qatorda norimdiansan, bolajon,
Yo'qlik sari ketsam men borimdiansan, bolajon.



UMIDIM UNAR

Nish urgan maysada umidim unar,
G'unchalarda bolam kulgusin ko'rgum,
Shabboda mehribon onamga o'xshar,
Ortidan boladay ergashib yurgum.

Kapalaklar meni yetaklab ketar,
Ranglar ardog'ida ko'zim tinadi,
Gullar yonog'ida shabnamlar tutar,
Bo'g'zimda entikkan so'zim sinadi.

Loyshuvoq tomlarning quvonchi bo'lib,
Quyoshni o'padi lolaqizg'aldoq,
Toshni tars yoradi yuragi to'lib,
Soylarning labida ko'z ochgan buloq.

Oqshom oy yuzidan yuvadi dog'in,
Mehrimdan momiqday sochiq tutaman,
Bolishimga yoqib ko'nnglim chirog'in,
Men yana bahoriy tongni kutaman.



BEMOR BO‘LMASIN

Qorlar yog‘sa yog‘sin, orlar yog‘masin,
Yigitning ko‘zidan zorlar yog‘masin,
Do‘stga zor, nomardga afgor boqmasin,
Banda boshi hech bolishga botmasin.

Qadding bukiladi g‘amxonalarda,
Ko‘zing to‘kiladi ostonalarda,
Yo rab, muruvvat bor begonalarda,
Banda boshi hech bolishga botmasin.

Darding oldida xas davlat, arkoning,
Bir mehrga muhtoj diyda mujgoning,
Yaratganga nola topgan imkoning,
Banda boshi hech bolishga botmasin.

Kim aytar quyoshda otash so‘nibdi,
Oyning shu‘lasidan, ayt, kim kuyibdi,
Odamzod yashashga qachon to‘yibdi,
Banda boshi hech bolishga botmasin.

Bemor bolishimga to‘kildi ash‘or,
Ilohim hech kimsa bo‘lmasin bemor,
Siz meni, men sizni ko‘ray baxtiyor,
Mahmud, boshing hech bolishga botmasin.



KABUTARIM

Dilim tortib senga bu kun yozgim keldi dil daftarim,
Qaro-qaro qushlar aro yurgan oppoq kabutarim,
Aytgin, ko'zing nedan munchoq, ey ko'kdagi zebi zarim,
Qaro-qaro qushlar aro yurgan oppoq kabutarim.

Qaro qushlar sening oppoq dilginangni tushunmasmi,
Armoningni eshitgan oy onang bo'lib o'kinmasmi,
Qushlarning ham mardi, aytgin, nomardiga yukunmasmi,
Qaro-qaro qushlar aro yurgan oppoq kabutarim.

Qanotingdan dardlar to'ksang, ko'zim bilan teray qushim,
Shu dardlarni qarolarga so'zim bilan beray, qushim,
Jabr chekkan joningda men to'zim bo'lib turay, qushim,
Qaro-qaro qushlar aro yurgan oppoq kabutarim.

Yiroqlarda ko'zlaganing nurlı maskan — chiroq bo'lsin,
Pag'a bulut parq-u bolish, poyandozing yaproq bo'lsin,
Sog'inchlardan giryon ko'zim, qanotingda taroq bo'lsin,
Qaro-qaro qushlar aro yurgan oppoq kabutarim.

Yolg'on dunyo yolg'onidan, qushim, men ham to'ydim
bu kun,
Nolon ruhim olib yurgin, qatoringga qo'ydim bu kun,
Haq hurlarga makon etgan osmoningni suydim bu kun,
Qaro-qaro qushlar aro yurgan oppoq kabutarim.



VATAN

O'ylasam o'yimdan bollar tomadi,
Bog'lari bahorni sog'ingan diyor.
Mehrim beshigida kuy to'lg'onadi,
Mening ham aytajak qo'shiqlarim bor.

Ko'rdim, ko'zlaridan sog'inchlar oqqan,
Osmoningni o'pib kelar turnalar.
Zaminda yam-yashil alanga yoqqan,
Chaqmoqlar sasidan olam uyg'onar.

Mudroq nigohlarning bolishlariga,
Yalpizlarning isi tomganda chak-chak.
Qaldirg'ochning tonggi xonishlariga
Nazdimda toshlar ham uyg'onsa kerak.

Onam duosida tinchliging tilar,
Farzandim yuzida kulgiching ko'rdim.
Bag'ringga botganda temir tobutlar,
Soylarning toshiga boshimni urdim.

Armonlar bag'ridan olgan erkingni,
Yutoqib bolamdek bag'ringa bosdim.
Dunyo peshtoqiga qadaldi tug'ing,
Vatanim, bolangman, dunyocha o'sdim.

Istiqlol ko'zlardan to'kilgan alyor,
Quvonchim sharshara, oqadi dilim,
Temur yuragida yuz ochgan diyor,
Seni Temur ruhi qo'llasin, elim!



DO'STIM

Shoirlik Xudoning bir karamidir,
Inoyat etsa gar bitgum to'rt satr,
Do'stim, sening so'zing jon malhamidir,
Men seni ko'rganda yuz ochar qadr.

Qosh-u qabog'ingdan mehr to'kilgay,
Sening sabog'ingdan qahrim bukilgay,
Jonimdan tomchilab bir she'r to'kilgay,
Men seni ko'rganda yuz ochar sabr.

Minnat-u malomat sendan yiroqdir,
O'rtada o'rtangan sog'inch, firoqdir,
Aytsam, diling maysa, nurli giyohdir,
Sendan chumoli ham ko'rmaydi jabr.

Kechib yuborasan daryo gunohim,
Sen mendan ayrilsang yo'q dilda ohim,
Umring uzun bo'lsin seni, ilohim,
Gulday kulib yotar men yotgan qabr.



KO'RGAYSAN, BOLAM

Otam ko'zlarida mung bilan ketdi,
Onam ko'zlarida qaridi alam,
Mening ham jonimdan jabrlar o'tdi,
Sen yorug' kunlarni ko'rgaysan, bolam.

Hurlikning shodasin bo'yingga taqib,
Onang izing o'par yuragin yoqib,
Boshingda bobolar ruhlari balqib,
Sen yorug' kunlarni ko'rgaysan, bolam.

Oftob oppoq tonglar yuzing silaydi,
Chinorlar o'z umrin senga tilaydi,
Beg'ubor dilingni yolg'on tilmaydi,
Sen yorug' kunlarni ko'rgaysan, bolam.

Hali ochilajak buloqlar ko'zi,
Bu yurtida qolmagay nonko'rlar izi,
Elga qaytib keldi Temurning o'zi,
Sen yorug' kunlarni ko'rgaysan, bolam.

Har dilda imon-u oyat bor bo'lsa,
Sen kabi o'g'lonlar safda nor bo'lsa,
Turon abad hurdir Xudo yor bo'lsa,
Sen yorug' kunlarni ko'rgaysan, bolam.

Jon cheksang jannatdir bu ona zamin,
Joningda olib yur yurtning pok nomin,
Nolam Haqqa yetsin, Iloho omin,
Sen yorug' kunlarni ko'rgaysan, bolam.



TULPORIM

Yorug' yo'llar axtarib, yerda yozgan qanotim,
Yollaringni yotlarga silatmayman, tulporim,
Tuyoqlaring dupuri jondan suygan bayotim,
Yollaringni yotlarga silatmayman, tulporim.

Yulduzimni uchirsa agar bir kun osmonim,
Uzangida uzilmish mening omonat jonim,
Tuyog'ingga to'kkayman bor bisotim, bor shonim,
Yollaringni yotlarga silatmayman, tulporim.

To'ydan keyingi xino jangda motlarning so'zi,
Ot tepkisin ko'targay faqat otlarning o'zi,
Boqsang alyor aytishar g'olib otlarning ko'zi,
Yollaringni yotlarga silatmayman, tulporim.

Senda yurib mard dastin, nomard qasdini ko'rdim,
Ko'ngli xandonlar ichra dil shikastini ko'rdim,
El ishi erlar bilan, kamar bastini ko'rdim,
Yollaringni yotlarga silatmayman, tulporim.

Uzangiga osilib yurganlardan qilsang or,
Ko'zim ko'zmunchoq senga, senda butkul ixtiyor,
Xayolingda barq urgan dunyolarga olib bor,
Yollaringni yotlarga silatmayman, tulporim.



QIRQ KOKIL

Yelkandagi qirq kokil qirqta joningmi sening?
Qurboni bo'lsam arzir bitta joningni sening,
Yor, o'zingga yetmadi ohlarim, dodim mening,
Yelkandagi qirq kokil qirqta faryodim mening.

Tongda turib bulbulning kelar tilin tishlagim,
Muhabbat shevasida bulbullarni xushlagum,
Qirq kokiling bittasin, aytgin, qachon ushlagum,
Barmoqlarim bo'zlaydi, eslasam yoding sening.

Bu dunyodan umidvor yaratganning bandasi,
Sevsa-yu, sevilmasa olamning sharmandasi,
Qirq kokiling qirq zanjir, bo'ldim aning bandasi,
Yelkandagi qirq kokil qirqta jallodim mening.

Qirq kokilli qiz tug'gan umr tilab onangga,
Yurgan yo'lim kuyadi, jism-u jonim alanga,
O'lsam, kulim to'kilsin, yor, endi ostonangga,
Yaratganga yetmadi, oh, Mahmud, dodim mening.



KEL, KETAYLIK

Ko'zlarida armon jolasi,
Ko'zlarimda hijron nolasi,
Bo'ynimda dor soching tolasi,
Kel, ketaylik dunyolaridan.

Seni ko'rib qaldig'och yig'lar,
Menga boqib xushnuddir zog'lar,
Shu zog'larga qolsin bu bog'lar,
Kel, ketaylik dunyolaridan.

Xush ko'rmagan yor sochin silab,
Yashar bo'lsak jonga o't qalab,
Yuraklarni qiyma-qiymalab,
Kel, ketaylik dunyolaridan.

Qo'llaringdan ushlamadim ham,
Peshonangdan o'pmadi onam,
Men bir G'arib, sen bir Shohsanam,
Kel, ketaylik dunyolaridan.

Yur, qirlarga qonimiz sochib,
Turnalarga jonimiz sochib,
Jannatlarning eshigin ochib,
Kel, ketaylik dunyolaridan.



MALIKAM

Har kunimdan bir saboq qolar,
Qadringga yetmadim, malikam.
Olsa jonim shu gunoh olar,
Qadringga yetmadim, malikam.

Tunlar diling ko'z yoshga botib,
Tonglar turding xandalar otib.
Seni shundoq qo'ydim yo'qotib,
Qadringga yetmadim, malikam.

Umring tilamagan til zahar,
Soching silamagan qo'l qaqshar,
Sen uchun dunyoda kim yashar,
Qadringga yetmadim, malikam.

Juft qaldirg'och baxtdan in qursa,
Tikan gulni erkalab tursa,
Bu dunyoda bir baxtsiz yursa,
Men qadringga yetmadim, erkam.

Armon boshda bolishim bo'lib,
Ichgan oshim nolishim bo'lib,
Hijron qoldi xonishim bo'lib,
Qadringga yetmadim, malikam.



QAROLAR

Qaro-qaro qarolar-a,
Qaroligin qildilar, yor.
Qalbimizni yarolab-a,
Yarolarni tildilar, yor.

Men qo'l cho'zsam yulduz bo'lding,
Sen intilsang men bir sarob,
Aytgin, tonglar qandoq kulding,
Oqshom bo'zlab botgan oftob.

Daryo to'kding ko'zlaringdan,
Tohir bo'lib oqolmadim.
Yellar o'pdi yuzlaringdan,
Men bir to'yib boqolmadim.

Gulim, endi ohimiz ham,
Osmonlarda chirmashgaydir.
Jannatlarda seni quchsam,
Havas bilan qarashgaydir.

Qaro-qaro qarolar-a,
Qaroligin qildilar, yor.
Qalbimizni yarolab-a,
Yarolarni tildilar, yor.



KUMUSHBIBI AYTGANLARI

Ko'zingizdan to'kib, oh, zoringizni,
Yeldirib ketyapsiz tulporingizni,
Izingizda qolgan ozoringizni,
Boshimga bolishlar qilayin, begim.

Ishqingiz jonimga qatiblar qo'yib,
Qayon bormoqdasiz ko'zlarim o'yib,
Gunohimmi, Sizni qolganim suyib,
Yo'l bo'lsin, yo'lingiz tilayin, begim?

Marg'ilon ko'kida dilim kabutar,
Men uchun yig'lagan oyni ovutar,
Bag'rimda bo'zlagan sog'inchim yotar,
Gunohimni ayting, bilayin, begim.

Zaynabning ko'zlari ohumi, ayting,
Kumushning ichari og'umi, ayting,
Begim, yolvoraman, orqaga qayting,
Qaytsangiz qulingiz bo'layin, begim.

Oshiqning murodi yolg'iz visoldir,
Toshkent osmonida chehram hiloldir.
Bir qarab qo'ymoqlik sizga maloldir,
Zorim bor, zo'rim yo'q, netayin, begim.



AYLONAYIN

Yor qoshingni qarosidan aylonayin,
Kulgularing sadosidan aylonayin,
Izlaringga to'kiladi jonim mening,
Qirq kokiling bittasiga boylonayin.

O'lim yo'qdir, yo'q, elchilarga o'lim yo'q,
Momom aytar, yo'q, sovchilarga o'lim yo'q,
Yo'q, mening oshiq yuragimga tinim yo'q,
Taroq bo'lib zulfingga men joylonayin.

Istamadim, lek jafoni ko'pdan topdim,
Izlaganim bir vafoni sendan topdim,
Atirgulning barglaridan ro'mol yopdim,
O'rab olsang oy ham aytar uyolayin.

Yor, qoshingning qarosidan aylonayin,
Qo'llaringning xinosidan aylonayin,
Yuragimda otlar chopar, bilmagaysan,
Yo'limni to's, yuragingga boylonayin.



KO'NGLIM

Oyning o'rog'iga osilgan ko'nglim,
Ko'nglimni olishga qo'lim yetmaydi,
Ey, bir bevafo deb o'kingan dilim,
Dunyodan ketishga yo'lim yetmaydi,
Yetmaydi, yetmaydi, qo'lim yetmaydi.

Muhabbat jonimning nurli rishtasi,
Yor, uni joningga bog'lagim kelar.
Oshiqman, Qays qavmin men ham bittasi,
Ishqsiz yuraklarni dog'lagim kelar,
Kelar yor, joningga bog'lagim kelar.

Yig'lamoq yigitga ordir azaldan,
Maysalar yuzida shabnam ashkimdir,
Men vafo istarman sendek go'zaldan,
Atirgul tikani mening rashkimdir,
Rashkimdir, rashkimdir, mening rashkimdir.

Bog'ingda bolari bo'lib kezarman,
G'uncha dudog'ingni ochmassan nechun?
Yor, sendan, ayt, qandoq ko'ngil uzarman,
Vafo shu'lasini sochmassan nechun?
Sochmassan, sochmassan, sochmassan nechun?



KEL ENDI

Boshim toshdan desam bolish botadi,
Armonim allalab tonglar otadi,
Sog'inchim rayhonga tomib yotadi,
Ko'zing qarog'iga jonim joylayin,
Kel endi, men telba Majnun bo'lmayin.

Oqar suv ortiga sira oqmasmish,
Yolvorib yashasang yorga, boqmasmish,
Ayingiz, qay qizga yor-yor yoqmasmish,
Tokay firoqingda bag'rim dog'layin,
Kel endi, zulfingni bir tarog'layin.

Yo'lingda tosh bo'lsam tepiblar o'tgin,
Gulim, iforingdan sepiblar o'tgin,
Sanamsan, g'aribman, dodimga yetgin,
Eshiging zulfiga zorim boylayin,
Kel endi, oy yuzim to'lib oydayin.

Ko'zingda tong bo'lib otgim keladi,
Ko'ksingga quyoshdek botgim keladi,
Bahordek bag'ringda yotgim keladi,
Bu yorug' dunyoda sensiz naylayin,
Kel endi, Mahmuding Majnun bo'lmayin.



MUHABBAT SHEVASI

Xayolimda barq urgan gullar atridan mastman,
Bir o't yonar jonimda, bo'ldim otashparast man,
Osmonlarga osilgan gado cho'zgan bir dastman,
Barmoqlarim shivirlar muhabbat shevasida.

Qaldirg'ochning ko'zlari oshiqqlarning oynasi,
Tongda kuyga aylanmish bulbullarning ginasi,
To'lqinga to'sh urganda yonar oqqush siynasi,
Jonimiz bir emasmi, bu ishqning kemasida.

Atirgul ignasiga osilib qolgan jonim,
Lolazorlarni yoqib yuborgay qatra qonim,
Tikanzor ichra toyib so'rar so'nggi imkonim,
Bir qulga kor yo'qmikin shu qizning egasida?

Toshni tilsang tovlanar ming bir rangda armoni,
To'rvasidan to'kilib qolgandek gado noni,
Mahmudning ohi yoqqay bu yolg'onchi dunyoni,
Kulolning armoni bor piyola chegasida.

Barmoqlarim shivirlar muhabbat shevasida...



QO'LINGNI BER, GULIM

Atirgul atrini tikanga sochmish,
Qo'lingni ber, gulim, qo'llaringni ber!
Gullar dudog'ini bolari ochmish,
Qo'lingni ber, gulim, qo'llaringni ber!

Oydek yuzing silab oy ko'ngli o'sar,
Yulduz ko'zlaringdan yulduzlar o'par,
Dilim, kuygan dilim zorini to'kar,
Qo'lingni ber, gulim, qo'llaringni ber!

Rayhonlardan so'rab bir ro'mol olay,
Muhabbat bog'ida boshingga solay,
Qoshlari kamon-u ko'zi quralay,
Qo'lingni ber, gulim, qo'llaringni ber!

Qo'lingni ber gulim, dudog'im kuysin,
So'rab so'rog'im ham qarog'im kuysin,
O'ngim, so'lim, yaqin, yirog'im kuysin,
Qo'lingni ber, gulim, qo'llaringni ber!

Yurgin qizg'aldoqdan boda so'raymiz,
Maysadan marvarid shoda so'raymiz,
Jannat eshigida birga turgaymiz,
Qo'lingni ber, gulim, qo'llaringni ber!



MOHIM

Yonib tugamagan shamdagi ohim,
Olovga aylangan mening gunohim,
U endi o'zini yoqmoqda, Mohim,
Men qandoq yashayin, sen kechirmasang?!

Hur desam, hurlarga ketasan o'xshab,
Yorug' xayollarga yolvorib, yashab,
Tursang ostonada mehringni to'shab,
Men qandoq yashayin, sen kechirmasang?!

G'ururim osmonga ustun qilibman,
Ayt, qachon bag'ringni butun qilibman.
Tilim zahri qotil, diling tilibman,
Men qandoq yashayin, sen kechirmasang?!

Kulsang ko'zlaringdan cho'g'lar to'kding, yor,
Qahrim bukaman deb, qadding bukding, yor,
Yig'lab ko'z yoshingga o'zing cho'kding, yor,
Men qandoq yashayin, sen kechirmasang?!

Qo'ynimdan qo'njimga to'kilar ohim,
Barimdan tutadi yursam gunohim,
Mahmuding kechirgin, kechirgin, Mohim,
Men qandoq yashayin, sen kechirmasang?!



TILAB-TILAB OLGANIM*(Xalq ohangida)*

Tilab-tilab olganim
Tilaklarim to'kildi.
Qirqta emas bir jonim
Qirq chokidan so'kildi.

Yaro-yaro yurakning
Yarmini kim olgaydir.
Guruchdagi kurmakni
Oshiga kim solgaydir.

To'lqin-to'lqin daryolar,
To'lqinida ohim bor.
O'rtamizda riyolar,
Mening ne gunohim bor?!

Qaro-qaro qoshingni
Qaroligi yolg'onmi?
Suyub ichgan oshingni
Tuzin ag'yor solg'onmi?

Toma-toma tomchilab,
Ko'llar ado bo'lgaydir.
Qon dilini qamchilab,
Mahmud fido bo'lgaydir.



KULGULARINGDAN

Netay axir xush ko'rsam seni,
Ko'zim yumsam tush ko'rsam seni,
Otashlarga tashlama meni,
Bir bo'sa ber kulgularingdan.

Qoshlaringda kamon, yoy ko'rdim.
Yonog'ingda yonar oy ko'rdim,
Men o'zimni bir gadoy ko'rdim,
Bir bo'sa ber kulgularingdan.

Uzilganda kuzgi yaproqlar,
Bo'zlab qolar bandi dudoqlar,
Qaylardasan, jonim so'roqlar,
Bir bo'sa ber kulgularingdan.

Oyning baxti tun qarolig'i,
Oshiqlik bu dil yarolig'i,
Bo'lsa hamki gar xatolig'i,
Bir bo'sa ber kulgularingdan.



SOG'INSAM MEN

Oy ergashar izimizda,
Sog'insam men, sog'insang sen.
Mehr gullar ko'zimizda,
Sog'insam men, sog'insang sen.

Rayhon bo'yli yellar esar,
Mening ohim toshni kesar,
Qay ag'yorning ko'ngli o'sar,
Sog'insam men, sog'insang sen.

Daryo to'lsa qirg'oq yig'lar,
Quyosh kuysa qumloq yig'lar,
O'rtamizda firoq yig'lar,
Sog'insam men, sog'insang sen.

Bizga toshlar otganlar bor,
Gunohlarga botganlar bor,
Ikkimizga bu dunyo tor,
Sog'insam men, sog'insang sen.

* * *

Xayolimda yog'ar yomg'irlar
O'ylarimda bahor gullaydi.
Yuragimni izg'irin tig'lar,
Tovonimda hazon yig'laydi.

Jondan shirin tuyg'uga asir,
Bu jonimni qandoq asrayin?
Oh, sevgining ko'zlari basir,
Lekin so'zi ipakdek mayin.

To'kilmoqda barcha barglari,
Daraxtlarning boshin kim silar?
O'tib ketsa onam dunyodan,
Mening umrim, ayting, kim tilar?


HIJRONING SADOSIMAN

Umrim ishq sahosida ketayotgan karvonim,
Manzilim visol dedim, ko'nglim mening sarbonim,
O'tli ishq dunyosida oshiq yurak sultonim,
Lekin yor ko'chasining, yoronlar, gadosiman.

Oshiq ahlin bog'ida men faqat tikan bosdim,
O'riklar shoxi chaman, yetmadi unga dastim,
Yalpizlarning shoxiga, ko'rsinlar, dilim osdim,
Yor o'tar yo'llarga to'kilib adosiman.

Ohu aybi ko'zida, oshiqligim gunohim,
Qaldirg'och qanotiga chirmashib olgan ohim,
Endi u ayvoningda chirqillab turar, mohim,
Qayda bo'lsang qoshingda hijronning sadosiman.

Oqar suvlar yo'l topar, toshni ham tilib-tilib,
Umidim bor, kelgaysan bir kuni kulib-kulib,
Mahmud ham gul uzg'usi, bog'ida bahor bo'lib,
Yor, kelar kunlaringni avvaldan fidosiman.



GUNOHIMNI AYTING

Gunohimni ayting, mayli so'nggi so'z,
Ko'ngilga otilgan bitta o'q bo'lsin.
Bir bora tik boqing, o'kinch to'la ko'z,
So'nib borayotgan so'nggi cho'g' bo'lsin.

Daqiqalar o'tib, ikki tomonga,
Ko'tarib ketamiz zildek armonni.
Sevgini ishondik rashkka, yolg'onga,
Muhabbat kechirmas bizdek nodonni.

Yolg'izoyoq yo'lda ro'baro' kelish,
Balki bizlarga hech nasib etmagay.
Endi yo'q diydordan kundayin kulish,
Biz kabi hech kimsa o'ksib o'tmagay.

Yig'lamang, ko'z yoshi bo'lolmas malham,
Men ko'zdan quvonchim sidirib oldim.
Sizni bilmadim-u, oh, endi, erkam,
Dunyodan ketguncha bir o'zim qoldim.

* * *

Mening ko'nglim kabi uvada bu kun,
Sening ko'zlaringdek yig'loqi osmon.
Balchiqqa qorishgan xazonlar beun,
Bo'zlaydi: shamollarga yashamoq oson.

So'lg'in yuzlaringdan izg'irin o'par,
Mening yuragimni tilvordi chaqin,
Endi men ketaman. Bu dunyo qolar,
Qo'rqma! Sen baxtiyor yashaysan tag'in.



* * *

Gulim, iltifotlar qilding bu kecha,
Soching to'liqiniga solib dilimni,
Gulim, iltifotlar qildim bu kecha,
Bo'yingga bog'labon ikki qo'limni.

Qirq kokil, qirq joning bir jonim ichra,
Visoling lazzati ummonga o'xshar.
Bir jonim qirq kokil, qirq joning ichra,
Do'zaxlar borligi yolg'onga o'xshar.

* * *

Qizg'aldoqning qiziga,
Bulbul sovchi yubordi.
Atirgulga aytib u,
Bulbul yuzin tilvordi.

Shundan uning ohidan,
Qon tomarmish har sahar.
Bo'zlarmish-u vaslini
Ko'rsatmashmish hech mahal.



YONAR BO'LSAM...

Yonar bo'lsam bir otashda yondirguvchi muhabbatdir,
O'zgarlar ne o'zimdanda ham tondirguvchi muhabbatdir.
Tulporlarni turfa yo'lda toldirguvchi muhabbatdir,
Bir boshimga ming bir savdo soldirguvchi muhabbatdir.

Muhabbatsiz ekan qay dil, havosi ko'p, xudosi yo'q,
Oshiq ahlin yurtini, vah, gadosi ko'p, podshosi yo'q,
Qayu dardni topding, ey dil, jafosi ko'p, shifosi yo'q,
Quyoshning ham ko'zida yosh qoldirguvchi muhabbatdir.

Yalindim men yalpizlarga, yolvorishsin yoringa deb,
Qaldirg'ochga dilim berdim, yor yetarmu zorimga deb,
Yulduzlardan durlar so'rdim, shu ko'zi xumorimga deb,
Imo bilan ko'kdan oyni oldirguvchi muhabbatdir.

Dard to'kilsa kim tergaydir, mening ko'nghlim dard elaydir,
Ko'rdim oyni beshigiga erkalab yulduz belaydir,
Vah, tikanlar atirgulning yuzin bir mayin silaydir,
Toshga vafo kuyin, Mahmud, chaldirguvchi muhabbatdir.



RA'NO

Yuzlaringdan nur yog'iladi,
Sen kulganda dur yog'iladi,
Go'yo ko'kdan hur yog'iladi,
Hurlar ichra hurmisan, Ra'no,
Durlar ichra durmisan, Ra'no?!

Seni ko'rib o'zimdanda tondim,
Ishq yo'q degan so'zimdanda tondim,
Yotga boqmas ko'zimdanda tondim,
Suymaganlar na bilsin, Ra'no,
Kuymaganlar na bilsin, Ra'no?!

Kipriklaring hayo elaydi,
Izlaringda ibo gullaydi,
Ko'ngil qurg'ur qayga imlaydi,
Bir o't yonar jonimda, Ra'no,
Seni ko'rgan onimda, Ra'no.

Oshiqqlarning yo'llari toshli,
Ko'pni ko'rdim ko'zlari yoshli,
O'ylamagin Mahmud bardoshli,
So'nggi jonim bo'g'zimda, Ra'no,
Aytar so'nggi so'zimda, Ra'no!



YOMG'IR BO'LIB

Yomg'ir bo'lib yuzingni o'psam,
Sochlaringda qolsam osilib.
Maysa bo'lsam, yo'lingda, sanam,
Tovoningda ketsam bosilib.

Kapalakning qanotlaridan,
To'kilganda gulning ranglari.
Bolarining bayotlaridan,
Taralgaydir ishq ohanglari.

Chumolining jonida shu kez,
Jimirlaydi oppoq quvonchlar.
Seni o'ylab yotibman bu kech,
Yuragimda gullab ishonchlar.

Hali zamon tonglar otadi,
Farishtalar eshigim ochib.
Ostonaga boshim botadi,
Yo'llaringga shabnamlar sochib.



ARMON ULG'AYAR

Yulduzlarga yetgan bu qo'lim,
Gul yuzingga yetmadi, gulim!
Ko'kda oymas, dardim bir tilim,
Sevib sevilmadim, sevgilim!

Ko'zlarimda sog'inch sarg'ayar,
Yuragimda armon ulg'ayar,
Men yig'layman, bir qiz jilmayar,
Sevib sevilmadim, sevgilim!

Yurdim, bu yo'l ado bo'lmadi,
Hech kim mendek gado bo'lmadi,
Lekin sendan sado bo'lmadi,
Sevib sevilmadim, sevgilim!

Bu dunyoning osmonlari tor,
Yerga sig'mas yolg'onlari bor,
Aro yo'lda Mahmuding afgor,
Sevib sevilmadim, sevgilim!



BU KECHA

Bu kecha shunday kecha, ko'nglim daryodir manim,
Qaro tun, qaro kulbam kundan ziyodir manim,
Shul sanamga, yoronlar, jonim fidodir manim,
Bu kecha shunday kecha, ohim sadodir manim.

Bolishimga tomgan ul, yor ashkin selobimi,
Lablarimda qolgan ul, yor labin gulobimi,
Vah, jonimni olgan ul, jon degan xitobimi,
Bu kecha shunday kecha, tunim yalldir manim.

Oy yuziga yuz bosib oyga boylandim o'zim,
Ming gado qo'li yetmas boyga aylandim o'zim,
Yaratgandan tilarman jism-u jonimga to'zim,
Bu kecha shunday kecha, so'zim sabodir manim.

Bu kecha shunday kecha, tonglar kerakmas menga,
Visol lazzati rangin, ranglar kerakmas menga,
Barcha ag'yorlar mag'lub, janglar kerakmas menga,
Bu kecha shunday kecha, umrim adodir manim.



TOSH

Men toshlarda rang koʻrdim,
Ustasin farang koʻrdim,
Bir qoʻshiq jarang koʻrdim,
Toshcha diling yoʻqmi, ayt?

Qizil tosh qizday goʻzal,
Koʻk tosh oʻqiydi gʻazal,
Toshlar ham bizdan afzal,
Toshcha tiling yoʻqmi, ayt?

Oq tosh oppoq xayolmi,
Suvda yotgan hilolmi,
Bir shirin soʻz malolmi,
Mendek quling koʻpmi, ayt?

Suvda yotgan tosh suluv,
Sendek qaro qosh suluv,
Erkalaydi toshni suv,
Suvcha qoʻling yoʻqmi, ayt?

Men toshlarda rang koʻrdim,
Oqibat, ohang koʻrdim,
Peshonamga bir urdim,
Mahmud, shoʻring koʻpmi, ayt?



ISHQ UVOG'I

Chopar irmoqlardan so'rdim, to'xtamas,
To'kilgan dilimni to'ldirgin, jonim,
Suv tutgan suluvlar senga o'xshamas,
To'kilgan dilimni to'ldirgin, jonim.

Tikanlar tilidan novvotlar so'rib,
Jonzotlar yuribdi qandini urib,
Men nima ko'ribman dunyoga kelib,
To'kilgan dilimni to'ldirgin, jonim.

Sendek oy ortidan ovvoradirman,
Bir darddan jigari ming poradirman,
Farishtam, men senga yolvoradirman,
To'kilgan dilimni to'ldirgin, jonim.

Xazonlar hasrati kuzga armonmi,
Quyosh ham men kabi kuyguvchi jonmi,
Senga rost bu dunyo menga yolg'onmi,
To'kilgan dilimni to'ldirgin, jonim.

Jon nadur, tosh kuygay ishq uvog'idan,
Bir uvoq so'rabman yor dudog'idan,
Shu telba Mahmudning kech gunohidan,
To'kilgan dilimni to'ldirgin, jonim.



MEN VASLIN ISTAGAN

Vafosizlar ichra men vafodor axtarurman,
Ko'zlari mehrdan yongan bir dildor axtarurman,
Ishqparastman va lekin dema yor axtarurman,
Men vaslini istagan bir Allohdir, bir Alloh.

Nolam toshni teshdi-yu, bandasiga yetmadi,
Netay kulgum bir irmoqning xandasiga yetmadi,
Bor davlatim qalandarning jandasiga yetmadi,
Qalandar qalbini ber, yo Allohim, yo Alloh.

Yo'lda yurgan yo'Ichiga ham farishta, shayton yor,
Shaytonlikni qay kaslar aylab tursa ixtiyor,
Shaytonga ham insofni ato etar qudrat bor,
Mehribonim yaratgan bu Allohdir, bu Alloh.

Rasululloh kelmagay qaytib dorul fanoga,
Birov erta, birov kech borur dorul baqoga,
O'zing iymon, tavfiq ber bandai bevafoqa,
So'zing haq, Rasul barhaq, yo Allohim, yo Alloh.

Yig'lab kelib dunyoga, bo'zlab ketar bandangman,
Sen dilimga ne solsang, so'zlab ketar bandangman,
Himoyatni o'zingdan ko'zlab ketar bandangman,
Men vaslini istagan, yo Allohim, yo Alloh.



ASRAGAY

Oqibat ardog'i ko'zingda kulsa,
Sadoqat sabog'i so'zingda kulsa,
Muhabbat, muruvvat yuzingda kulsa,
Alloh panohida asragay seni.

Otang duosida umring tilasa,
Farzanding boshini mehning silasa,
Tik boqsang poyingga shayton qulasa,
Alloh panohida asragay seni.

Maysalar yuzida dur, shabnam ko'rib,
Quyosh kiprigida olgaydir terib,
Savobing tersalar izingda yurib,
Alloh panohida asragay seni.

Ohing arshga yetgay diling pok bo'lsa,
Avliyolar tutgay qo'ling pok bo'lsa,
Yo'ldoshing farishta yo'ling pok bo'lsa,
Alloh panohida asragay seni.

Ko'kka uchmas ekan ko'ngil qush bo'lmas,
To'lmayin to'kilsang diling xush bo'lmas,
Mahmud, gar tilingdan oyating tushmas,
Alloh panohida asragay seni.



ONA RIZOSI

Niyati ziyorat sayyidi olam,
Qay kun qabristonga kirgandi birrov,
Bir qabr yonidan o'tayotgan dam,
Eshitdi, oh urar go'rida birov.

„Olovga aylanmish har urgan ohim,
Ostimda olov, vah, ustimda olov,
Dodimni eshitmas, olampanohim,
O'ng yonimda olov, so'limda olov“.

Ortiga qaytdi-da, Muhammad shu dam,
Buyurdi Makkaning ahli joniga:
— Qabristonga borib har bitta odam,
O'tirsin tegishli qabr yoniga.

Qarasa nolali qabrga yaqin,
Cho'k tushib o'tirmish mushtipar kampir,
So'radi payg'ambar sarvari oqil:
— Bu senga kim bo'lar, onaxon, gapir?

— O'g'lim, — dedi ona, — bunday farzanddan,
Lekin men bezorman, oh, Rasululloh!
Rasululloh ham so'rdi yaratgandan:
— Pardani ko'targin, yo qodir Alloh!

Parda ko'tarildi va ko'rdi ona,
Olov bilan to'lgan o'g'li mozori,
Yosh emas ko'zidan oqizib qon-a...
Yaratganga uchdi onaning zori.

— Bor Xudoyo, karami keng Xudoyo...
Shuncha azoblarda qolmishmi bolam!
Mehring darig' tutma, boqqil qiyo-yo,
Roziman men undan, rozi bo'l sen ham!

Olov so'ndi shu on o'g'lon qabrida,
Ona rizosi bu, Alloh karami.
Do'zax olovi bor ona qahridda,
Unutmang, mehrida jannat malhami.

QADIM DUNYO

Bu dunyo qadimdir, inson ham qadim,
Yaxshi ham qadimdir, yomon ham qadim,
Gohi baxtim kulib, ketib omadim,
O'tkinchi dunyodan o'tib boraman.

Mehr — ko'zlar ichra kulgan bir chechak,
Vafo — har bir mo'min axtargan ertak,
Jafo — har qarichda unguvchi pechak,
Mehr-u vafo istab ketib boraman.

Beayb parvardigor deydilar yolg'iz,
Gunohkor bandaman, boshim xam hargiz.
Yo Rasululloh, men bir ummatingiz,
Siz yurgan yo'llarni o'pib boraman.

Dardmand ko'p topilmas unga davolar,
Elga qulluq qilmas kibr-u havolar.
O'z qavmidan hayron Odam Atolar,
Mahmud, rost dunyoga netib boraman.



MUNOJOT

Tong otgach quyosh nuri har mujgonga boylanur,
Botayotgan quyoshning ohi qonga aylanur,
Shifo bersang bemorning jon jismiga joylanur,
Yo rab, har bir qulingni to'rt muchasi sog' bo'lsin.

Amringsiz tikan kirmas, uzilmagay bir yaproq,
O'tayotgan har kuni bandaga bersin saboq,
Chumoliga ozor ham sanalsa katta gunoh,
Yo rab, o'z gunohidan har quling ogoh bo'lsin.

Bedov mingan bilmagay qayda oti qoqilur,
Kim nafsning qulidir yuzi tuban yiqilur,
Farzandi qobil bo'lsa, chirog'i ham yoqilur,
Yo rab, ota-onaga har farzand chirog' bo'lsin.

Yaxshining nomi qolsa, yomondan qolsa gar dod,
Qochgan ham Xudo desa, quvgan qilsa munojot,
Tarozini o'zingdan bo'lak kim tutar, hayhot,
Yo rab, har bir qulingga pok imon hamroh bo'lsin.

Olovlansa yuragim bir siqim tuproq tutgum,
Quvonchdan boshim osmon, cho'k tushib yerni o'pgum,
Nolam senga yetgay deb ko'z yoshim yerga to'kkum,
Yo rab, Mahmud poyingda toabad tuproq bo'lsin.



YASSAVIY BOBO

Tangriga shukrona so'zim boshida,
Gunohim oqadi ko'zim yoshida,
Haqni deganlarning siz bardoshida,
Poyingizga keldim, Yassaviy bobo.

Orin o'ylaganga oriyat yo'ldosh,
Imon, diyonat but, yaratgan qo'ldosh,
Umringiz hikmatdir, dilingiz quyosh,
Poyingizga keldim, Yassaviy bobo.

Umidli dunyoda orzu sarhadsiz,
Kim kamol topibdi yashab maqsadsiz,
Maqsadi muqaddas miskin Ahmadsiz,
Poyingizga keldim, Yassaviy bobo.

Qachonki ko'ngildan bir oh to'kilor,
Tavba Haqqa yetgay gunoh to'kilor,
Har satri hikmatgo'y ash'or o'qilur,
Poyingizga keldim, Yassaviy bobo.

Subhi sabolarda Alloh qo'li bor,
Savti navolarda kimning dili bor,
Muhammad ummatin bitta yo'li bor,
Poyingizga keldim, Yassaviy bobo.

Qo'l ishda, dil har on Xudoda bo'lsa,
Jonlar haq ish uchun fidoda bo'lsa,
Azizlarning ruhi duoda bo'lsa,
Poyingizga keldim, Yassaviy bobo.

Kech ochilgan ko'zlar qarog'idasiz,
Nur istagan dillar so'rog'idasiz,
Siz Turk-u Turonning ardog'idasiz,
Poyingizga keldim, Yassaviy bobo.

To'kilmadim, to'ldim, Yassaviy bobo,
 Qon dilimni tildim, Yassaviy bobo,
 Tilsingga til bo'ling, Yassaviy bobo,
 Poyingizga keldim, Yassaviy bobo.

Sizga nazar qilgan qodir Xudodir,
 Bitta ne, ming Mahmud bunda gadodir,
 Ahli Turon uchun sizdan duodir,
 Poyingizga keldim, Yassaviy bobo,
 Ruhingiz yor bo'lsin, yor bo'lsin Xudo.

SO'NGGI YO'L

Bir yo'l bor hamma bosh egib borar,
 Har bitta yurakka tosh tegib borar,
 So'qir ko'zlarni ham faryodlar yorar,
 So'nggi yo'l bu, so'nggi yo'ldir, yoronlar.

Onam deb yig'laydi qay kimsa nolon,
 Otam deb motamda o'zgasi ayon,
 Bolam deb, bolam deb bo'zlasa yomon,
 So'nggi yo'l bu, so'nggi yo'ldir, yoronlar.

Qabristonlar qayg'ularning eshigi,
 Qabrlar, qabrlar mangulik beshigi,
 To'lmas o'tkinchi dunyoning kemtigi,
 To'lar paymona, paymona, yoronlar.

Besh kunlik umrida qadrin axtarib,
 Topmayin ketdilar oqillar g'arib,
 Zog'lar to'dasida qolsa andalib,
 Dunyo g'amxona, g'amxona, yoronlar.

Yaxshiyam o'lim bor, boshlar xam bo'lur,
 Boshim „tosh“ degan, toshlar malham bo'lur,
 Mahmud, savob qil, qabringda sham bo'lur,
 Jannati deb yerga qo'ysa, yoronlar.

TINGLADIM

Yig'layotgan chaqaloqning qo'shig'ini tingladim,
Yig'i demang men hayotning oshig'ini tingladim.

Yonog'idan yumalagan ko'z yosh emas, shabnamdir,
Yig'isida kuylayotgan bir pokiza odamdir.

Chumolining chinqirig'i tovonimni tilvordi,
Silagandim toshning yuzin qiqir-qiqir kulvordi.

O'z bog'imdan uzmak bo'lib bir g'unchaga qo'l ursam,
Ohlar urib bolari yig'lab turibdi ko'rsam.

Yur desa, oy ortidan tunda ergashib erdim.
Yulduzlarning ko'zidan to tonggacha nur terdim.

Ruxsoringni ko'ray deb yolvorsam yuragimga,
Yondirib yuzin bosdi bir bulbul ko'kragimga.

Kaftlarimdan to'kilgan iltijodan yer kuygay,
Men do'lvor devonani onam kabi kim suygay?

So'ngsiz savol so'ngida egik ko'rdim boshimni,
Yolg'iz Alloh ko'rgaydir diydamdagi yoshimni.



O'ZINGGA YETSIN OHIM

Qozonida kulganda kambag'alning yovg'oni,
Yoniga yo'lolmagay bu jahonning sultoni.
Tishlarida don olib ketayotgan ona qush,
Qanotlari ostiga sig'dirgay keng samoni.
Kambag'alning quvonchin olib qo'yma, Xudoyim,
Ona qush ham samoni quchib yurolsin doim.

Hikmatlar xazinasin tilab to'ymaydir bu dil,
Samovot daryosida oqib yurguvchi ko'ngil.
O'lmasdan turib o'lgan o'zingga yaqin axir,
Uning nafsini ko'zgusi sinib ketgandir chil-chil,
Bu bandangni o'zingdan yiroq qo'yma, Xudoyim,
Hikmating bilan yerni yoritib yursin doim.

Yeb to'ymagan har nokas yalab ham to'ymagaydir,
Dunyoga gar o't ketsa tovonni kuymagaydir,
Shayton sharmandasiga o'zing bas kelmasang gar,
Yer yuzida ko'kargan bir nihol qo'ymagaydir.
O'zingga tavbam bu kun, o'zingga yetsin ohim,
Bu dunyoni ulardan o'zing asra, ilohim!



SENGA YETMAY

Armonini ortidan chopib yurgan bolaman,
Yuragimdan chimchilab gullar uzib olaman,
Ko'nglim bilan gohida arazlashib qolaman,
Bir bolishga sig'mayin qolar bitta boshimiz.

Gulzorda gurunglashib yuraylik desa ko'nglim,
Yolg'on karashmalarga yetaklab ketar yo'lim,
Bir qo'lim oy sochida, o'z yoqamda bir qo'lim,
Ham gunoh-u savobni yuvar ko'zda yoshimiz.

Gunohim otgan toshni savobim malham qilur,
O'ng ko'zim o'rnin topsa so'liga sitam qilur,
Rahmonim motam qilsa, shaytonim bayram qilur,
Bir yurakka tegadi otgan ikki toshimiz.

Guruchdagi kurmakni ko'rmaylik desa ko'zim,
Insof otliq oq saman sabringa tilar to'zim,
O'zni senga topshirdim, parvardigor, yolg'izim,
Senga yetmay tugamas bizning bu taloshimiz.



ODIB KATGAN
ARMANLAR

1996- yil





ANGLAGIM KELAR

Tomirim to'liqlar oshyoni,
Zulmatda kashf etdim ziyoni,
Tovushdan tanidim vafoni,
Bir maysadek bo'ylagim kelar,
Yong'irlardek kuylagim kelar.

Ko'nglimni ko'rsam ne buloqda,
Umidim gullasa qumloqda,
Armonim ulg'aydi ardoqda,
Yuragimni iylagim kelar,
Sabolardek so'ylagim kelar.

Bag'rimga bosganim toshmidi,
Kiprikka osgan tosh yoshmidi,
Dilim g'animga sirdoshmidi,
O'tgan umrim o'ylagim kelar,
Yetim sevgim siylagim kelar.

Quyoshning yuzida pardalar,
Chaqmoqlar so'zida zardalar,
Kapalak labida xandalar,
Har tovushin tinglagim kelar,
Dunyo, seni anglagim kelar.



ZANJIR

Qarog'imga qalqib chiqqan jola-jola dur,
Yuragimni tars-tars yorib sizib turgan nur,
Boychechakning bayotidek hur yaralgan, hur,
Sen dilimga zanjir solma, mening do'stginam.

Tong hovuchda shabnam tutib quyoshni kutar,
Bulutlarning bulog'iga kim elak tutar,
Muruvvati mo'l bo'lganlar murodga yetar,
Sen dilimga zanjir solma, mening do'stginam.

Gar ko'ngildan kavsar suvi tomib turmagay,
Boshing uzra qaldirg'ochlar chah-chah urmagay,
G'ofil odam oydin tunda yulduz ko'rmagay,
Sen dilimga zanjir solma, mening do'stginam.

Yiqilganni chumoli ham turtib o'tolar,
Daryodilsan, maysalar ham sendan nur olar,
Pardasini topgan mashshoq toshda kuy chalar,
Sen dilimga zanjir solma, mening do'stginam.

She'rlar bitsam jondan tomgan nolam o'zniki,
Tovonlarda chirqiragan xazon kuzniki,
Kimdir aytar g'oyibona: „Mahmud bizniki!“
Sen dilimga zanjir solma, mening do'stginam.



SABR

Nohaqlik jismingni ezib tursa ham,
Ko'z yoshing diydangdan sizib tursa ham,
Shayton qoning ichra qo'zib tursa ham,
Rahmonning etagin tutganing yaxshi,
Yorug' kunlaringni kutganing yaxshi!

Yaxshi gapga ilon inidan chiqsa,
Yomon so'zga pichoq qinidan chiqsa,
Qo'li qon kimsalar dinidan chiqsa,
Alaming ichingga yutganing yaxshi,
Yomondan sal nari ketganing yaxshi.

Oqibat — joningda ko'kargan bir gul,
Jaholat — jismingda shaytonga bir qul,
O'tgan kunlaringni unutma butkul,
Havasda kamolga yetganing yaxshi,
Hasaddan o'zni pok etganing yaxshi!

Bir marta yasharsan, ko'p qadim naql,
Ko'ngil chirog'idir tafakkur, aql,
Poklikda eng avval o'zingga yoqqil,
Luqmai halolni yutganing yaxshi,
Dilingdan g'uborni sitganing yaxshi.

Mahmud, tilagingda nur, chiroq yonsin,
Har tong yuragingda imon uyg'onsin,
Mehring bulog'iga g'ariblar qonsin,
Boringni kaftingda tutganing yaxshi,
Dunyodan tamasiz o'tganing yaxshi.



QADIM SO‘Z

Qadim bobolardan qolgan qadim so‘z:
Hammadan qoladi bu ko‘hna dunyo.
Mening ham bo‘g‘zimni o‘rtaydi shu bo‘z:
Hammadan qoladi bu ko‘hna dunyo.

Tishlagan burda non tishga nasiba,
Yerga tushgan uvoq qushga nasiba,
Kun bitsa qultum suv bo‘lmas nasiba,
Hammadan qoladi bu ko‘hna dunyo.

Boyliging boshingga bolish bo‘lmaydi,
Kim aytar, ko‘zingga tuproq to‘lmaydi,
Tobutda Iskandar qo‘li yig‘laydi,
Hammadan qoladi bu ko‘hna dunyo.

Otguvchi har tongda umid yuz ochar,
Tiriksan, boshingda quyosh nur sochar,
Hasadgo‘y, xasisdan baraka qochar,
Hammadan qoladi bu ko‘hna dunyo.

Insonsan, har jonga vafolar qilgin,
Toshni tosh bilmagin, sadolar qilgin.
Duo ol, o‘zing ham duolar qilgin,
Hammadan qoladi bu ko‘hna dunyo.

Ko‘z ochsang ko‘zingda mehrlar kulsin,
So‘z ochsang so‘zingda sehrlar kulsin.
Mahmud, savob bilan izlaring to‘lsin,
Hammadan qoladi bu ko‘hna dunyo.



UZR

Malomat tillarda bir tosh bo'lganda,
Ruhingiz asrlar bardosh bo'lganda,
Kun kelib armonlar ko'z yosh bo'lganda,
Uzr so'rdik, qabul aylang, Temur bobo.

Tanni yaralasa illatning dardi,
Qalbni yaralagay millatning dardi,
Ey, qadim Turonning xaloskor, mardi,
Uzr so'rdik, qabul aylang, Temur bobo.

Quyosh ko'kda bo'lgan ishga guvohdir,
Hilol, tunda ne bor, ko'rib ogohdir,
Dildagin bilguvchi yolg'iz Allohdir,
Uzr so'rdik, qabul aylang, Temur bobo.

Har tong qalbingizda uyg'onib imon,
Bir qo'lda qilich-u, bir qo'lda Qur'on,
Haq deb jihod qilgan amirul-zamon,
Uzr so'rdik, qabul aylang, Temur bobo.

Oqsaroy ohini samolar tinglab,
Qabringiz buzganlar ketdilar qaqshab,
Siz esa kelayapsiz yosharib, yashab,
Uzr so'rdik, qabul aylang, Temur bobo.

Poklik — ko'zingizda ko'kargan kurtak,
Adolat — tig'ingizdan tomguvchi ertak,
Biz o'zni kech topdik, sizni ham beshak,
Uzr so'rdik, qabul aylang, Temur bobo.

Samarqand osmoni yulduzlar soyi,
Sizni sog'ingandir ko'kdagi oyi,
Maysalar shivirlar: „Jannatda joyi!“
Uzr so'rdik, qabul aylang, Temur bobo.

Hech kim Sizdek bilmas ko'z yoshning ta'min,
Haqqa yetgan bilur Haqning matlabin.
Alloh rozi bo'lsin, Robbil Olamin,
Uzr so'rdik, qabul aylang, Temur bobo.

BEKOR

Oyga ergashsang-u yerni ko'rmasang,
Manglaydan oqquvchi terni ko'rmasang,
Eldan olib tursang, elga bermasang,
Yurtning bolasiman deganing bekor.

Otang obro'siga ko'ksingni kerib,
Yursang har yulduzni benarvon urib,
Nogoh qoqilsang-u ketmasang turib,
Mardning bolasiman deganing bekor.

Bir chimdim alamga qaddingni buksang,
Nomard poyin o'pib, unga tiz cho'ksang,
Qizg'aldoq misoli bargingni to'ksang,
Tog'ning lolasiman deganing bekor.

Bolang bo'zlab tursa, ko'zga ilmasang,
Onang motamida yig'lay bilmasang,
Daryolar to'lsa-yu, sen bir to'lmasang,
Qalbning nolasiman deganing bekor.

Ko'kdagi har bulut jola to'kolmas,
Mardning bolasini nomard bukolmas,
Mahmud, agar seni eling tan olmas,
Elning bolasiman deganing bekor.



ONA TILIM

Qadrim so'raganda qayrog'im, tilim,
Yorning ta'rifida qaymog'im, tilim,
Yovning yuragiga titroqlar solgan,
Alpomish belida belbog'im tilim.

Yassaviy baytida tumorim, tilim,
Navoiy nazmida sen orim, tilim,
Kumushning vasfida betakror malak,
Qodiriydan qolgan yodgorim, tilim.

Onam allasida bayotim manim,
Bolam og'zidagi novvotim manim,
Oq-sariq ilonlar bo'ynidan bo'g'gan,
Tanglayda tosh qotgan faryodim manim.

Toshlar to'fonida bag'ri tilimsan,
Ko'ksin changallagan qonli qo'limsan,
Oyga almashmasman, kunga bermasman,
Cho'lpon yuragida ungan gulimsan.

Ko'zlarning gavhari, ko'ngil oynasi,
Izhor iffatidir yorning ginasi.
Mashrab qalamida devona tilim,
Tinglagan, entikkan ishq ashulasi.

Jismimda demangiz, jonimda tilim,
Yetmish ikki tomir qonimda tilim,
O'g'linga ham mening jonimdan o'tgan,
Qizimga qatralab qonimdan o'tgan.

Qadrim so'rasangiz qarog'im tilim,
Ko'ngil osmonida chaqmog'im tilim,
Nonidek totli-yu, choyidek issiq,
O'zbek ko'ksidagi bulog'im tilim.

ELNING ARDOG'I*Faxriddin UMAROVga*

Tuproqda yotsa ham tillo tillodir,
O'zni maqtaganlar chala mullodir,
Sizni ardoqlagan qodir Xudodir,
O'zbekning faxrisiz, Faxriddin og'a.

Soz emas, dillarni chertgan hofizim,
Yuragin kaftida tutgan hofizim,
Alamin ichiga yutgan hofizim,
O'zbekning faxrisiz, Faxriddin og'a.

Qo'shiq bu ko'ngildan chiqqan otashdir,
Bahorning bulbuli sizdek dilkashdir,
San'atda sultonlar sizga tutashdir,
O'zbekning faxrisiz, Faxriddin og'a.

Kim aytar kesakdan chiqmish chaqinlar,
Hayot bor, yasharkan safda sotqinlar,
Elning ardog'ida sizdek oqinlar,
O'zbekning faxrisiz, Faxriddin og'a.

Turon huzurdadir sozingiz tinglab,
Erka ohularni yuring erkalab,
Bizlar duodamiz umringiz tilab,
O'zbekning faxrisiz, Faxriddin og'a.



O'ZBEKMIZ

Mehmon desa oydek to'lib,
Kundek kulgan o'zbekmiz.
Bir mayizni qirqqa bo'lib,
Ko'ngil to'lgan o'zbekmiz.

Yotni yetti siylab aytgan,
O'z yuragin iylab aytgan,
Anduhini kuylab aytgan,
Dilni tilgan o'zbekmiz.

Naqshbandlar, Yassaviylar
Qabrida ham imon gullar.
Biz Allohga sodiq qullar,
O'lmay o'lgan o'zbekmiz.

Temurdek bir sultoni bor,
Yulduz yig'lar osmoni bor,
Abdulatif — nodoni bor,
Ordan o'lgan o'zbekmiz.

Ko'ngil o'rtar navosida,
Hatto dard bor sabosida,
Mohlaroyim vidosida
Guldek so'lgan o'zbekmiz.

Yuragiga dardin mixlab,
Asrlardan ziyod uxlab,
Uyg'onganing qo'yay qutlab,
O'zni topgan o'zbekmiz.

Haqqa yetdi xitobimiz,
Istiqlol nur, oftobimiz,
Dunyo ko'rib shitobimiz,
Tug'da kulgan o'zbekmiz.



Ko'ngil erkdan ketar to'lib,
Quyosh qutlar har tong kulib,
Endi bir jon, bir tan bo'lib,
Safda turgan o'zbekmiz.

Toshni tilar qadamimiz,
Do'st dardining malhamimiz,
Hurlik abad hamdamimiz,
Xudo bergan o'zbekmiz!

JIYDA GULI

Tilloga rang bergan rangingdan o'pay,
Jonimdan suyganim jiydaning guli.
Kaftimga to'kilgin, poyingga cho'kay,
Jonimdan suyganim jiydaning guli.

Irmoqlarda oqqan alyorlaringdan,
Olam entikadi iforlaringdan,
Gulim, men g'arib ham xushtorlaringdan,
Jonimdan suyganim jiydaning guli.

Shoxlaringda shoda marjonlar tutib,
Intizor turibsan, ayt, kimni kutib,
Jilmaygan bargingni qo'yay bir o'pib,
Jonimdan suyganim jiydaning guli.

Tilloga rang bergan rangingdan sening,
Nonga aylanguvchi gulimsan mening,
Toshlar ham gullaydi gullagan kuning,
Jonimdan suyganim jiydaning guli.

Bog'larda bahorlar bayrami bu kun,
Gulim, sen gullarning sanami bu kun,
Qoshingda Mahmudning xush dami bu kun,
Jonimdan suyganim jiydaning guli.

TULPORLARIM, QAYDASIZ?

Yolingizni silay deb yolvordim tushlarimda,
Ko'rgayman sizni faqat xayolda, hushlarimda,
Kelingiz, yemish beray qo'ldamas, tishlarimda,
Tuyoqlari tosh teshgan tulporlarim, qaydasiz?

Eshak minib bekklikni istab yurgan zotlar ko'p,
Shohman deydi, aslida piyodadan motlar ko'p,
Ravon yo'lda qoqilib turolmagan otlar ko'p,
Tuyoqlari tosh teshgan tulporlarim, qaydasiz?

Alpomishning qanoti, Go'ro'g'lining hayoti,
Hazrat Amir Temurning dunyoni quchgan oti,
Kech ochilgan ko'zimning qonlar tomgan faryodi,
Tuyoqlari tosh teshgan tulporlarim, qaydasiz?

Otdan tushib, egardan tushmay yurgan to'ralar,
Men o'zimga bekman deb har bittasi kerilar,
Na bek, na ot qadriga yetmadik-ku, jo'ralar,
Tuyoqlari tosh teshgan tulporlarim, qaydasiz?

Tulporlarim, ruhingiz tursin Turonni alqab,
Ot bosmagan izlarni toylar bossa ne ajab,
Mayli tushimga kiring, ketmangiz meni tashlab,
Tuyoqlari tosh teshgan tulporlarim, qaydasiz?



ISTAK

Xaslar silkinib gulga kirsar,
Toshlar to'lg'onib tilga kirsar,
Nomard uyg'onib elga kirsar,
But bo'larmi bir kaming, dunyo?

Bulutlardan kulgu to'kilsa,
Sabolardan tuyg'u to'kilsa,
Gunohidan har jon o'kinsa,
But bo'larmi bir kaming, dunyo?

Quyosh asli yerning shukuhi,
Ko'kdagi gul azizlar ruhi,
Mehr bo'lsa ko'ngilning ko'rki,
But bo'larmi bir kaming, dunyo?

Ostonadan bog'lar boshlansa,
Vatan, desang, dil otashlansa,
Yerni tepmay qadam tashlansa,
But bo'larmi bir kaming, dunyo?

Yomg'irlarning yig'isida kuy,
Maysalar der: „Sharobingdan quy!“
Qafas yirtsa bulbul hikmatgo'y,
But bo'larmi bir kaming, dunyo?

Savol berdim, javob axtardim,
Savol so'ngsiz, so'ngsizdir dardim,
Seni bekam ko'rmoq istardim,
But bo'larmi bir kaming, dunyo?



HAYRAT

Tongda hayrat ochadi ko'zim,
Yuragimning yallig'ida kuy.
Atirgulga aylanar so'zim,
Soqiy, ishqning sharobidan quy.

Kapalakdan ranglar tilandim,
Shabnamlardan sharbatiy sharob.
Jilmaygan jilg'aga elandim,
Bulbul bilan yozdik bir kitob.

Kitobki, varag'i gul bargi,
Qatidan taralmish iforlar.
Bolari tergani gul gardi,
Qanotida chertib dutorlar.

Ko'z yorigan bir ayol misol,
Quyosh ko'kda tabassum sochar.
Momo Yer ham entikar xushhol,
Tong aslida shunday yuz ochar.



MOMOLAR

Sumalakni suzishni,
Xumor qilgan momolar.
Boychechakni boylashib,
Tumor qilgan momolar.

Navro'zning navosiga
Yuragini tor qilgan.
Qozonning qulog'iga
Chertishib alyor qilgan.

Momolar-ey, momolar,
Tillarida duolar.
Yuz yoshda ham yoshargay,
Omon bo'lsa bobolar.

Momolarni xudoyim
Mehrga mirob qilgan.
Yuzlarini tunda oy,
Kunduzi oftob qilgan.

O'zbekning momolari,
Qayg'uni quvib solgan.
O'zbekning bobolari,
Quvonchni quchib olgan.

Eldagi qut-baraka
Ularning duosidan.
Yaratgan qo'shiqlari
Sabrning sadosidan.

Momolar-ey, momolar,
Maysadek muloyimdir.
Ularning qarog'ida,
Asragan Xudoyimdir.

AYOL

Sadoqat bog'ida ungan chechaklar,
Yulduzlar yuzidan tomgan ertaklar,
Buloqlar ko'zida kulgan tilaklar,
Jannat farishtasi emasmi, ayol?!

Bog'larga bahorni yetaklab kelgan,
Farzandi qoshida oy bo'lib to'lgan,
Ilk aytgan qo'shig'i allalar bo'lgan,
Jonimiz rishtasi emasmi, ayol?!

Laylining labidan tomgan vafoda,
Kumushning ko'zida suzgan hayoda,
Mohim, Mohlaroyim chekkan jafoda,
Muhabbat shevasi emasmi, ayol?!

Ko'zin qarosida mehri belanchak,
Lutfin ardog'ida sehri bor beshak,
Qay mardning ohusi turgan kelinchak,
Oshiqning ginasi emasmi, ayol?!

Tishlagan juft nonda ko'z yoshlari qon,
Oh, qirqta jonining hammasi giryon,
Ellik yil shahidin yo'qlagan juvon,
Vafoning siynasi emasmi, ayol?!

Ko'nglin olmaganim, ko'kda hilolim,
Ming bora kechirgan mening malolim,
Onam, nuridiydam, mehri zilolim,
Tangrining tuhfası emasmi, ayol?!

Tiz cho'kib o'ziga tavallo qilay,
Momo Havolarim, umringiz tilay,
Oyoqlaringizga boshimni qo'yay,
Mahmudni farzandim demasmi, ayol?!

QUSHIM

Qanotiga qadrni qadab olgan qaldirg'och,
Tishlarida suv emas, sadaf olgan qaldirg'och,
Polaponi og'ziga odob solgan qaldirg'och,
Oromingni sen oyga berganmisan, jon qushim,
Mehrğa, muhabbatga olamda sulton, qushim.

Simyog'ochda suluvlar xayolin buzgan o'zing,
Yigitlarning ko'ziga ishq rasmin chizgan o'zing,
Oshiqlar osmonida bulbuldan o'zgan o'zing,
Oshiqlik odamzodga azaldan armon, qushim,
Sen dilimning taskini, dardkashim, nolon qushim.

O'zi to'q-u ko'zi och zog'lardan to'yanmisan,
Bir qarab qarag'alarning ko'zlarin o'yanmisan,
Bevafolar ichra sen ham suymayin qo'yanmisan,
Qarg'alarga sen agar tik boqsang biyron, qushim,
Jonimni men uyangga to'shab beray, jon qushim.

Kel, kaftimga qo'n, qushim, qanotingni silayin,
Qarog'imda asrabon, qarog'ingda kulayin,
Osmonlarda men senga oppoq yo'llar tilayin,
Ikkimiz ham dunyoga birpaslik mehmon, qushim,
Men yerda yonib o'tay, sen osmonda yon, qushim.



MOMO YER

Shamollarning shokilasi daraxtlarning bo'ynidadir,
Tog'lar toshin dil izhori irmoqlarning o'ynidadir,
Oshiq bulbul sir, xandasi g'unchalarning qo'ynidadir,
Aytar so'zim suvratini, Momo yerim, o'zing berding.

Maysalaring shivirlashdi, tizlar cho'kdim, quloq berdim,
Bilmay bosib chumolini gunohimga so'roq berdim,
Vatan ne deb so'rganlarga bir kaftgina tuproq berdim,
Menga Vatan siyratini, Momo yerim, o'zing berding.

Turnalarning tumorlari yaratganning o'zidadir,
Kimki poklik axtaribdur — halol topgan tuzidadir,
Gar gunohi, savobi bor bandasining izidadir,
Pokdomonlik jur'atini, Momo yerim, o'zing berding.

Quyosh ko'kda sen deb yashar, oy boshingda o'rgiladi,
Ko'rdim har tun ming-ming yulduz etagingga nur eladi,
Chimdingina loying bilan qaldig'och beshik beladi,
Bu dunyoning hayratini, Momo yerim, o'zing berding.

Senda ungan har bir giyoh yaratganga sano aytar,
Ko'kka yetgan teraklar ham kuni bitsa senga qaytar,
Muhammadga ummat Mahmud kafti kuyib duo aylar,
Oshiqlikning qudratini, Momo yerim, o'zing berding.



TANGRIDAN TILA

Ko'ksingda bir bulog'ing bo'lsin,
Ko'zingda nur, charog'ing bo'lsin.
Ilm-u hikmat yarog'ing bo'lsin,
Tilovat qil, Tangridan tila.

Ko'z yoshlaring yuzlaring yuvsin,
Gunoh botgan izlaring yuvsin,
Pok iymoning shaytonni quvsin,
Tilovat qil, Tangridan tila.

Seni yo'qdan qilganda paydo,
Peshonangga ne yozmish Xudo,
Shoh bo'larsan, balki bir gado,
Tilovat qil, Tangridan tila.

Egri bo'lsang do'zaxing bordir,
To'g'ridirsan, jannating yordir.
Qiyomatda hamma iqroridir,
Tilovat qil, Tangridan tila.

Shayton yursa yolg'onga chorlab,
Rahmon tursa rost so'zdan porlab,
Aro yo'lda ketma sen zorlab,
Tilovat qil, Tangridan tila.

Hidoyat qil, shitobing bo'lsin,
Inoyat qil, oftobing bo'lsin,
Qo'lda Qur'on, tavofing bo'lsin,
Tilovat qil, Tangridan tila.

Xobingda ham agar bedorsan,
Shukrin qilgin, garchi bemorsan,
Bo'lay desang Allohga, yorsan,
Mahmud cho'k tush, Tangridan tila.

ALLOHDANDIR

Ko'zingizni ochmasmi kelmas bo'lib ketganlar,
Diydangizda yoshmasmi umri yelda o'tganlar,
Ko'ksingizda toshmasmi gunohlarga botganlar,
Boshga tushgan balolar qilmish-u gunohdandir,
Poklanish ahdi bizdan, poklamoq Allohdandir.

Gar dilingda or bo'lgay, iymon barqaror bo'lgay,
Maysalar shabnamlarga yuz chaysa mador bo'lgay,
Bolishingda baxt bo'lsa, tilingda alyor bo'lgay,
Kim der darveshga nazar boshdagi kulohdandir,
Ibodat bandasidan, ijobat Allohdandir.

Quyosh ko'kning sultoni, oy osmonning malagi,
Dunyoga nur ulashmoq oqillarning tilagi,
Gulga xasni qo'shmagay qiyomatning elagi,
Tiriklik bandasiga har dami ogohdandir,
Ibrat izlagan olsin, ul Rasulullohdandir.

Qaddingni raso qilgan asli toza niyatdir,
Alloh zikrini tutsang ul kalima oyatdir,
Ko'ksingda tog' ko'tarsang bu kuch samimiyatdir,
Yiqilib omon tursang boshdagi panohdandir,
Faqirlik sendan, Mahmud, panohing Allohdandir.



UMRIM

Netay, bir dam tutolmasman, yelda o'tgan umrim mening,
Bir qatrasin icholmasman, selda o'tgan umrim mening,
Nadomatning kemasida malomatdan eshkak tutib,
Armon otlig' daryodaman, do'lda o'tgan umrim mening.

Orom bordir olovlarda, yel sovurgay tushgan kulni,
Bir nihol ko'rkicha, oh, shod etmadim bitta dilni,
Duolarda kuydirmadim goh yayratib ikki qo'lni,
Dilda yig'lab o'z-o'zimga, tilda kulgan umrim mening.

Shabnam gulga umr tilab quyoshning qurboni bo'lar,
Bir nafas pok yashash uchun dunyoning mehmoni
bo'lar.

Ne qildim, ajri uchun yaratgan farmoni bo'lar,
Izlarimda afsuslarim, tovon tilgan umrim mening.

Alloh, Alloh, tavbam senga, tizimdan qon tomsin, mayli,
Ko'z yoshim yuzim yondirib, ko'zimdan jon tomsin, mayli,
O'zni topdim, qul qilmagay endi meni ko'nglim, mayli,
Alloh desam olam go'zal, gulday bo'lgan umrim mening.



EL

Sipohi sitamgardir sultonni suymaydi el,
Benom-u nishon ketsang ketarsan, kuymaydi el.
Oqilsan, magar dilda vafoning jomi bordir,
Sipqorar umring tilab, qo'lidan qo'ymaydi el.

Adolat ortidagi ovvora odamni ko'r,
Oriyat oromidan cho'g'lanar ko'zlarda qo'r,
Muhabbat bog'ida gar bo'lolsang bulbulga jo'r,
Oshqlik da'vo etsang yolg'onga yo'ymaydi el.

Uzilgan yaproq ohin ko'targuvchi yer bo'lur,
O'rgimchak o'ylabmidi, karomati to'r bo'lur,
Chumoli jafosicha manglayingda ter bo'lur,
Topganing buyurgaydir, to'yingda to'ylaydi el.

Umrinning ummonidan dur emas, so'z axtarib,
Topganim sayin bildim ko'nglima buncha g'arib,
Tangrining kalomidir go'zal Qur'oni sharif,
Shu bois tilda takror, so'ziga to'ymaydi el.

Bir osmon ostidamiz, bir zamin ustidamiz,
Har kunga mehmonmiz-u, bir-birning qasdidamiz,
El ichra kimmiz o'zi, so'rdikmi aslida biz,
Xas oyoq ostidadir, ulug'in o'ylaydi el.

Jon ichra jonim yo'qdir, o'zga makonim yo'qdir,
Vatansiz jannatda ham surar davronim yo'qdir,
Shoirman, ayo, Mahmud, so'zda yolg'onim yo'qdir,
Saxovat sarkoridir, sultonni siylaydi el,
Benom-u nishon ketsang, ketarsan kuymaydi el.



SHOIRNING ORZUSI*(Hazil)*

She'r yozmayman, bo'ldi, bu ishmas,
Endi ro'zg'or g'amini yeyman.
Xotin o'ksimaydi, bolam yig'lamas,
Ketmonlardan taratgum kuy man.

Nihollarga dardimni aytib,
Momo yerni bir erkalayman.
Oqshom uyga horiblar qaytib,
Yozganlarim ming burdalayman.

Qizcham kelsa ko'zidan o'pib,
Quvonchiga o'zim botaman.
Tijoratdan pul ishlab topib,
Qo'shnim kabi qah-qah otaman.

Orzularim eshitib asta,
Quvonchidan xotin yig'laydi.
Ko'ngil qurg'ur deydi shikasta,
Boyvachchadan shoir chiqmaydi.



SEVGANLAR, SEVILGANLAR

Ko'rdim chehrang jamolin g'unchaning jilosida,
Ohimning ohanglari tanburning sadosida,
U kuzning hasratimi xazonlar vidosisida,
Gulim, bizdan ortiqmi, sevganlar, sevilganlar.

Sabolar sirlarini, bilsang, yotlarga aytmas,
Majnuntol hayo qilib, kokili suvga botmas,
Bo'zlagan bolishimda bir shirin tonglar otmas,
Gulim, bizdan ortiqmi, sevganlar, sevilganlar.

Yursak yo'llar aldashar, tursak turtar nodonlar,
Toshdek og'ir botgaydir dil tubiga gumonlar,
Atirguldand atirni qarz olgaymi rayhonlar,
Gulim, bizdan ortiqmi, sevganlar, sevilganlar.

Qoshingiz qaro desa qayrilib qo'yganmiding,
Qalbimiz yaro desa sevgiga yo'yganmiding,
Mahmudning ko'z yoshiga yuzlaring chayganmiding,
Gulim, bizdan ortiqmi, sevganlar, sevilganlar.



KUYGIM KELAR

Uzilgan gul uvoliga esgan sabo vido aytar,
Gurkiragan rayhon isi, gulim, sizga sano aytar,
Yo'lingizga to'kilgaydir ko'nglimizda kulgan baytlar,
O'zgalardan o'zgacharoq, ey yor, sizni suyгим kelar,
Kuydirsangiz ko'yingizda kul bo'lguncha kuyгим kelar.

Sevdim degan so'z sadosi chaqmoqlarning chiroyimi,
Izingizda ungan gullar, vah, shunchalar anvoyimi,
Oshiq ahli bu dunyoda biz g'aribdek savdoyimi,
Jamolingiz chashmasiga tashnadirman tuyгим kelar,
Kuydirsangiz ko'yingizda kul bo'lguncha kuyгим kelar.

Bir bulbulmiz, bog'ingizda ochilsangiz qani gul-gul,
Yulduzlarga yuz ochmagan hilolmidi chehrangiz ul,
Bilmagaysiz, qo'llarimiz osmonlarga osilgan qul,
Qiyο boqmay ketishingiz yolg'onlarga yo'yгим kelar,
Kuydirsangiz ko'yingizda kul bo'lguncha kuyгим kelar.

Ko'nglimizning ko'chasida sizni yo'qlab yurgan chog'im,
Qahringizga qoqildim-ku, chil-chil sindi dil chirog'im,
Yor sevgimdan suron solur, qolsa tanda bir uvog'im,
Barmoqlarim bozillatib ko'ksingizga qo'yгим kelar,
Kuydirsangiz Mahmudingiz kul bo'lguncha kuyгим kelar.



NAMOZSHOMGUL

Namozshomda hovlimda kulib chiqqan quyoshim,
G'ubor ingan nigohni tilib chiqqan quyoshim,
Quvonch bo'lib poyingga to'kiladi bardoshim,
Namozshomgul, nomingdan aylanayin, jon gulim,
Yonmoq sening navbating, yongin endi, yon, gulim!

Oyning nurlari singay gulgun yonoqlaringda,
Yulduz shu'lası kuygay, gulim, dudoqlaringda,
Qay oshiq armoni bor tungi so'roqlaringda,
Namozshomgul, nomingdan aylanayin, jon gulim,
Yonmoq sening navbating, yongin endi, yon, gulim!

Gulzor aro kapalak quvonchlarga qoqilgay,
Barglaringga cho'k tushib yaratganga topingay,
Yo'qotganim shodligim kulgichingda topilgay,
Namozshomgul, nomingdan aylanayin, jon gulim,
Yonmoq sening navbating, yongin endi, yon, gulim!

Ag'yor aytsa ishonma, qoshingdagi bulbulman,
Men bulbulga aylangan poyingdagi bir qulman,
Yonog'ingda yolvorgan shabnamday pok bir dilman,
Namozshomgul, nomingdan aylanayin, jon gulim,
Yonmoq sening navbating, yongin endi, yon, gulim!



UMIDIM UNDI

Barmog'imda yuz ochdi oftob,
Sochlaringga yetganda qo'lim.
Ko'zlaringdan ichdim mayi nob,
Ko'ksing uzra to'kilib dilim.

Bolishimda balqib yotgan oy,
Og'ushingda nurga cho'mildim.
Tun qo'ynida jannatiy chiroy —
Alangangda undi umidim.

Baxtim bahor gullaridek mo'l,
Yulduz qilib sochdim samoga.
Kapalakka uzatgandim qo'l,
Qanotlarin yozdi duoga.

Kel, tilaylik, tonggi sabolar,
Ko'ksimizga tumorlar taqsin.
Ko'zimizda kulgan vafolar,
Boshimizda quyoshdek balqsin.





Shoirning otasi To'xtaqori Toir o'g'li.



Onalar duosi hamisha vojib.
Shoir volidasi Rafiqa aya bilan.



Shoir oilasi davrasida.



Ko'zlarimdan to'kilgan nurimdirsan, bolajon...
Shoir farzandlari bilan. 1988-yil.



Shoirning talabalik davri.
1970-yil.



Yollaringni yotlarga
silatmayman. tulporim.



Talabalik oltin davrim. 1976-yil.



Oybek tavalludining 95 yilligi oldidan.



Toshlarida tilsim bor, Buxoroning. 1999-yil.



Kumushkon ilhom manbayi. 2000-yil.



XX asr o'zbek adabiyotshunosligi darg'asi. O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov tilak aytmoqda. 2002-yil.



Shoir ustози, O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov bilan tadbir oldidan. Parkent. 2006-yil.



Toshkent viloyati shahar va tumanlari gazetalarining muharrirlari ustozlari No'mon Nasimov davrasida. 2007-yil.



Bo'stonliq. 2004-yil.



„Har kim o'z elida bekdir, to'radir“, deya she'r o'qiyapti
O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim. 2002-yil.



Chorvoq. 2007-yil.



Shoir rafiqasi Gulchehra va qizi Nozimaxon bilan.

TUSHINGIZGA KIRGIM KELAR

Bilarmisiz, bilmassiz, bilgingiz kelmaydimi,
Izingizga bosh urib ohim yelar, malagim.
Bilib ko'zga ilmassiz, ko'nglingiz to'lmaydimi,
Tushingizga bir bora kirgim kelar, malagim.

Bahor bog'larni bezar, bolishimdan gul uzar,
Oling deyman, olmaysiz, nolishim dilni ezar,
Siz parvoyi falaksiz, bu g'arib ko'nglim sezar,
Tushingizga bir bora kirgim kelar, malagim.

Ko'zim koshonangizda, orim ostonangizda,
Ko'changizni kuydirgan men bir devonangiz-da,
Gulim, mening ishim yo'q sizning dugonangizda,
Tushingizga bir bora kirgim kelar, malagim.

Toshib ketgan daryolar, shoshib ketgan daryolar,
Qirg'og'iga riyolar tashib ketgan daryolar,
Ortiga bir qayrilsa qilmishidan uyolar,
Tushingizga bir bora kirgim kelar, malagim.

Aytiblar kuydirasiz, izimni oydan olsin,
To'kilgan dilim, Mahmud, to'zimni qaydan olsin,
Ayting, qalbim suvratin navogar naydan olsin,
Tushingizga bir bora kirgim kelar, malagim.



ARMON

Armonga alishdim ko'nghlimni,
Arzonga alishdim ko'nghlimni.
Men jodu ko'zingga termilib,
Yolg'onga alishdim ko'nghlimni.

Sochlaring sollansa to'kildim,
Gar bir kun ko'rmasam o'kindim.
Sevgining ko'chasi kuysin-a,
Men telba, ayt, kimga yukundim.

Toshlarman tillashib yurgandim,
Oy bilan sirlashib yurgandim,
Shabnamga shivirlab dard aytib,
Poyingga boshimni urgandim.

Qoqildim, turmog'im gumondir,
Yolg'ondir, bu dunyo yolg'ondir,
Muhabbat bor degan shirin so'z,
Majnunning ohidan qolg'ondir.

Armonga alishdim ko'nghlimni,
Arzonga alishdim ko'nghlimni.
Men jodu ko'zingga termilib,
Yolg'onga alishdim ko'nghlimni.



* * *

Armon — sochlarimda oqargan ohim,
Tavba — yaratgandan so'rar gunohim,
Bulutlar ortida qoldingmi, mohim,
Men g'arib sen oyni ko'rgoni keldim.

Sog'inch degan gulga aylandi ko'zim,
Jon bilan turibdi bo'g'zimda so'zim,
Qoqilgan tulpordek shuvutdir yuzim,
Kechirsang uzrlar so'rgoni keldim.

Tirnog'im tagiga sanchilgan tikan,
Durdai tishlaringga ilinsa ekan,
Tabibim, bemorman poyingga cho'kkan,
Dardim davosini so'rgoni keldim.

Gado qo'l cho'zganda qulflar to'kilgay,
Sohibi karamli duo o'qilgay,
Tabassum qil, jonga tumorlar qilay,
Abad ostonangda turgoni keldim.



KO'RDIM

Unguvchi maysada bir shitob ko'rdim,
Alvon chechaklarda iztirob ko'rdim,
Bulbul qanotida bir kitob ko'rdim,
Muhabbat sirlari bitilgan kitob.

Bolari bog'lardan lazzat terganda,
Yellar gul yuzidan iffat terganda,
Yor, ular terganin senga berganda,
Mening ko'zlarimda uyg'ondi oftob.

Otguvchi tong asli sening jamoling,
Lab ochguvchi g'uncha durkun kamoling,
Men g'arib qoshingda turibman, loling,
Sukunat dillarni tars yorgan xitob.

She'rlar yozgim kelar, so'zga sig'maydi,
Xazonlar g'iybati kuzga sig'maydi,
Ko'rganing hayratdir, ko'zga sig'maydi,
Mahmud, muhabbatni aylasang tavof.




JONIMNI QALAM QILDIM

Tong otsa jilolari jilvagar yuzingizda,
Atirgul atri anqir, malikam, izingizda.
Momojon, jonim ketdi sizning shu qizingizda,
Taqqaqan tumorlaringiz duolari yor bo'lgay.

Siz ko'zimdan to'kilgan durimsiz, gavharimsiz,
Turnadan tilab olgan pariroy dilbarimsiz,
Laylidek lobarimsiz, Shirindek shakarimsiz,
Taqqaqan tumorlaringiz duolari yor bo'lgay.

Qiyosingiz axtarib daftarim qaro bo'ldi,
Jonimni qalam qildim, ming joyi yaro bo'ldi,
Izingizdan ergashdim, dedilar gado bo'ldi,
Malagim, shu gadoning duolari yor bo'lgay.

Ayting, oftob alamin oydan sira olganmi,
Aytsam, kulolning qo'li loydan sira tolganmi,
Kipriyingiz o'q bo'lsa, ko'ksim yoydan tonganmi,
Gulim, sizga Mahmudning vafolari yor bo'lgay,
Taqqaqan tumorlaringiz duolari yor bo'lgay.



SABR SADOSI

Turib aytdim, tutmadim,
Yurib aytdim, yetmadim,
Qizg'aldoqday quchay deb,
Qancha qonlar yutmadim.

Oy deb olmalar otdim,
Kundek nolada botdim,
Bolishimni bo'zlatib,
Tunni yig'latib yotdim.

Kelar dedim, kelmading,
Bir yorijon demading,
Oy oymomo bo'ldi, yor,
Sen bag'rimda to'lmading.

Sochimga qorlar yog'di,
Izimga zorlar yog'di,
Ag'yorlar hol so'rsalar,
Ko'zimdan orlar yog'di.

Sabrim sadosi ohdir,
Ko'nglim unga guvohdir,
Ko'zim yo'lda yorijon,
Bir kelmasang gunohdir.



MUHABBAT

Ko'zlarimdan sachragan uchqun — muhabbat,
Ko'ksimda bir bulbul tutqun — muhabbat.
Bolishiga botib yig'layotgan qiz,
Sevgiga ishonmas, sotqin — muhabbat.

Majnunning ohidan sahrolar kuysa,
Laylining vasliga jayronlar to'ysa,
Armonning yuzini ko'z yoshlar chaysa,
Ko'ngil daryosida to'lqin — muhabbat.

Nayning navolari dilingga ko'chsa,
Qaldirg'och qoshida xayoling uchsa,
Oshiq visol otlig' quvonchni quchsa,
Qaro tun qo'ynida chaqin — muhabbat.

Yig'lab yetolmagan yorlar ko'p hali,
Oshiqlar ahliga dorlar ko'p hali,
Mahmuddek vasliga zorlar ko'p hali,
Aytilmagan qo'shiq, oqin — muhabbat.



* * *

Yo'lga chiqdim, bir yo'lga,
Dildan g'ubor sidirib.
Ketayapman, yoronlar,
Men o'zimni qidirib.

Tikanlarga tirmashib,
Tig'lar tilidan o'pdim.
Toshlar bilan tillashib,
Daryo tubiga cho'kdim.

Lolalarning rangiga
Yuragimni ulashdim.
Xayolimga yetolmay,
Yellar bilan quvlashdim.

Shabnamlarni shimirib,
Tongni bir qizday quehdim.
Kapalak qanotida
Jannatga qadar uchdim.



ZORIMIZ TINGLAMAYSIZ

Daryolarni toshirgan sochlaringiz to'lgini,
Jism-u jonim yondirgan ko'zlaringiz yolqini,
Yor, mening ohimmikin samolarning chaqini,
Nahotki bilmagaysiz, tilab toqatlar tolgay,
Zorimiz tinglamaysiz, zo'rimiz kimlar olgay.

Ovora bu jonimiz, sadpora bu jonimiz,
Ko'z yoshda oqib ketsa bechora bu jonimiz,
Uvoldan qo'rqmasmikin, vah, sizdek jononimiz,
Lolalar uzsangiz, yor, bandida qonim qolgay,
Zorimiz tinglamaysiz, zo'rimiz kimlar olgay.

Yel bo'lib yuzingizdan o'pgimiz kelib ketar,
Dardimiz irmoqlari siz gulga qachon yetar,
Bizningdek oshig'ingiz dunyodan o'ksib o'tar,
Bu dilgir yuragimiz bir hazin kuylar chalgay,
Zorimiz tinglamaysiz, zo'rimiz kimlar olgay.

Qon dilini bu Mahmud, ayting, kimga yoradir,
O'rtada Qorabotir bo'lgay yuzi qoradir,
Sabrimizning kosasi toshib-toshib boradir,
Tilaymiz, dilingizga Yaratgan rahm solgay,
Zorimiz tinglamaysiz, zo'rimiz kimlar olgay.



OSTONASI OSMON YOR

Ostonasi osmon yor, qo'llar cho'zdim, yetmadim.
Makoning behishtmidi, gullar uzdim, tutmadim.
Yolvorib yorga yetsa sharqirar ikki ko'zim.
Bu Sayxun, Jayxun ichra qancha qonlar yutmadim.

Ne ajab, chekkasiga qadar do'st-u yoronlar,
Desam, tabassumingni tumor qilmish rayhonlar,
Devonang bo'lay dedim, qildilar malomatlar,
Muhabbat ko'chasida gado bo'lgan sultonlar.

Jafolar jonim ichra jodular o'ynatadi,
Rashk o'ti tig'i birla qon dilim qiyratadi,
Oy yuzing oyga bermay, yulduzlar qilur talosh,
Quyosh ham vasling istab bir etak nur tutadi.

Sevmayin qursin ko'ngil, sen qalamqoshga tushdi,
Ko'zlarimdan sachragan hasratim toshga tushdi,
Qarog'ingga qadalgan qahring qulidir Mahmud,
Ne ajab savdo ekan, muhabbat boshga tushdi.




BAXTINGIZ BOLISHIDA

Qo'lingizdan toshoyna tushib ketmasaydi, yor,
Mening ko'nghim ko'zimdan toshib ketmasaydi, yor,
Jonda chah-chah urgan qush, kulbamda kulgan sog'inch,
Kelsa ming noz, ketishga shoshib netmasaydi, yor.

Benazir go'zallikka ilohiy vafo yordir,
Mehringiz otashida ming bitta shifo bordir,
Bolari bodasidek bir bo'sa so'radim men,
Tilangan tillarimda toshyorar sado bordir.

Orazingiz ortidan lolalar gulxan yoqar,
Bilmadim, ul quyoshga bu ko'zlar qanday boqar,
Gulim, sizsiz bu kulbam zindon ichra zindondir,
Ketsangiz diydamizdan g'am seli pinhon oqar.

Ostona oshiyondir, siz kelsangiz, men kutsam,
Jonimning chashmasidan bir piyola may tutsam,
To'kilgan dilim, Mahmud, ko'ksingiz uzra to'kib,
Baxtingiz bolishida bu dunyoni unutsam.



IZHOR

Or qilsang orlaringdan,
Zor qilsang zorlaringdan,
Kokili dorlaringdan,
Tumorlar qilgim kelar.

Kulsang quyosh hasratda,
Oy osmonda kulfatda.
Bir sen bilan ulfatda,
Xumorlar qilgim kelar.

Yolg'oni yarashmagan,
Kokiling tarashmagan,
Ag'yor yo'q aldasmagan,
Tilini tilgim kelar.

Xazonlarni suymayman,
Olovlarda kuymayman,
Senga qarab to'ymayman,
Sirini bilgim kelar.

Qayta yashay olmasman,
Ming bir aytib tolmasman,
Yotni sevib qolmasman,
Bag'ringda o'lgim kelar.



MALAGIM

Ko'nglim ko'zgusida kulgan malagim,
Osmonimda oydek to'lgan malagim,
Nozi nigohini tilgan malagim,
Kipriklarim o'psin qaroqlaringiz,
Bir bora silayin barmoqlaringiz.

Hurkib soyasiga boqmagan jonim,
Kim aytar bo'g'zimda qalqumagan jonim,
Bag'rimda oftobdek balqumagan jonim,
Jonimni tirnasin tirnoqlaringiz,
Bir bora silayin barmoqlaringiz.

Bahorning bog'ini bezagan gulim,
Bu olam aslida siz bilan so'lim,
Shabnam sharobidek to'kilsin dilim,
Yuzimni yondirsin dudoqlaringiz,
Bir bora silayin barmoqlaringiz.

Qoshi qaldirg'ochni qatl etgan qiz,
Tumorin turnalar taqib ketgan qiz,
Mahmudni otashda yoqib ketgan qiz,
Ayting, qizimasmi quloqlaringiz,
Bir bora silating barmoqlaringiz.



SOCHILGAN SOCHLARINGIZ

Ko'ksimga bosh qo'ysangiz ardoqlayman jon bilan,
Kulgingiz ko'zlarimga qadoqlayman jon bilan,
Yor, bilmaysiz, men sizni so'roqlayman jon bilan,
Sochilgan sochlaringiz sabolarga bermasman.

Siz yurganda yo'llarning entikkanin ko'rdim men,
Qoshingizga qaldirg'och ko'z tikkanin ko'rdim men,
Izingizga quyoshning qo'r to'kkanin ko'rdim men,
Sochilgan sochlaringiz sabolarga bermasman.

Tulporlar tuyog'ida armonning chaqinlari,
Vasfingiz adosidir bu dunyo oqinlari,
Yo'llarimni yoritgan nomingiz yolqinlari,
Sochilgan sochlaringiz sabolarga bermasman.

Yuzingizda yog'dular oy bilan or talashgan,
Zulfingiz tolasida bu jonim dor talashgan,
Mahmudni mast aylagan nozlaringiz yarashgan,
Sochilgan sochlaringiz sabolarga bermasman.



SUVLAR

Majnuntolning xayollari oqqan suvlar,
Ko'zgu bo'lib sanamlarga yoqqan suvlar,
Biz g'aribni ilonlari chaqqan suvlar,
Bilmaysizmi, bag'rim tilim-tilim mening,
To'lqiningiz to'lib turgan dilim mening.

Majnuntolning sochlarini taraysizmi,
Ming bor so'rsak ortga bir bor qaraysizmi,
Oshiq ahlin koriga hech yaraysizmi,
Ko'z yoshlarga hovuz bo'ldi hovchim mening,
Ul malakka bo'lmaysizmi sovchim mening.

Tubingizda yotgan toshlar qahri qattiq,
Gul taratgan xush nasimlar kimga tortiq,
O'shal qizni kim sevibdi bizdan ortiq,
Ohlar urib oqib ketdi orim mening,
Qirg'og'ingiz qaqshatadi zorim mening.

Qoshingizda qonlar yutib turorim bor,
Dunyo emas, sizdan vafu so'rorim bor,
Ul sanamni o'lguncha bir ko'rorim bor,
Sovchi suvlar, yetkazingiz so'zim mening,
Bir ko'rmayin yumilmagay ko'zim mening.

Majnuntolning xayollari oqqan suvlar,
Ko'zgu bo'lib sanamlarga yoqqan suvlar,
Biz g'aribni ilonlari chaqqan suvlar,
Majnuntolmas, Mahmud qaddi dolim mening,
Bu olamga kulgu bo'ldi holim mening.



YURMAYIN YETGIM KELAR

Tog'larning dili bo'lib irmoqlarda oqayin,
Toshlarning tili bo'lib so'zda chaqmoq chaqayin.

Gar vafo istasangiz oftobdan olib beray,
Sabolar shivirida ishq kuyin chalib beray.

Bir shirin tushlar bo'lib kulayin ko'zingizda,
Muhabbat shevasida olovman so'zingizda.

Qaldirg'och qo'shiq aytsa qo'shilib ketgim kelar,
Kaftingizni to'ldirib shabnamlar tutgim kelar.

Satrimning sadosidan sog'inchim tomib turar,
Lolazor yuragimda bir bulbul chah-chah urar.

Yurmayin yetgim kelar ko'nglingiz ko'chasiga,
Men oyni ilib qo'yay uyingiz darchasiga.

Men sizni izlagayman, men sizga yetolmayman.
Oshiqman o'z dilimga, o'zimdan ketolmayman.



*B. ARMOQLAR
BODASI*

1998- jil





QALBINGDA BAHORING BOR

Adolat ostonasin bossang tovoning kuygay,
Haqiqatning kitobin qo'ysang javoning kuygay,
Qo'ling yetmas yulduzga qo'yma, narvoning kuygay,
Sen yerda depsinmagin, boshda osmoning kuygay.

Qarindoshda qoning bor, qarolik qila ko'rma,
Jarohatni kesgaylar, yarolik qila ko'rma,
Gar ilon yonidasan sipolik qila ko'rma,
Jafoning jabri yomon, avval o'z joning kuygay.

Minnatsiz bo'lsa luqmang, bil, shifo oshingdadir,
Duo dildan aytilsa, Humo ham qoshingdadir,
O'zni unga topshirsang Xudoyim boshingdadir,
Iymoning o'zing birla bo'lsa shaytoning kuygay.

Saodat sultonisan, ilmingga amal qilsang,
Vijdoning erkin qushdir nafsingni qamal qilsang,
Uyingni xoqonisan mehringni tamal qilsang,
Ro'zg'oring ro'shno emas, qiz-u o'g'loning kuygay.

Chirmanda jarangida olovning ovozi bor,
Tog'larga oshiq bo'lsa, burgutning parvozi bor,
Qiroat Qur'onga xos, Tangrining o'z sozi bor,
Qiblangdan adashsang gar ruhi ravoning kuygay.

Qalbingda bahoring bor, xazondan qo'rqmagaysan,
Yurar yo'lingni bilsang to'zondan qo'rqmagaysan,
Yaxshisan agar, Mahmud, yomondan qo'rqmagaysan,
Sen to'g'risin so'zlayver, bo'zlab yolg'oning kuygay.



YIG'LAYDI

So'lgan gul guldonda yig'laydi,
O'chgan cho'g' kuldonda yig'laydi.
Beayb qul zindonda yig'laydi,
Mening ham goh yig'lagim kelar.

Ko'zga surtib bobolar xokin,
Unutilgan qabrday sokin,
Bir-bir so'kib yurakning chokin,
Mening ham goh yig'lagim kelar.

Yog'olmagan bulutdek giryon,
Toshda ungan maysadek nolon,
O'zligimni axtarib hayron,
Mening ham goh yig'lagim kelar.

Yor sochidan tushgan toladek,
Qirda qolgan yolg'iz loladek,
Onasini topgan boladek,
Mening ham goh yig'lagim kelar.

Ko'zlarimdan marjonlar to'kib,
Yuragimga rayhonlar ekib,
Onajonim poyiga cho'kib,
Mening ham goh yig'lagim kelar.

Toshni tilib jamolin ko'rib,
Bir maysani kamolin ko'rib,
O'tgan umrim uvolin ko'rib,
Mening ham goh yig'lagim kelar.



KO'HNA QO'SHIQ

Mehmon kelsa qadamiga,
To'kilgani havas bo'lsin.
Duo olsang duogo'ying,
Guldek toza nafas bo'lsin.

Otam degin, onam degin,
Tiling shirinsuxan bo'lsin.
Farzand ko'rsang yig'isida,
Kulgusida Vatan bo'lsin.

Dog'i bor deb bitta oying,
Yuziga chang solaverma,
Bir yanglishgan bechoradan,
O'chim bor deb olaverma.

Qotgan nonning qatlarida,
Ochning ko'ngli gul ocharmish.
Nodon itin tuvagiga,
Obro' uchun pul socharmish.

Xudo bergan nasibangni,
Qo'ling bor-ku, ushatib ol.
Yig'i kelsa yuragingga,
Yig'ib qo'yima, bo'shatib ol.

Olchi tursa otaverma,
Mahmud, omad oshig'ini.
Sengacha ham kuylaganlar,
Ko'hna dunyo qo'shig'ini.



KO'RMANGIZ

Toza tilaklarga beshikdir dunyo,
Ocholsang jannatga eshikdir dunyo,
Hofizin axtargan qo'shiqdir dunyo,
Bir kalom aytayin kamlik ko'rmangiz,
Do'st-u yoronlarni g'amli ko'rmangiz.

Quyoshning qatrasini yerni yoritar,
Bir chimdim mehringiz dardni aritar,
Quvonch yoshartirar, qayg'u qaritar,
Quvonch quvib yursin, hech g'am ko'rmangiz,
Qayg'udan qartaygan odam ko'rmangiz.

Sitamning salmog'i og'irdir toshdan,
Qilich hazar qilar egilgan boshdan,
Oqibat axtarmang sovigan oshdan,
Illo luqmangizda kurmak ko'rmangiz,
Daryoga dil oching, ko'lmak ko'rmangiz.

O'lguncha vafoli bo'lurmi jo'rang,
Tegmasalar qonab ketmaydi yarang,
Chumoli bir donni topganda arang,
Chumchuqlar jilmaysa xandon urmangiz,
Dunyoda hech jonni nolon ko'rmangiz.

Boltaning bolishi — qassob kundasi,
Oy asli ko'kningmas, tunning xandasi,
Aqlning chiroyi — gapning lo'ndasi,
Ko'ngil osmonida tuman ko'rmangiz,
Yaxshilar ichinda yomon ko'rmangiz.



MUHTOJ BO'LMAYSAN

Tirnoq tirnash uchun qo'lingda emas,
Belbog' bezak uchun belingda emas,
Agarki yurt ishqı dilingda emas,
El ichra elanma, yaxshi bo'lmaysan,
Yuz yil soz tutganda baxshi bo'lmaysan.

Shirin tilaklardan sharobing bo'lsa,
Bulbul dars olguvchi kitobing bo'lsa,
Er yigit ergashar shitobing bo'lsa,
Mayli, yurt boshida gar toj bo'lmaysan,
Nomardning noniga muhtoj bo'lmaysan.

Bir bargda daraxtning qancha umri bor,
Bu zog'lar ichında qancha qumri bor,
Quyón quvmoqlikni qilma ixtiyor,
Nogoh sher duch kelsa afgor bo'lgaysan,
Majnuntol sifatsan, chinor bo'lmaysan.

Soyning suronida bahor quvonchi,
Orida gullaydi yigit ishonchi.
Yaxshi otga tegsa yig'laydi qamchi,
Qatorda yurmasang hech nor bo'lmaysan,
Ko'ksingni o'ymasa dutor bo'lmaysan.

Orzu yashar ushalmagan armonda,
Sen yerda yashaysan, ruhing osmonda.
Tandirning chiroyi uzilgan nonda,
Agar-chi, hasaddan yiroq bo'lmaysan,
Mahmud, hech bir dilga chiroq bo'lmaysan.



UYG'OQ DIL

Tongda xush atirlar sochmish sabolar,
Uyg'ongan dillarga tilab duolar,
Quyoshning nurida ham iltijolar,
Uyg'ongan dillarga tilab duolar.

Maysalar shivirlar shabnam shimirib,
Uyqu umringizni ketgay kemirib,
Qaldig'och kuylaydi qoshin chimirib,
Uyg'ongan dillarga tilab duolar.

Tushingiz to'kilib yotmay bolishga,
Tongda qo'l ursangiz agar har ishga,
Farishtalar kelgay Sizni ko'rishga,
Uyg'ongan dillarga tilab duolar.

Tafakkur yuz ochsa tilagingizda,
Bulbullar dil ochsa yuragingizda,
Onangiz tog' ko'rsa ko'kragingizda,
Uyg'ongan dillarga tilab duolar.

Uyg'oqsiz, yurakda olam ulg'ayar,
Uyg'oq dil har nafas, har dam ulg'ayar,
Mahmud, bu tong shabnamlarga yuz chayar,
Uyg'ongan dillarga tilab duolar.



YO'LDAGI TOSH

Yo'llarimda yotgan tosh,
Tovonimga botgan tosh,
Salmog'ingda sitam bor,
O'zidan or etgan tosh.

Yo'llarimda yotgan tosh,
Dema o'zi yotgan tosh.
Tili bo'lsa aytardi
Kimlar kimga otgan tosh.

MARD BILAN YURGIN

Chumolini chertib chirangan kimsa,
Filning tezagini tillo deb bilgay.
Tama ilinjida elangan kimsa,
Balki xojasini Xudo deb bilgay.

Ko'kargan ko'ngillar quyosh axtarar,
Xazon xitobiga it ham hurimas.
Dilni Tangri chertsa munis lahzalar,
Haq so'z Haqdan kelur, qo'lning kirimas.

Dunyoga dunyo deb kelganlar bilmas,
Go'rida bolishi guvalak bo'lgay.
Oqilni-da, ko'mar! Lekin u o'lmas,
Elining boshida kamalak bo'lgay.

Ko'pirgan kimsani sovigach ko'rgin,
Qozon qorasidek shuvitdir yuzi.
Bir qadam yursang ham mard bilan yurgin,
Kesilsa kesilar, bukilmas tizi.



KO'RMADIM

Ko'ngildan to'kilgan gullarni ko'rdim,
O'ziga yig'lagan dillarni ko'rdim,
Qilni ham qirq yorgan qullarni ko'rdim,
O'zimda o'zimni ko'rmadim, yo Rab!

Narvoni yulduzga yetganni ko'rdim,
Bulbulning patidan tutganni ko'rdim,
Burda nonsiz mehmon kutganni ko'rdim,
O'zimda o'zimni ko'rmadim, yo Rab!

Qarindosh qonini ichganni ko'rdim,
Yotning tuvagini quchganni ko'rdim,
O'ldirmay kafanlar bichganni ko'rdim,
O'zimda o'zimni ko'rmadim, yo Rab!

Maysaning jismida chinorni ko'rdim,
Rayhonning ismida dildorni ko'rdim,
Seningdek mehribon bir yorni ko'rdim,
O'zimda o'zimni ko'rmadim, yo Rab!



YIG'LIGIN DEMAYMAN

Ezgulik ezmaydi insonni sira,
Yovuzlik yetadi kishi boshiga.
Ko'ngling shabnam kabi bo'lsa bokira,
Bulbul yuzin chayar ko'zing yoshiga.

Men seni yig'lugin demayman, dilim,
Lek yig'lamay Haqqa yetib ham bo'lmas.
Birovga bir burda non bermay turib,
Xizr barmog'ini tutib ham bo'lmas.

Omonat olinar, muqim qolmagay,
Vale xiyonatning qirg'og'i yaqin.
Zanjirband sher tolar, zanjir tolmagay,
Nogahon uzmasa ilohiy chaqin.

Qo'lingda piyola gar cheti uchsa,
Labing lolasida ozor yuz ochgay.
Yurak pardasidan haq so'z sitilsa,
Boshingni balqitib Tangri nur sochgay.

Umring uvidan o'zing uyalsang,
Qabog'ing qatida quvonch qarisa.
Onang duosiga dilingni chaysang,
Mahmud, ajab ermas, darding arisa.



BO'LMAS

Afsus alangasi armon chirog'i,
Ko'zdagi yoshlaring hasrat bulog'i,
Ko'rinib qolganda umr adog'i,
Ortga qaraysan-u, hech ko'ngling to'lmas,
Boshdan boshlashning ham imkoni bo'lmas.

Tikon tomir surmas xushbo'y chamanda,
Sovigach o'zidan tonar chirmanda,
G'aflatning taxtidan tushganda banda,
Poyida yer, boshda osmoni bo'lmas,
Tangridan o'zga mehriboni bo'lmas.

Amal oqar suvdir qirg'og'i toshdan,
Aql o'sib chiqmas urilgan boshdan,
Ko'ngil erimaydi kech oqqan yoshdan,
Yanchilgan boshqning gar doni bo'lmas,
Mezbonni chorlarga mehmoni bo'lmas.

Sag'irning salomi ehsonga sado,
Behishtga darvoza dildagi vafo,
Bir yuzni qirq tusda xush ko'rmas Xudo,
Qulning ko'kragida qalqoni bo'lmas,
Qarg'aning aytgulik dostoni bo'lmas.

Yolg'on yashaganning orzusi yig'lar,
Nopokda Haqning tarozusi yig'lar,
Ko'zingda kangulning ko'zguni yig'lar,
Kim aytar, Mahmudning paymoni to'lmas,
Qaytib yashamoqning imkoni bo'lmas.



MEN KETSAM

Kipriklar ne uchun ko'zga terilgan,
Qabog'ing ustida qoshmu kerilgan?
Bilsang, tiriklardan marhumlar ko'pdir,
Unutma, umrimiz o'lchab berilgan.

Chirog'i o'zida yorug'dir osmon,
Tangrining yerdagi chirog'i inson.
Men ketsam, u kelar, zamin bo'sh qolmas,
Birimiz mezbonmiz, birimiz mehmon.

Chumoli rizqini burgut osholmas,
Mening umrim qo'shib hech kim yasholmas,
Kimni men boshimdan balandda ko'rdim,
Ajabki, o'zgasin tovonimdan past.

Olam yaralibdi sirdir, jumboqdir,
Tog'larni boshida tutgan tuproqdir.
Bir gul so'lganiga kuyarsan, Mahmud,
Ko'z ochgan har g'uncha yangi so'roqdir.



SALOM BOR

Ko'nglida ko'ngilning dodi bor,
Ko'ngilda, vah, kimning yodi bor.
Jilg'aning jarangos tilida,
Unguvchi maysaning oti bor.

Daryoning tubida dardi bor,
Yurt borki, el ichra mardi bor.
Tegirmon toshida ezilgan
Bug'doyning ohlari — gardi bor.

Dunyo bor, bo'lajak, mudom bor,
Har dilda bir yangi kalom bor.
Bahorga yetganlar quvoning,
Sizlarga gullardan salom bor!



O'ZANIDAN ULUG' DARYO*Shukur Burhon xotirasiga*

Ko'rib bahra olgan kabi quyoshni,
Ko'rgim kelaverar Shukur Burhonni.
Kiprigimga osib sog'inchni, yoshni,
Ko'rgim kelaverar Shukur Burhonni.

O'zanidan ulug' daryo ko'rgandek,
Nogahon qarshimda Xizr turgandek,
Go'yoki o'lmagan, omon yurgandek,
Ko'rgim kelaverar Shukur Burhonni.

O'zbekning o'zidek sodda, to'pori,
Ko'ngilda bahori, sochida qori,
Qahri qalqiganda olovdir ori,
Ko'rgim kelaverar Shukur Burhonni.

Jilg'alar jaranglar tog'lar bor ekan,
Bulbulga ozor bor, zog'lar bor ekan,
Kimga Jaloliddin ruhi yor ekan,
Ko'rgim kelaverar Shukur Burhonni.

Qush yerga sig'maydi osmon kerakdir,
Tog'ni titratmoqqa vulqon kerakdir,
Quyoshga quyoshdek qalqon kerakdir,
Ko'rgim kelaverar Shukur Burhonni.

Abror Hidoyatni yurarmi izlab,
Ketarda qadridan ketdimi bo'zlab,
Ketsa-da, o'zbekni ketdi ulug'lab,
Ko'rgim kelaverar Shukur Burhonni.



USTINA

Ko'ngil bahorga talpinur,
Bahor chiqmas qor ustina.

Qarg'a-zog'lar qor qo'ynida,
Tosh otur bahor ustina.

Ko'klam kelib kurtak kulsa,
To'n yopur chinor ustina.

Lol etibon lolazorlar,
Qon sochur xunxor ustina.

Yulduzlarning yog'dulari,
To'kilmish bedor ustina.

Maysalar ham olqish aytur,
Mard chiqsa tulpor ustina.

Magar qo'lda langari yo'q,
Dorboz chiqmas dor ustina.

Sabr ahli sulton bo'lur,
Rost kelsa inkor ustina.

Xudo umr bersa, Mahmud,
She'r sochar bahor ustina.



BIZ BAXTLIMIZ

Rafiqamga

Bir bolish boshimizda,
Farzandlar qoshimizda.
Shakar bor oshimizda,
Biz baxtlimiz, Gulchehram!

Oqshom bizni oy suyar,
Quyosh ham qutlab qo'yar,
Yor, yashashga kim to'yar,
Biz baxtlimiz, Gulchehram!

Oshimiz sovib qolmay,
Sevaman deb jar solmay,
Mehrni qarzga olmay,
Biz baxtlimiz, Gulchehram!

Bir kam dunyo, kam dunyo,
Bizga yorug' sham dunyo,
Hech ko'rmasin g'am dunyo,
Biz baxtlimiz, Gulchehram!

Ishq jomini qalqitib,
Bolishimiz balqitib,
Yashayapmiz shukr etib,
Biz baxtlimiz, Gulchehram!

Qizlar gul, qarog'imiz,
O'g'limiz bor tog'imiz,
Izdagi chirog'imiz,
Biz baxtlimiz, Gulchehram!

Kel, mehrimga yuzing chay,
Kafting och, mehring ichay,
Xudoyimga tiz cho'kay,
Biz baxtlimiz, Gulchehram!

YURAGIMDA YONGAN O‘T

Yuragimda yongan o‘t, o‘zimni yoq, o‘zimni,
Nokasdan non so‘rasam so‘zimni yoq, so‘zimni.
Nomardga tiz cho‘kkanda tizimni yoq, tizimni,
Yuragimda yongan o‘t, o‘zimni yoq, o‘zimni.

O‘t ichra omon qolgan shaytonga oshno qilma,
Haqni himoya qilmas ko‘zimni ro‘shno qilma,
Yo rab, o‘zing panohim, yuzimni qaro qilma,
Agar yuzim qarodir, yuzimni yoq, yuzimni.

Tirikman, el ichraman, nasibam, nonim bordir,
Yuragimda yongan o‘t cho‘g‘ingda jonim bordir,
Vatan, Onam, yagonam, tug‘ingda qonim bordir,
Tuprog‘ingda qolmasa, izimni yoq, izimni.

Suyakni suyab yurgan ichidagi ilikdir,
Chiroqni chiroq qilgan kul bo‘lguvchi pilikdir,
Yaxshilarning yarog‘i yomonga yaxshilikdir,
Harom bo‘lsa tuzliqdagi tuzimni yoq, tuzimni.

Peshonang sajda ko‘rmas, boshing ko‘kka yetmagay,
Tilingda toshing bordir, yoningdan do‘st o‘tmagay,
Mahmud, kurmakka qulsan, g‘alviring don tutmagay,
Yuragimda yongan o‘t, o‘zimni yoq, o‘zimni,
Nomardga tiz cho‘kkanda tizimni yoq, tizimni.



KO'ZIM HAYRAT YOQQAN CHIROQ

Ko'zlarimda kulgan gulim,
Tilagimda ungan gulim,
Yuragimdan yulgan gulim,
Seni kimga tutayin, ayt?

Ko'ksim birov chiqmagan tog',
Dilim hech kim kirmagan bog',
Ko'zim hayrat yoqqan chiroq,
Seni kimga tutayin, ayt?

Jismimdagi jonday so'zim,
Qush qidirgan donday so'zim,
Onam yopgan nonday so'zim,
Seni kimga tutayin, ayt?

She'rim mening dil gavharim,
Dilim guldir, ham zargarim,
Dil qonidan topgan zarim,
Seni kimga tutayin, ayt?

Quyosh quchib kuygan Vatan,
Oy tonggacha suygan Vatan,
Ismin jonga o'ygan Vatan,
Sensiz yashab netayin, ayt?



ORZU

Oqar daryolarga gunohim otdim,
Olovlar aldamas dil ohim otdim,
Qaro tun qaqshadi men mohim otdim,
Dunyo tilagiga to'kilgim kelar.

Mehmonga mehrimdan issiq non tutdim,
Bolamga balqitib shirin jon tutdim,
Bog'imga zog' kelsa, quvmay don tutdim,
Yovning yuragiga to'kilgim kelar.

O'ksisam o'kinchim dilimda qoldi,
Nigohim bulbuldek gulimda qoldi,
Rayhonlar rang to'kib yo'limda qoldi,
Yorning bilagiga to'kilgim kelar.

Tumorim tangridan tilab olarman,
She'rnimas, ko'nghimni kuyga solarman,
Demangiz shabnamdek kuyib qolarman,
Yerning kuragiga to'kilgim kelar.




BU DUNYO

Bu dunyo tomoshagoh — o'yinchisi ko'p ekan,
Aytilgan har yolg'onning suyunchisi ko'p ekan.
Kuyib-kuyib so'zlasang, kulib-kulib tinglashar,
Gohida odam zoti tepilguvchi to'p ekan.

Qoqilsang qabog'idan qor to'kar qarindoshing,
Nokas yodiga tushar to'yida yegan oshing.
Osmonning uvvosimi, yerni savagan yomg'ir,
Malomat bozorida talashlar ko'z yoshing.

Devona dardiga hech devona malham topmas,
Gadolarning yuziga oqillar eshik yopmas,
Yaxshisan vale yomon, diling o'zingga aytur,
Shaytonning chorloviga Rahmonning ko'ngli chopmas.

Tilingda hikmating bor, yuragingda qo'r bo'lgay,
Dunyoda dunyosi ko'p dema sendan zo'r bo'lgay.
Osmonga ustun istab ovora bo'lma, Mahmud,
«La ilaha illalloh» desang olam jo'r bo'lgay.



VOJIB

O'g'lim Ulug'bekka

Bolam, qulog'ingga olgin so'zimni,
Minnat qilmagayman topgan tuzimni,
Yorug' ko'rgim kelar bosgan izimni,
Unutma, so'zlar bor bol kabi ajib,
Duo olganlarning duosi vojib.

Mayli ko'p oshama, luqmaning oz bo'lsin,
Nomardga duch kelsang qadding g'oz bo'lsin,
Tiz cho'ksang poyingda joynamoz bo'lsin,
Suyakni it zoti yurgaydir g'ajib,
Duo olganlarning duosi vojib.

Qadim gap, dunyoga mehmonmiz biz ham,
Mezboni rizq bergan yaratgan egam.
Undan nasib bo'lsa gar fazl-u karam,
Iloho, el ichra bo'lgaysan najib,
Duo olganlarning duosi vojib.

Tuproqning tilini toshdan so'rmagin,
Qaldirg'och qadrini qoshdan so'rmagin,
Bilmasang, o'zingdan yoshdan so'rmagin,
Nuroni chehralar turar dil ochib,
Duo olganlarning duosi vojib.

Xato o'tgan hatto Odam Atodan,
Boshingga tushganin ko'rgin Xudodan,
Ortingdan aytilgan har bir duodan,
Mahmud qabri ichra yotar nur sochib,
Duo olganlarning duosi vojib!



SENI SO'ROQLADIM

Tuyg'ular tumorin dilimda asrab,
Jonim jilosida yuz ochgan matlab,
Andalib bir taraf, men ham bir taraf,
Seni so'roqladim Humo she'riyat,
Onam so'zidagi duo she'riyat!

Quyoshning ko'ksida qo'ringni ko'rdim,
Maysa yonog'ida duringni ko'rdim,
Bolamning yuzida nuriningni ko'rdim,
So'zdagi sultonim sado she'riyat,
Iffat izidagi gado she'riyat!

Boqsam bog'laringda gullar ko'p ekan,
Shabnamdek to'kilgan dillar ko'p ekan,
O, parichehrangga qullar ko'p ekan,
Sanam sochidagi sabo she'riyat,
Dardmandning dardiga davo she'riyat!

Xazonlar xitobi havoda qolgay,
Nayning nolalari navoda qolgay,
Mahmudning murodi duoda qolgay,
Ko'nglim osmonida ziyo she'riyat,
Dunyodan topganim dunyo she'riyat!



DILDOSH BO'LAY

Kelayotgan quvonchning yo'lida yulduz bo'lay,
Gullayotgan ishonchning poyida ildiz bo'lay,
Zulmat sitamin sitib, tong bo'lay, kunduz bo'lay,
Yo'l yuring yo'ldosh bo'lay, qo'l bering qo'ldosh bo'lay,
Tangridan tilaganim men sizga dildosh bo'lay.

Qanoti qayrilgan qush osmonga qarab to'ymas,
Yo'l axtargan bo'z bola qoqilmay qadam qo'ymas,
Qafasda bulbul tutgan gul uvoliga kuymas,
Yomonga insof so'rang, ko'ksingizda zor bo'lay,
Yaxshilar umrin tilang yoningizda bor bo'lay.

Tilakki toza emas, tig' dunyoni tutmagay,
Yurakki toza emas, ko'ngilda gul bitmagay,
Dilingda gumoning bor, ko'changdan pir o'tmagay,
Xiyonat xitobini yutguvchi ummon bo'lay,
Adolat tarozisin tutsangiz darmon bo'lay.

Ko'nglingiz gavharida ko'z bo'lgim kelar meni.
Ko'zingiz daftarida so'z bo'lgim kelar meni,
Har halol luqmangizga tuz bo'lgim kelar meni,
Mahmudning murodi shu, bog' qiling bog'bon bo'lay,
Sizga nogoh yel esmasin, gar kelsa qalqon bo'lay.



SO'ZLARGA SIG'MAYDI


To'pori ko'nglim-ov, do'l'vori ko'nglim,
O'zidek devonaning zori ko'nglim.
Ko'z yoshi hayratning bargida shabnam,
Hali to'kilmagan ohori ko'nglim.

Yotdan yetti qadam narida yurgan,
Suyganda bulbulning barida yurgan,
Kuyganda o'zining qo'rida yurgan,
Muhabbatning mungli bir tori ko'nglim.

So'zlarga sig'maydi armoni bo'lak,
Ko'zlarga sig'maydi jahoni bo'lak,
Undan to'yib bo'ldi bechora yurak,
Tog'larning erimas ul qori ko'nglim.

Ungan maysa bilan birga unguvchi,
Go'dakning labida toza kulgichi,
She'r yozsa jonidan qalam yo'nguvchi,
Onamning aytmagan ash'ori ko'nglim.

Men endi o'zimni o'zingga berdim,
Men endi ko'zimni ko'zingga berdim,
Men endi so'zimni so'zingga berdim,
Yolg'iz yaratganning yori ko'nglim.



SOZNING SADOSI

*O'zbekiston xalq artisti
Abduhoshim ISMOILOVga*

Sozin sadosida samoviy ohang,
Tinglab tiyolmayman ko'zda yoshimni.
Barmoqlari bahor, o'zbekiy jarang,
Alloh ardoqlagan Abduhoshimni.

Subhi sabolarga oshno dili bor,
Oyni yetaklagan oydin yo'li bor,
Umrin tilab turgan o'zbek eli bor,
Alloh ardoqlagan Abduhoshimni.

Joziba jarangi jilosi bilan,
Dillarni zabt etmish navosi bilan,
Turg'un Alimatdek bobosi bilan,
Alloh ardoqlagan Abduhoshimni.

To'rg'ay-la tillahsa bir parda baland,
Bir joni soziga ming bora payvand,
Ustoz Rajabiyga bo'lolgan dilband,
Alloh ardoqlagan Abduhoshimni.

Nolasida dilin xitobi bordir,
Qo'lida bulbulning kitobi bordir,
Yuzida san'atning oftobi bordir,
Alloh ardoqlagan Abduhoshimni.



SHIFO SO'RADIM

Dunyoda eng toza so'zni qidirib,
Onamning dardiga shifo so'radim.
Yuzimdan ko'zimning yoshin sidirib,
Onamning dardiga shifo so'radim.

Tiz cho'kdim eng avval yolg'iz Xudoga,
Dard bergan qodirdir o'zi davoga.
Yolvordim ham yana Momo Havoga,
Onamning dardiga shifo so'radim.

Irmoqlar, iltijo bo'lib oqingiz,
Turnalar, boshida qanot qoqingiz,
Azoblar, og'riqlar, meni chaqingiz,
Onamning dardiga shifo so'radim.

Oppoq sochlarida poklik jamoli,
Joni chirqillar-u, tilida boli,
To'rt farzand qoshida biz qaddi doli,
Onamning dardiga shifo so'radim.

Tangriga yaqinsiz, oy-u yulduzlar,
Har bemor erta tong quyoshni izlar,
Bo'g'zimda qabardi nola-yu bo'zlar,
Onamning dardiga shifo so'radim.

Bulbullar, bir nafas gulni unuting,
Dunyoda bor gulni tangriga tuting,
Mahmudga jo'r bo'ling, dodiga yeting,
Onamning dardiga shifo so'radim.



HURRIYAT

Biz hali yurmagan yo'lmiding, hurriyat,
Biz hali ko'rmagan gulmiding, hurriyat!
Sen quyosh ko'zida ko'kargan quvonch,
Yo g'anim saqlagan sirmiding, hurriyat!

Senga yetmaganlar tuproqda gullar,
Cho'lpon, Qodiriydek shahid bulbullar,
Qafasi qarsillab qiynoqda gullar,
Kishanda qaqqshagan qo'lmiding, hurriyat!

Qahriga qoqilgan tulporlar ketdi,
Mardini yo'qlagan dildorlar ketdi,
Ketdi Madaminbek, shunqorlar ketdi,
Orzu osmonida hurmiding, hurriyat!

Seni sog'inganlar seni ko'rdimi,
Usmondek qabridan qalqib turdimi,
Onamdek gardingni ko'zga surdimi,
Tangriga yig'lagan dilmiding, hurriyat!

Tiz cho'kay, men avval tug'ingni o'pay,
Jonda chirsillagan cho'g'ingni o'pay,
Lablarim qonasin, tig'ingni o'pay,
Erkim deb entikkan elmiding, hurriyat!

O'zbekning o'zligi ungan tuprog'im,
Qo'limning qadog'i, tillo tirnog'im,
Yetti osmonimda yongan chirog'im,
Boshimda balqigan nurmiding, hurriyat!

Boburdek zorimda asrayin seni,
Cho'lpondek orimda asrayin seni,
Jonim jarangida kuylagan bulbul,
Mashrabdek dorimda asrayin seni.

Hurriyat, hurriyat, hurriyat!

SHOYAD

Gar tog'ni qirtishlab, qiliching sinsa,
Qinni qarog'ingda asrolmagaysan.
Yo'lingda jilmayib turfa gul tursa,
Nasibang yor emas, uzolmagaysan.

Sen yorug' tonglarga yuzingni burgin,
Quyosh qo'rg'onida kulib turgaydir.
Gar tuya so'rsang ham Tangridan so'rgin,
Fikri ojizingni bilib turgaydir.

Mayli boylik so'ra, hidoyat so'ra,
Yomonlik so'rama dushmaningga ham.
O'zi xo'b bilgaydir sen, bizdan ko'ra,
Yaxshi-yu yomonni Xoliqi olam.

Agarki, peshonang sajdaga borib,
Ko'ngling osmonida bir nur ko'rarsan.
Demakki, sen endi shaytondan g'olib,
Shoyad, huzurida kulib turarsan.



YURGIN

Ayo do'st, o'chog'ingda qolgan qo'ring o'chmasin,
Qadri qarog'ida qo'shning, jonga jo'ring ko'chmasin,
Omad ketsa kelgaydir, boshdan hushing uchmasin,
To'g'ri so'z tumorini joningga boylab yurgin,
O'zbekning udumini qoningga joylab yurgin.

Maysa nurga intilsa, qish qahri bekor ekan,
Bahorning karvoniga boychechak sarkor ekan,
Yashayman desa neki Tangri unga yor ekan,
Yaxshilar qomatiga bo'yingni bo'ylab yurgin,
O'zingni unutsang ham oringni o'ylab yurgin.

Tilansang tog'day ko'ngling tovoningda yig'laydi,
Haromdan topgan doning xirmoningda yig'laydi,
Vujuding ichra vijdon iymoningda yig'laydi,
Muruvvat mehri bilan yurakni iylab yurgin,
Baxtingdan balqib tursang sag'irni siylab yurgin.

Quyoshning qarog'ida otash nega so'nmaydi,
Bitta osmon bag'rida shuncha yulduz gullaydi.
Baxilning bo'g'otiga, Mahmud, qush ham qo'nmaydi,
Ko'nglingga sig'gan kuyni o'zingcha kuylab yurgin,
Ketganlar kelmasligin unutma, o'ylab yurgin.



DEHQONIM

Tuproqdan tillolar tergan dehqonim,
El-u yurt rizqini bergan dehqonim,
Kaftida jilmaysa O'zbekistoni,
Qadog'i xandalar urgan dehqonim.

Shirmoy non yuzida orazingiz bor,
Goho bulutlardan arazingiz bor,
Bo'lsa yolg'iz Allohdan qarzingiz bor,
Mag'rurlikda tog'dek turgan dehqonim.

Toshni silasangiz g'unchalab ketar,
Har nihol ildizi yurakka yetar,
Ekmagan bilmaydi, u jonda bitar,
Suv sursa diydadan surgan dehqonim.

Kunduzlar quyoshning o'tiga chidab,
Oqshom egatlarda oyni erkalab,
Sochnimas, yurgaysiz niholni silab,
Yulduzlarga dilin yorgan dehqonim.

Sel kelsa selobi ko'zlardan oqib,
Do'l ursa xitobi dunyoni yoqib,
Qatqaloq qatiga bo'zlablar boqib,
Jonini chimchilab yurgan dehqonim.

Tuproq'i tillo yurt sizning go'shangiz,
Orom bolishini nurdan to'shangiz,
Biror kun o'zingiz uchun yashangiz,
Rizqini Allohdan so'rgan dehqonim.

Men-ku, bitta she'rni yozdim hijjalab,
Asli shoir Siz! Ko'plar non talab,
Nuqta qo'yay endi umringiz tilab,
Mehrdan qo'rg'onlar qurgan dehqonim!

DO'STNING QADRI QADAHDA EMAS

Tunning qadri chiroqda emas,
Qoqilibsan, ayb chohda emas,
Visol qadri balki firoqda,
Do'stning qadri qadahda emas.

Qo'l ko'ksingda bugun mezbonsan,
Nasibang but, erta mehmonsan,
Bu hikmatga, do'stim, ishon san,
Do'stning qadri qadahda emas.

Ko'k yuziga yulduz yarashar,
Dasturxonga non, tuz yarashar,
Har davraga haq so'z yarashar,
Do'stning qadri qadahda emas.

O'tirganda izzating bo'lsin,
Suhbatingda hikmating bo'lsin,
Sharobsiz ham jur'ating bo'lsin,
Do'stning qadri qadahda emas.

Kim may ichur soxta chapakka,
Qadah timsol toza tilakka,
So'z jarangin yetkaz yurakka,
Do'stning qadri qadahda emas.

Ayt, nima bor diydordan shirin,
Kaftda tutib yurakning qo'rin,
Ichgim kelar diydorning nurin,
Do'stning qadri qadahda emas.



YURGAYSAN

Tikanga teginma, tilinar qo'ling,
Yurmasdan oldin ko'r, yorug'mi yo'ling,
Buloqdan tiniqroq bo'lsa gar diling,
Alloh asragaydir, osmon yurgaysan.

Mardlarning maydonda yarog'i bo'lak,
Har uyning o'z tomi, chirog'i bo'lak,
Chiroqdan yorug'dir bir shirin tilak,
Niyating xolisdir, shodon yurgaysan.

Unutma qadashni hayo tugmasin,
Lazzati omonat nafsing kemasin,
Boshingga malomat toshi tegmasin,
Gar tegsa, alp qaddi kamon yurgaysan.

Salom bermaganlar alik kutmagay,
Xizr barmog'ini har kim tutmagay,
Haqni o'ylaganni Haq unutmagay,
Farishtalar yo'ldosh qayon yurgaysan.

So'zingdan saxovat sabosi esar,
Ko'zingda nur bo'lsa toshni ham kesar,
Tuproq bo'l, Mahmud, el baland tutar,
Agar-chi sen shirin zabon yurgaysan.



E'ZOZ*Ellikka kirgan do'stlaringa*

Ellik yosh — kamolot ko'kidagi nur,
Ellik yosh — umrning ko'ksidagi dur,
Agar-chi yasharsan el nazarida
Izlaringda unmesh baxt degan surur.

Ellik yil elakdan ellik bor o'tib,
Vijdon-u nafsini qololgan tutib,
Do'stlar qarsaklarin jaranglarida
Ellikni e'zozda olgaydir kutib.

Ellik yil yashasang, onang bor bo'lsa,
Rafiqang mehribon ham dildor bo'lsa,
Ko'rsang, ko'zlaringni quvonchi bo'lgan,
Farzand kamolidan iftixor bo'lsa.

Ellikka chiqsang, lek do'stlaring mehri
Jon-u jahoningni balqitib tursa,
„Bobojon“ deganda nabirang sehri,
Qaddi-qomatingni qalqitib tursa.

Ellik yosh — keksalik bahori, asli,
Nomardga elanmas mardlarning nasli,
Ellikda e'tibor topganlar, o'lmang,
Ellikda yuz ochar hikmatning fasli.

Oltmishsiz yetmishga yetib bo'lmaydi,
Saksonsiz to'qsonni tutib bo'lmaydi,
Ellikda baxtiyor bo'lgan, do'stlarim,
Yuz yoshsiz dunyodan o'tib bo'lmaydi.



TUMOR BO'LGIN

Ko'p qadim gap, aytgan bizmas,
Yangi qurmay eskin buzmas.
Sarbon oqil, karvon to'zmas,
Sulton chiqsa o'zingdan qo'y,
Gar qo'y so'ysang, otangga so'y.

Yot yeb ketar, yor bo'lmaydi,
Qirda abad qor bo'lmaydi,
O'zni bilgan xor bo'lmaydi,
Kunga yarar do'st, dildoshing,
Ko'hna qo'shiq qarindoshing.

Qochgan kasni quvmaydi el,
Sotqin o'lsa, kuymaydi el,
Mardsan, tildan qo'ymaydi el,
El nazarin ordan izla,
Qatordagi nordan izla.

O'z tirnog'ing tishga botmas,
Ko'zing ko'rsa kiprik sotmas,
Tulki sherning dardin tortmas,
Oftob chiqsa botar shu kun,
Nomard siring sotar shu kun.

Dunyo ko'zgu dilingdagi,
Umring ko'zgu qo'lingdagi,
Haq so'z bo'lsin tilingdagi,
Tug'ishganga tumor bo'lgin,
Yot egolmas chinor bo'lgin.



JAMOLING JONIMNI GULIDA, VATAN

Tiniq tuyg'ularning tulporin minib,
Oppoq orzulardan bir qalam yo'nib,
Qaldirg'och qoshiga quvonchdek qo'nib,
Shalolang shodligin ichgim bor, Vatan,
Bolamdek balqitib quchgim bor, Vatan!

Muloyim maysalar aytganda sano,
Turnalar tilidan to'kilsa duo,
Quyosh quvonchidan qalqigay samo,
Jamoling jonimning gulida, Vatan,
Diydoring onamning dilida, Vatan!

Yigitlar orining tig'isan o'zing,
Parilar mehrining cho'g'isan o'zing,
Kelinchak allasi bu sening so'zing,
Beshikdagi mardning mohisan, Vatan,
Yurtdan yiroqlarning ohisan, Vatan!

Shabnam sharsharaning ostonasidir,
Hasad — bu yovlikning nishonasidir,
To'lin oy o'zbekning peshonasidir,
Erkidan entikkan hurimsan, Vatan,
Temur tug'idagi nurimsan, Vatan!



TUGATMAS

Bolari bog'larning bolin tugatmas,
Yaratgan saxiyning molin tugatmas,
Majnuntol suv uzra dolin tugatmas,
Ko'ksidan qo'yvorar qumrini odam,
Kun kelar, tugatar umrini odam.

Olamdan rang olmish chehrai zardi,
Dunyoni qaritgay odamzod dardi,
Sultonni sel qilar savobin gardi,
Yaxshidir, yaxshilar tilida odam,
Hurmatdan xush yurar elida odam.

Ko'ngil ko'zqusidir ko'zdagi yolqin,
Chaqmoqdan chiroyli yuzdagi yolqin,
Shoir bu el ichra so'zdagi yolqin,
Gar yonib yashasa o'lmaydi odam,
Mahsharda gul bo'lar, so'lmaydi odam.

Dilning tumoridir Qur'onning nuri,
Jonning jamolidir iymonning nuri,
Tildagi to'g'ri so'z zabonning nuri,
Mahmud, Haqni tanib hur bo'lar odam,
Ko'ngil osmonida nur bo'lar odam.



YERNI KO'R

*Tog'am Jo'ra Turopov
xotirasiga bag'ishlayman*

Shamolga yetmaysan yugurgan bilan,
Boshing ko'kka yetmas kerilgan bilan.
Qush to'ymas, qo'ldan rizq berilgan bilan,
Yerni ko'r, nasibang yerdadir, bolam!

Umr deganlari asli bir kundir,
Ko'z yumsang bu olam zulmatdir, tundir.
Ketarda shoh, gado birdek yupundir,
Iymon bu qalbdagi qo'rdadir, bolam!

Qachon toshdan uzuk yasabdi zargar,
Allohga yig'lasang ko'z yoshing gavhar.
Nuri bor, qaro tun shohidir qamar,
Oqilning ruhi ham to'rdadir, bolam!

Mehnat bu jismingdan to'kilgan ziyo,
Ziyodan yaralgan farishta hatto.
Bir niholga umr etolsang ato,
Rohating yuz ochgan guldadir, bolam!

Qo'ling qadog'ini jonim silasin,
Yaratgan boshingdan duo elasin,
Ayoling mardlarga beshik belasin,
Yerga boq, ketganlar yerdadir, bolam!



BARMOQLAR BODASI

Yuzdagi dona xoling,
Xattotning xatidanmi?
Labdagi qizil oling,
G'unchaning qatidanmi?

Qaro-qaro qoshlaring
Qaldirg'och terganmidi?
Gulim, sadaf tishlaring,
Marvarid berganmidi?

Sochlaring tolim-tolim,
Tolasida dodim bor.
Tilimdan tomar bolim,
Sendek parizodim bor.

Barmoqlaring bodasi,
Aylantirar boshimni.
Tabassuming shodasi,
To'kkaydir bardoshimni.

Qarog'ingda qatra nur,
Qayrilsang aytonayin.
Bolishingga sochib dur,
Quyosh bo'lib yonayin.

Ko'ksingga hotib jonim,
Joningda qolib ketay.
Yo'q-yo'q, Mahmud, jononim,
Jonimda olib ketay.



GULXAN YOQDINGIZ

Tikanlar tig'ida ochilgan gulday,
Siz mening ko'nglimda gulxan yoqdingiz.
Bulutning boshini silagan nurday,
Siz mening ko'nglimda gulxan yoqdingiz.

O'ksishni bilmagan oftobmidingiz,
Tunga tumor bo'lgan mohtobmidingiz,
Gulim, guldan tomgan gulobmidingiz,
Siz mening ko'nglimda gulxan yoqdingiz.

Bu ne so'z kim, bolariga bol bo'lur,
Bu ne ko'z kim, quyosh ko'rib lol bo'lur,
Bu ne chiroy, olamga jamol bo'lur,
Siz mening ko'nglimda gulxan yoqdingiz.

Quvonch qo'ng'irog'i qo'limda qoldi,
Ming bulbul bo'zlashib yo'limda qoldi,
Bo'sangiz bolmidi, tilimda qoldi,
Siz mening ko'nglimda gulxan yoqdingiz.

Jon endi jonligin unutib qo'ydi,
Bu dil mehringizdan cho'g' yutib qo'ydi,
Ko'zim ko'zingizga gul tutib qo'ydi,
Siz mening ko'nglimda gulxan yoqdingiz.



BIR GAP AYTGIM KELDI

Bir gap aytgim keldi qulog'ingizga,
Jonim taqib qo'yay baldog'ingizga,
Barmog'im bir tegsa barmog'ingizga,
Oshiqlar axtargan gullar ochilgay,
Yurar yo'lingizga nurlar sochilgay.

Chinnidan chiroyli ovozingiz bor,
Toshni ham tilguvchi dil rozingiz bor,
Turnani tushovlar xush nozingiz bor,
Qor yog'sa yarashmas qabog'ingizga,
Parvona kerakdir chirog'ingizga.

Sizni ko'rib oy osmonga sig'maydi,
Quyoshimsiz, qarab ko'zim to'ymaydi,
So'raganim bitta shirin bo'saydi,
Kirib bo'larmikin dil bog'ingizga,
Bir marta lab bossam dudog'ingizga.

Go'zallar ko'zgisiz soch tarashmaydi,
Sanamlar qul zotiga qarashmaydi,
Kuysak, ko'changizga kul yarashmaydi,
Xol-ku, bo'lolmadik yonog'ingizga,
Boshim bolish bo'lsin oyog'ingizga.



GULOYIM

Gulkosada bir kosa gulob quying, Guloyim,
Kosangizda nim kosa mehr bo'lsin, iloyim.
Gina qilmang, ginada gumonning gardi bordir.
Begingizning belida belbog'i bor, Guloyim.

Bu dunyo shirinligi tilingizning bolidan,
Latiflik lol, lo'barim, labingizning xolidan,
Alifning qaddi doldir ayro tushsa zolidan,
Bulbul qachon guliga bo'lmabdi zor, Guloyim.

Husningizning jilosi dunyodagi rangda yo'q,
Kul qiliblar kuldingiz, sozdagi jarangda yo'q,
Sabrimizning sadosi yerda bor, ohangda yo'q,
Oshiqarning ohidan yaralgan tor, Guloyim.

Gulkosaga gul bo'lgan yuzingiz adosiman,
Qoshingizga qul bo'lgan qaldirg'och sadosiman,
Mahmudman, makonim yo'q, ko'changiz gadosiman,
Gulkosada qalqigan qalbimiz bor, Guloyim,
Quyoshimsiz, boshimga yog'maydi qor, Guloyim.



ISMINGIZ

Ismingiz shunchalar shirinki,
Kiprigim ko'zinga yozadi,
Ismingiz shunchalar shirinki,
Ko'z yoshim yuzingga yozadi.

Ismingiz shunchalar shirinki,
Jarangi piyola chetida.
Men unga nogahon lab bossam,
Kuyiblar ketgayman o'tida.

Ismingiz shunchalar shirinki,
Men unga jonimni tikkanman,
Ismingiz shunchalar shirinki,
Har harfin she'rimda o'pganman.



QUMRIMIZ BOR

Bilmaymiz bilguvchi bor,
Qanchalar umrimiz bor,
Ko'ksimizni kuydirgan,
Bir nolon qumrimiz bor.

Yonsak yonaveramiz,
Kuymaganni kuydirib,
Jonni jaranglatamiz,
Suymaganni suydirib.

Bir maysaning bardoshi,
Terakka tirgak bo'lur,
Bilmadik, atirgulga
Tikan na kerak bo'lur.

Kesakka kesatsangiz,
Gezarar, olov bo'lmas,
Sayyodlar sust ketganda,
Kamon yig'lar, ov bo'lmas.

Joningizning jamoli,
Ko'nglimiz ko'zqusida,
Qanot ko'rib quvondik,
Tulporlar orzusida.

Qonda qatra ishq bordir,
Toshni ham eritgaysan,
Oshiqsan, agar, Mahmud,
Dunyoni qaritgaysan.




BIR BORA O'TMAYSIZMI

Orzum mening armonim, kirolmagan bog'imdir,
Bu dunyoda xush onim sizni ko'rgan chog'imdir,
Ikki ko'z ikki chashmim, ham ikki qarog'imdir,
Chimdingina nur sohib yurakning darchasidan,
Bir bora o'tmaysizmi, ko'nglimning ko'chasidan?

Quvonchini qo'sh qo'llab ko'targanlarni ko'rdim,
Izingizdan bir ajib yo'talغانlarni ko'rdim,
Xayolda suvratingiz ko'rib qalqiblar turdim,
Qultumgina suv sepib vaslingiz chashmasidan,
Bir bora o'tmaysizmi, ko'nglimning ko'chasidan?

Buloqlar bedorligi oshiqqlarning ohidan,
Ko'ngil uzib bo'lurmi yerning sizdek mohidan,
Bilsangiz ishq ahlining gul unmiş gunohidan,
Talpinib ikki kaptar sirilgan nimchasidan,
Bir bora o'tmaysizmi, ko'nglimning ko'chasidan?

Ne tegsa ko'zdan tegar, ko'zingizni asrang siz,
Oy arazlab yurganmiş, yuzingizni asrang siz,
Gardining gavhari bor izingizni asrang siz,
Tangri o'zi ayirmish kunduzni kechasidan,
Bir bora o'tmaysizmi, ko'nglimning ko'chasidan?



EY, DIL

Bu dilning gardishi guldir,
Bu dilning dardidir bulbul.
Ay, maysiz ko'zasin sindir,
Kel, birga yig'laymiz, ey, dil.

Quyoshni biz birga quchdik,
Ichsak ishq sharobin ichdik,
Cho'ksak, gul poyiga cho'kdik,
Kel, birga yig'laymiz, ey, dil.

Dema o'zni o'tga soldik,
Kuydig-u, kuylashib toldik,
Qo'shiqu qutqarib qoldik,
Kel, birga yig'laymiz, ey, dil.

Ko'zimiz kurtagi ko'klam,
Kiprikni egibdi shabnam.
Bizsiz ne ko'ribdi olam?
Kel, birga yig'laymiz, ey, dil.

Gulobning giyohi bizda,
Sitamning siyohi bizda,
Dunyoning gunohi bizda,
Kel, birga yig'laymiz, ey, dil.

Gul ichra gul axtardik biz,
Dil ichra dil axtardik biz,
Bir Xudoga tiz cho'kdik biz,
Kel, birga yig'laymiz, ey, dil.



TOSHKENTNING TILLOSIDAN

Qatradek qalqib ketdik jilvangiz jilosidan,
Barmoqlarim bozillar qo'lingiz xinosidan,
Marg'ilonning malagi, buncha momiq bilagi,
Ishq ahli saboq olsin ohimiz imlosidan,
Uzuk tutsak olmaysiz Toshkentning tillosidan.

Yolvorsak, yoningizga yot deb yo'latmagaysiz,
Bu yarim ko'nglimizni nechun to'latmagaysiz,
So'rayverib sil bo'ldik, sochni silatmagaysiz,
Bir chimdim nur ilindik mehrimiz ziyosidan,
Uzuk tutsak olmaysiz Toshkentning tillosidan.

Kumushlar suyganча bor, Zaynablar kuyganча bor,
Toshkentlik yigitlarda Otabekdek beklik bor,
Bizni unutgay Alloh, biz sizni unutsak yor,
Salomlar yo'llab edik ko'nglimiz sabosidan,
Uzuk tutsak olmaysiz Toshkentning tillosidan.

Ahli devona ichra devonasi biz bo'ldik,
Marg'ilon ko'chasida begonasi biz bo'ldik,
Kelsangiz Ko'hna Shoshning ostonasi biz bo'ldik,
Mahmud kechgay siz uchun dunyoning dunyosidan,
Uzuk tutsak olmaysiz Toshkentning tillosidan.



KO'NGIL KO'RKI

Ko'nglimiz ko'rkida gul, ko'ringiz kelmaydimi,
Bu chamanga jilmayib kirgingiz kelmaydimi,
Biz yurgan yo'llarda, yor, yurgingiz kelmaydimi,
Chirsillagan cho'g' edik, kul qilib qo'ydingiz-ku,
Qayg'ungizda qartaygan qul qilib qo'ydingiz-ku!

Ko'nglimiz ko'rkida gul, siz ko'rgan bahorda yo'q,
Ohimiz oromlari siz chertgan dutorda yo'q,
Bu dunyoning jafosi biz chekkan ozorda yo'q,
Sitamlar sahrosida sil qilib qo'ydingiz-ku,
O'z-o'ziga yig'lagan dil qilib qo'ydingiz-ku!

Armonini ortmoqlab baxtli bo'lgan bormikin,
Dil dardini qadoqlab taxtli bo'lgan bormikin,
Har sevgan har ko'chada biz kabi xor-zormikin,
Qadri yo'q, qarori yo'q, el qilib qo'ydingiz-ku,
O'zanini o'yguvchi sel qilib qo'ydingiz-ku!

Ko'nglimiz ko'rkida gul, bog'bonida jon bitta,
Biz kabi oshiq bir-u, siz kabi jonon bitta,
Sig'mayin qoldim mano, yer bitta, osmon bitta,
Bu dunyoning cheki yo'q, cho'l qilib qo'ydingiz-ku,
Mahmudni Majnunlarga el qilib qo'ydingiz-ku!



ISTARASI ISSIQ QIZ

Izingiz irmog'iga ergashib entikurman,
Ko'zingiz chirog'iga ko'rmaysiz, ko'z tikurman,
Anbar axtargan yeldek poyingizga cho'kurman,
Ismingizda ifor bor, istarasi issiq qiz.

Kulsangiz ko'kda quyosh qartayib qolgandayin,
Oy alamdan yuzini chimchilab olgandayin,
Husningiz hayratini aytishib tolgandayin,
Ismingizda ifor bor, istarasi issiq qiz.

Gulzorda turfa gullar, gurungida gulxan bor,
Bulbulda tangri bergan g'uncha bilgan suxan bor,
Jismingizda jilmaygan chiroy degan chaman bor,
Ismingizda ifor bor, istarasi issiq qiz.

Tumor tilab Tangridan, tonglari duodaman,
Umringizni tilagan har aziz sadodaman,
Sochingizni silagan qo'l bo'lay saboga man,
Ismingizda ifor bor, istarasi issiq qiz.

Ko'rmaganning ko'rgani qursin, degan azaldan,
Chimdingina ko'rsak ne labizdagi asaldan,
Mahmudni malomatga qo'ymangiz bu g'azaldan,
Ismingizda ifor bor, istarasi issiq qiz.



MURUVVATLAR TILADIM SIZDAN

Ko'ksimda ungan gul ishqiy jilodir,
Qulog'ingiz qizdirgan so'zim duodir,
Izingiz ko'zlarimga chashmi shifodir,
Malikam, muruvvatlar tiladim sizdan.

Bargi xazon bo'lganda bog'lar bo'zlarmish,
Dardi larzon bo'lganda toshlar so'zlarmish,
Oshiqlar yulduzni benarvon ko'zlarmish,
Malikam, muruvvatlar tiladim sizdan.

Piyola der, jonon labida jon bo'lsam,
Rayhon der, zulfi isiga qurbon bo'lsam,
Bog'ingizda bo'lay mayli xazon bo'lsam,
Malikam, muruvvatlar tiladim sizdan.

Oy kezar osmonda va lekin izi yo'q,
Siz bahorsiz, yor, bir bahorki, kuzi yo'q.
Mahmudning ismingizdan shirin so'zi yo'q,
Malikam, muruvvatlar tiladim sizdan.



O'RTAMIZDA BIR SIR BOR

O'rtamizda bir sir bor yolg'iz Xudo bilgaydir,
Sirdan agar kim voqif oydan nido bo'lgaydir.

Tundan qaro sochingni o'rsa tunda yulduzlar,
Kunduz yerni kuydirib quyosh gado bo'lgaydir.

La'li labing bodasin takror so'rab tolmasman,
Bolari gul labida ming bor paydo bo'lgaydir.

Ostonangga bosh ursam ilgimdan oldi iting,
Tabibim tamannoing menga shifo bo'lgaydir.

Majnuntolning holiga boqib aksimni ko'rsam,
Suvda yuzing silarman, ko'zim daryo bo'lgaydir.

Rashk o'timi kuydirgan oy yuzin dog'li-dog'li,
Dog'i hajringda Mahmud, sen deb ado bo'lgaydir.



BEVAFO ERKAM

Qushqo'nmas daraxtning shoxi bo'lding sen,
Bulutli osmonning mohi bo'lding sen,
Bu yarim ko'nglimning ohi bo'lding sen,
Bevafo dunyoda bevafo erkam.

Izlab topmaganim Humo qush bo'lib,
Xobimga kirmagan shirin tush bo'lib,
Sen ketding, yuribman men behush bo'lib,
Bevafo dunyoda bevafo erkam.

Oqqushlar armoni ummonda qolmish,
Quyoshning yig'isi osmonda qolmish,
Jonima seningdek jononda qolmish,
Bevafo dunyoda bevafo erkam.

Anorning gulida olov gullaydi,
Seni o'ylaganda dil lovullaydi,
Sog'inchim sochlaringdek shovullaydi,
Bevafo dunyoda bevafo erkam.

Poyonsiz dunyoning poyoni senda,
O'zni anglamakning ayoni senda,
Jismimda chiqmagan jon qoldi menda,
Bevafo dunyoda bevafo erkam.



TAMANNODAN TITRADIM

Gul atri gulbogʻ ichra gul novdasi kuydirar,
Oshiqning ohi hargiz dil pardasi kuydirar,
Yaratgan tanlab-tanlab qul bandasi suydirar,
Tovoningga toʻkilgan tamannodan titradim.

Chiroqning chiroyiga parvona jonin tikmish,
Bu ne husn-u latofat yuragimga gul ekmish,
Oydan goʻzal begoyim, ostonangga qul choʻkmish,
Tovoningga toʻkilgan tamannodan titradim.

Boychechakni bozordan terganni kim koʻribdi,
Qaldirgʻochga bu qoshni berganni kim koʻribdi,
Yolgʻizning yostigʻini kulganin kim koʻribdi,
Tovoningga toʻkilgan tamannodan titradim.

Zulfizarin ifori axtardim atirda yoʻq,
Qoshlarini qiyosi men topgan satrda yoʻq,
Mahmudni kul qilgaydir koʻksida gullagan choʻgʻ,
Tovoningga toʻkilgan tamannodan titradim.



OSMON UZOQ

Osmon uzoq, yer qattiq,
Yolvorsang yorilmaydi.
Tuproqda to'lg'angan dard,
Ko'z yoshga qorilmaydi.

Kipriging qatidagi
Qahrni quchgim kelar.
Men oyning betidagi,
Dog'larni ichgim kelar.

Boychechak bozorida
Sarg'aygan yuzim ko'rdim,
Samovat sultonidan
Sabringa to'zim so'rdim.

Jonimni chaqmoqlagan
Qo'l yetmas suyganim bor.
Alamni ortmoqlagan
Ko'nglimdan kuyganim bor.

Sog'inchim yalpiz misol,
Ko'zimda kurtaklaydi.
Meni bir shirin visol
Mahsharga yetaklaydi.



* * *

Hilolning hayosida jilmaysa jamolingiz,
Oftobning oynasida to'lgaydir kamolingiz.

Jilovdan chiqib jonim jo'sh urmish jahon ichra,
Yulduzdek yuz ochganda xayolda xayolingiz.

Sharshara shamolidan shifolar istab erdim,
Ko'zimni kuydirdi, vah, yor zulfi zilolingiz.

Atirgul asrab yurgan anvoyi iformisiz,
Bolari bo'lib totsam g'uncha labda bolingiz.

Chaqmoqlar chiroyidan bulutlar buloq bo'lmish,
Osmon o'rab olganmi, yetti rang ro'molingiz.

Siz ko'ngil bog'ida, yor, dildagi daryo bo'ling,
Qoshingizda qul Mahmud, bo'lay majnuntolingiz.



NOZLIGIM

Kel endi, nozligim, kel endi, erkam,
Jonimni joningga bosib yotayin,
Shu bitta boshimni bu kech tonggacha,
Zulfingning doriga osib yotayin.

Siynangning suroni ko'ksingga sig'mas,
Ko'zim gavhariga quyosh qo'ngandek,
Qulog'im ismingdan o'zga so'z uqmas,
Onang seni yolg'iz menga tug'gandek.

Izingni ifori jonimga chertsam,
Ko'changni ko'tarib ketgim keladi,
Xayolda kim senga bitta gul tutsa,
Quyoshni barkashda tutgim keladi.

Mayli barmog'ingga tikanlar taqib,
Chiqmagan jonimni chimchilab yurgin,
Kun kelib men senga qolurman yoqib,
Yoqmasam qul qilib qamchilab yurgin.



VISOLINGIZ

Visolingiz tilab oldim, tilimda bolingiz qoldi,
Yor, bo'ynimda bo'yi behisht zulfi zilolingiz qoldi.

Malaksiz va yo sohira, qaro tun buncha bokira,
Desam nurlari sharshara kulgan hilolingiz qoldi.

Bolishimda baxtim balqib, ko'zimga quvonchim qalqib,
Nozanin nozingiz yoqib, jonda jamolingiz qoldi.

Tangriga beaded shukr, etmish bizni sohib huzur,
Ag'yorlarga aytsak arzir, dil o'rtab lolingiz qoldi.

Qoshimu qatlimni ko'zlagan, ko'zmu otashdan
Qay oshiq baxtdan bo'zlagan, Mahmuddek dolingiz
so'zlagan,
qoldi.



SIZNI KO'RGANDAN BERI

Samolarni silagim kelar,
Jonim jon deb elagim kelar.
Umringizni tilagim kelar,
Sizni bir bor ko'rgandan beri.

Osmonga sig'magan yulduzim,
Bog'larga bol bergan gul yuzim,
O'zimga o'xshamam men o'zim,
Sizni bir bor ko'rgandan beri.

Vah, oyning yuzida dog'i yo'q,
Qirq yamoq to'nim qurog'i yo'q,
Cho'g'lar bosib, yor, kuyganim yo'q,
Sizni bir bor ko'rgandan beri.

Guvoh bo'lgan yer-u osmondir,
Quvonchim qonimda to'fondir,
Qul Mahmud olamga sultondir,
Sizni bir bor ko'rgandan beri.



TILMOCH KERAKMAS

Ko'zingizni uqqani tilmoch kerakmas,
Bir qalbgga gul ekkani omoch kerakmas,
Qozoningiz kuymasin, qirmoch kerakmas,
Oshig'ingiz kuygani yetmaydimi, yor.

Olov bilan o'ynashib ovvora bo'lmang,
Kuyib-kuyib biz kabi dilpora bo'lmang,
Sevib-sevib kul bo'ldik, kuygandan kulmang,
Jafolar jarohati bitmaydimi, yor.

Eliga o'g'il bo'lmas duldul ko'rmagan,
G'unchaning g'uborini bulbul ko'rmagan,
Kulbangiz mening kabi bir qul ko'rmagan,
Mahsharda uvolimiz tutmaydimi, yor.

Quyosh tog'lar ortida nur dastalaydi,
Qul Mahmud sizga har tong gul dastalaydi,
Kuygan dil qo'ridan kuy bastalaydi,
Ohimiz dilingizni chertmaydimi, yor!



BIZLAR EMAS

Bizlar emas, dunyo devona,
Bizga yer-u osmon begona.
Qarg'alarning qahri sochilgay,
Biz sig'magan keng bu jahona.

Dunyo kezib tillo topganlar,
Uch so'm pulga mullo topganlar,
Do'ppingizni otib yashangiz,
Bir bor sevmay yallo topganlar.

Biz olovni ichib yashaymiz,
Biz olovni quchib yashaymiz,
Turnalarning qo'shiqlarida,
Boshingizda uchib yashaymiz.

Biz bir shirin ertak bo'lamiz,
Siz bor joyda beshak bo'lamiz,
Ishq bog'iga yo'lingiz tushsa,
Gul bo'lamiz, chechak bo'lamiz.

Kim aytibdi, bizlar o'lamiz,
Hur bo'lamiz, malak bo'lamiz,
Tangri suygan, tangri alqagan,
Tilovatli tilak bo'lamiz.



GUL TUTSAK

Gul tutsak qo'lingizga gul yana gullab ketar,
Qoshingiz qaldig'ochni, vah, qayga imlab ketar,
Rayhonlar ifor to'kib izingiz izlab ketar,
Biz yana ortingizdan bo'zlab qolgan bolamiz,
Oshiqlar ohidagi ado bo'lmas nolamiz.

Yulduzlar aytib bersin oyning tomoshasini,
Anhorlar qaytib bersin tutgan toshoynasini,
Yellar ham yetkazmashish biz g'arib ginasini,
Ginamiz gardining ham gulxani bor bilsangiz,
Jonimiz jaranglardi kipriklarda tilsangiz.

Bahor bog'larga sig'mas vaslingizni o'ylasak,
Qonimiz qatrasida qirq qo'shiq bor kuylasak,
Dol qaddim alif bo'lur bo'yingizga bo'ylasak,
Chiroyingiz chashmidan qultum ichib qonmadik,
Biz o'zdan tonganda ham, gulim, sizdan tonmadik.

Kim ham bo'lmabdi axir oftobning ovvorasi,
Oftobim, bormi, ayting, bu zulmatning chorasi,
Mahmudni demasinlar oshiqlar bechorasi,
Bag'ringiz bolishida balqigan baxt bo'laylik,
Kaftimizning ko'shkiga bir chiqing taxt bo'laylik.



BIR TOLA SOCH BERING

G'unchadan xush ko'rdim yorning dudog'in,
Quyosh qarz olarmish husnin chirog'in,
Tabassum soching-a, terib uvog'in,
Bosgan izingizga tumorlar qilay,
Bir tola soch bering, men dorlar qilay.

Qay g'arib dardiga topmishdir malham,
Sog'inchim sahroga sochilgan shabnam,
Vafoli dunyoda vafosiz erkam,
Ayting, tokaygacha oh-zorlar qilay,
Bir tola soch bering, men dorlar qilay.

Yuzingizni yuvgan yomg'irdan kuydim,
Labingiz lolasi chog'irdan kuydim,
Men g'arib sizningdek malakni suydim,
Xush ko'rsam netayin, xumorlar qilay,
Bir tola soch bering, men dorlar qilay.

Boshingizda kuygan oftobman o'zim,
Gul ichra gul tutgan gulobman o'zim,
Chertsa chirqillagan rubobman o'zim,
Mahmud, ishq ahliga alyorlar qilay,
Bir tola soch bering, men dorlar qilay.



SINGLIM

Dilfuzaga

Jon singlim, jonon singlim,
Tillari biyron singlim,
Bu dunyoning ishiga
O'zim ham hayron singlim.

Vah-vah, qora qosh singlim,
Nechun ko'zing yosh, singlim?
Bu dunyoda ko'p ekan
Asli ko'ngli tosh, singlim.

Oh, ko'ngli osmon singlim,
Ko'zlari cho'lpon singlim.
U dunyosin bilmadim
Bu dunyo yolg'on, singlim.

O'zi bir olam singlim,
Ko'z yoshi shabnam singlim,
Sen menga darding aytsang
Men to'kdim nolam, singlim.

Guldan ham ko'rkam singlim,
Qilma boshing xam, singlim.
Bolishingga baxt sochib
Turibdi Egam, singlim.



KETSAM

Ko'nglimning ko'kida gullagan ko'shkim,
To'kilsa tugamas ko'zdagi ashkim,
Uzilgan yaproqday poyingga tushgim,
Izingning isiga eriblar ketsam,
Ketarda gardingni teriblar ketsam.

Yongan yuragimning yog'dusi bilan,
Kuygan ko'zlarimning ko'zgusi bilan,
Dunyoning seningdek ohusi bilan
Yo'llarni yig'latib kuliblar ketsam,
Ag'yor yuragini yuliblar ketsam.

Ketsam, ketaversam, toshlar erisa,
Ko'zlarda muz qotgan yoshlar erisa,
Kuyib ketsa, qalam qoshlar erisa,
Seni yomonlardan oliblar ketsam,
Dunyoga suronlar soliblar ketsam.

Quyosh kuyaverib qartayib ketsa,
Oyning armonlari jonidan o'tsa,
Tog'lar to'lg'onishib yoqosin tutsa,
Hayratni sochingga siriblar ketsam,
Jonimni o'zingga beriblar ketsam.



BOLARINING BAYOTIDASIZ

Oyog'ingiz yerdan uzildi,
Kapalakning qanotidasiz,
Ohu ko'zlar nedan suzildi,
Bolarining bayotidasiz?

Zulfingizda rayhon islari,
Sabolar ham gadoingizdir,
Qizg'aldoqning g'uncha qizlari,
To'kilsam der adoingizdir.

Maysalar ham buncha muloyim,
O'pib yig'lar tovoningizni,
Ko'z tegmasin sizga iloyim,
Ko'zdan asrang mujgoningizni.

Ko'rdim quyosh kuyib ketmoqda,
Kuyar, ammo kul bo'lolmaydi,
Oqshom kelsa botib ketar u,
Mahmud kabi qul bo'lolmaydi.



XALQ OHANGIDA

G'uncha labini
Qandoq ocharkin,
Rayhon iforin
Qaydan socharkin?

Chuchmoma chuchuk
Deganlar qani.
Yuz yil sumalak
Yeganlar qani?

Ko'klam qabog'i
Buncha uyuldi.
Osmon ko'zidan
Yoshi quyuldi.

Jismi-jonimda
G'alat titroqlar,
Shabnamdan sharob
Ichar yaproqlar.

Jiyda gulida
Ko'klam jamoli.
Labin yondirar
Qizlarning xoli.

Gulday jilmaygan
Yuzni sog'indim.
Kapalak quvgan
Qizni sog'indim.

Olmani otsang
Yotganga otma.
Avval bir olma
Totganga otma.

Shamol shoshirsa
Chopib ketmagin.
Kelar eshikni
Yopib ketmagin.



AYTING

Oyning orzusini osmon bilgaydir,
Quyosh ko'zgusini Tangri tutgaydir,
Ayting, dilingizdan nelar o'tgaydir,
Siz ham men haqimda o'ylaganmisiz?

Har on, har soatda sizni o'ylayman,
Azobda, rohatda sizni o'ylayman,
Hatto ibodatda sizni o'ylayman,
Siz ham men haqimda o'ylaganmisiz?

Qaldirg'och ayvonin sog'ingan kabi,
Gullar bog'bonini sog'ingan kabi,
Mezbon mehmonini sog'ingan kabi,
Siz ham men haqimda o'ylaganmisiz?

Jonimni chertsalar jarangida siz,
Yakkasiz Turon, Rum, Farangida siz,
Malikam siz muhabbat rangidasiz,
Siz ham men haqimda o'ylaganmisiz?

Demishlar, har gulning gulobi shirin,
Quyoshga ko'kdagi mohtobi shirin,
Mahmudga vaslingiz sharobi shirin,
Siz ham men haqimda o'ylaganmisiz?



MUHABBAT YASHAR

Sabrning sarg'aygan suvratlarida,
Hayoning xushdan xush iffatlarida,
Hijroning kuydirgan kulfatlarida
Muhabbat yashaydi, muhabbat yashar.

Sevilsang malika va yo sultonsan,
Sevolsang quyoshsan, oysan, osmonsan,
Majnunsan, Laylisan, oshiqi jonsan,
Muhabbat yashaydi, muhabbat yashar.

Qizg'ingin, qizg'onsin — rashkni rad etma,
Dil to'lsa ko'z to'lar, ashkni rad etma,
Unutsang unutar, ishqni rad etma,
Muhabbat yashaydi, muhabbat yashar.

Kuzning kaftlarida bahor sharbati,
Kaftlarga sig'maydi ishqning davlati,
Oshiqlar dunyoning bitmas ziynati,
Muhabbat yashaydi, muhabbat yashar.

Sen borsan, men borman, sevishganlar bor,
Sevgan bandasidan Alloh umidvor,
Oshiqqa dunyomas, tilagin diydor,
Muhabbat yashaydi, muhabbat yashar.



YAXSHIYAM SIZ BORSIZ

Jonimni chimchilab qo'yaman goh-goh,
Sog'inch sahrosida sarson yuraman.
Termulib turmoqlik bo'lsa ham gunoh,
Yaxshiyam siz borsiz, ko'rib turaman.

Muhabbat merosdir Odam Atodan,
Bunchalar uzoqsiz mendek gadodan,
Hatto tushlarimda so'rab Xudodan,
Yaxshiyam siz borsiz, ko'rib turaman.

Sizga olib borar yo'llar ko'p uzun,
Men sizni ko'rmagan kunlar ko'p uzun,
Oshiqlar meningdek bir bo'zlab ko'rsin,
Yaxshiyam siz borsiz, ko'rib turaman.

Siz borsiz dunyoda sog'inch yashaydi,
Siz borsiz bu dunyo gulga o'xshaydi,
Men sizni ko'rmasam jonim qaqshaydi,
Yaxshiyam siz borsiz, ko'rib turaman.

Boshdagi quyoshim, mohim o'zingiz,
Og'riqlari shirin ohim o'zingiz,
Balqigan baxtimdir bosgan izingiz,
Yaxshiyam siz borsiz, ko'rib turaman.



JILMAYSA JAMOLINGIZ

Chertib aytsak, chinningizning jilosi to'kilmasmi,
Bir silasak barmog'ingiz xinosi to'kilmasmi,
Qarab qo'ysak, ko'zingizning ibosi o'kinmasmi,
Kuydirsangiz ko'nglimiz bu dunyoga kul sochar,
Jilmaysa jamolingiz jon olguvchi gul ochar.

Dilbarim, dilimizning zorini etgim keldi,
Dilbarim, dilingizning torini chertgim keldi,
Jismimda asragan gul, jonimni tutgim keldi,
Ay gulim, guldan o'zga bulbul kimga dil ochar,
Yuzingiz yog'dulari yondiriblar nur sochar.

Sog'inch so'zi sochlarga erta yog'gan qormikin,
Oshiqqa atalgani azaldan ozormikin,
Ishq so'zin ishratiga qul bo'lmagan bormikin,
Qulimsan deb gar Alloh boshing uzra qo'l ochar,
Mardlar karvonboshidir, bir millatga yo'l ochar.

Ko'rsak ko'klamdek ko'klab, bog'-bo'stonga sig'madik,
Yer nadur, entikkanda tanda jonga sig'madik,
She'r nadur, g'azal nadur, yuz dostonga sig'madik,
O'ylamang, oh, o'zgalar boshingizdan dur sochar,
Malikam, Mahmud so'zi marvariddek nur sochar.



MENI TOSHLAR TINGLASHADI...

Meni toshlar tinglashadi, dili borgan o'xshaydi,
Yellar sochim silashadi, qo'li borgan o'xshaydi,
Ayo do'stlar, maysalarning tili borgan o'xshaydi,
Men dilimni xushlab turgum, irmoqlar kuylashganda,
Men tilimni tishlab turgum, yaproqlar so'ylashganda.

Tikanimni tirnamang deb yantoq yig'lab o'sarmish,
Ildizlarning tabassumi kurtagida ko'karmish,
Bulbul bo'lsang, bedor bo'l poyingga gul cho'karmish,
Yuragimni ushlab turgum, yulduzlar bo'zlashganda,
Men tilimni tishlab turgum, turnalar tillashganda.

Shabnam tongning sharobidir, tangri quyoshga tutgay,
Lab ochgan gul bolarini intizor qizdek kutgay,
Ikki oshiq topishganda bu dunyoni unutgay,
Men dilimni xushlab turgum, g'unchalar gullashganda,
Men tilimni tishlab turgum, oshiqlar sirlashganda.

Sukunatning xush sozini sarmast sabolar buzgay,
Aytishurlar qiz nozini aqli adolar buzgay,
Aytgim kelar, dil torini ishqda gadolar uzgay,
Men dilimni tushovlagum, dildorlar nozlashganda,
Men jismimdan jon ovlagum, gadolar yuzlashganda.

Meni toshlar tinglashadi, dili borgan o'xshaydi,
Yellar sochim silashadi, qo'li borgan o'xshaydi,
Ayo Mahmud, maysalarning tili borgan o'xshaydi,
Men dilimni xushlab turgum, maysalar tillashganda,
Bu dunyo ifordan xush jiydalar gullashganda.



DIL BERSANG

Qornini o'ylagan nafsini siylar,
Qadriga yig'lagan dorda rost so'ylar,
Imonli qomatin yaxshiga bo'ylar,
Dil bersang, bulbuldek so'ylatgin meni,
Til bersang, haq yo'lda so'ylatgin meni.

Yigitning olmosi or bo'lsin, egam,
So'zida salmog'i bor bo'lsin, egam,
Ham yana nazaring yor bo'lsin, egam,
Dil bersang, bulbuldek so'ylatgin meni,
Til bersang, haq yo'lda so'ylatgin meni.

Ildiz iltijosin yaproqlar aytar,
Ko'ngilning jafosin qaroqlar aytar,
Kim der, qumri qo'shig'in zog'lar aytar,
Dil bersang, bulbuldek so'ylatgin meni,
Til bersang, haq yo'lda so'ylatgin meni.

Gunohi gullagan qulman, qilma or,
Jismimda jon degan omonating bor,
O'zingga yetguncha, yo parvardigor,
Dil bersang, bulbuldek so'ylatgin meni,
Til bersang, haq yo'lda so'ylatgin meni.



DOSTOEVSKAR

1995- jil





OQIB KETGAN ARMONLAR

(Doston)

MUQADDIMA

*Yaxshilar, aytganim rivoyat emas,
 Ellar aro kelgan hikoyat emas.
 Alamim allalab qo'ysam tunlari,
 Qalamimning tongda tomar xunlari.
 Haqiqat chirog'i g'am bo'lib porlab,
 Soyga olib borar meni yetaklab.
 Boqsam suvda soymas, faryodlar oqar,
 Toshlar dodlariga o'zlarin yoqar.
 Suvlar har bir toshga ursalar boshin,
 Toshlar yulduz qilib sochar ko'z yoshin.
 Barimdan tutadi, suvlar so'zlaydi,
 Tovonimdan o'pib toshlar bo'zlaydi.
 Men ham elda bir oqinman, qaytayin,
 Eshitganim, ko'rganimni aytayin.*

O'-o'-o' birodarlar, shunday qilib, bir g'amgin qissa aytmoqqa jazm etdim. Avvalroq aytmoqchi edim-u, qo'lga qalam olsam dilim to'kildi, jo'shmadim. Yozdim, dilim o'kindi, yolg'on qo'shmadim. Zero, rostdan tonib, yolg'ondan qonib bo'lmas ekan.

„Kimning dardidan so'zlaydiansan, qay manzilni ko'zlaydiansan?“ dersiz ehtimol. O'z elimdan, yaxshilar, pichoqni o'zga urmasa baxshi bo'larmi, baxshilar!

Qarshimda bir yigit o'tiribdi. Lablari titraydi, yuragi yig'laydi. Yig'lamay bo'ladimi? Axir u bir kunda uyini oftobday yoritib, bag'rini cho'g'day kuydirib yurgan yoridan ayrilib qoldi. Nafaqat yoridan, toychoqdek irg'ishlab, o'ngiga o'tgan o'g'ilchasidan, shamolday pildirab bo'ynidan quehgan qizchasidan ayrilib qoldi. Qanday qilib?!

Vah, buni bilib bo'lsa edi... Ular oqqan suvga bu qo'llar to'r bo'lmasmi edi? Agar ular shu to'rdan ham o'tib ketsalar, bu ko'zlar ko'r bo'lmasmi edi?...

Qishning so'nggi oyi, o'sha mash'um qora kunda yomg'ir yog'ardi. Yo'q, yo'q, osmon yig'lardi. Go'yoyuz berajak fojidan xabardor edi? Dilxun kun edi, dilgir kun edi.

Gulbahor o'g'li Mirshavkatni yetaklab, qizi Madinani ko'tarib uydan chiqdi. Urishibmi, arazlabmi — bu yaratganga ayon. Uyda eri yo'q edi.

— Hoy, bolasi tushmagur, nabiralarimni ivitib, yomg'irda nima qilib yuribsan? Eringga aytsang-ku, minib yurgan mashinasida qo'yib ketadi-ya, o'jarliging qolmadi, qolmadi, bolam-a?!

— Ha, qizim, xafa ko'rinasan? Aytishib qoldinglarmi?.. Hechqisi yo'q. Turmushda nimalar bo'lmaydi, bolam... — Agar onasi tirik bo'lganda... Agar otasi tirik bo'lganda... Albatta, uni shunday qarshi olgan bo'lardi. Ular yo'q. Ular bu dunyoni erta tark etganlar.

Ko'zda yosh, dilda g'ash bilan yo'lni uzaytirib yurishni ep ko'rmagan ayol soyni kesib o'tib, qirg'oqning u betidagi qarindoshlarinikiga borishni xayol qildi. U bolalarining birini bag'riga bosib, birini yetaklab, shivalab turgan yomg'irday dili to'kilib, soy bo'yiga tushib bordi. Soyda suv ko'p edi. O'kingan, faryodi soy suvidek sharqirab turgan ayolda jahllustun keldi. Ortga qaytishni or bildi.

Avvallari sakrab o'tib yurgan toshlardan bolalarini navbat bilan olib o'tmoqchi bo'ldi. Qizchasini ko'tarib, bir toshdan o'tdi, ikkinchisidan, uchinchisidan... Qahri ko'zida uchqunlab turgan ona oyog'i tagidagi toshlar yomg'irda sirpanchiq bo'lib qolganini unutgandi. To'rtinchi toshga sakradi... Oyog'i toyib, yiqilmoqdan o'zini arang tutib qoldi-yu, lekin bolasi qo'lidan chiqib ketdi. Shiddat bilan oqib yotgan soy ham shuni kutib turgandek, qizchani qo'g'irchoqdek o'ynatib ola ketdi.

— Madina, bolam.

Ona o'zini suvga otdi. Vodarig'... Bu soyning, bu toshlarning ona-bolada ne qasdi bor ekankim, Gulbahorning boshidan tirqirab qon otila boshladi. Lekin u buni sezmasdi.

— Madina! Qizim!.. Mirshavkat!.. O'g'lim!.. Ona qichqirardi, lekin soyning shovqini uning faryodini yutib yuborardi. U qizini ko'zdan yo'qotdi. Jon holatda o'g'liga qarab intildi. Bir xarsangga yopishdi. Lekin suvning shiddati zo'r keldi.

— Mirshavkat, o'g'lim, ehtiyot bo'!..

Bir zumda singlisini yo'qotib qo'ygan, oqib ketayotgan onasini ko'rgan to'rt yashar bola dod solib, soy qirg'og'i bo'ylab chopa boshladi.

— Mirshavkat, o'g'lim!.. Madina, qizim!..

Ona hushidan ayrilib borayotgan edi. U tomonga qo'l cho'zib oqib ketayotgan onasiga bola yetolmayotgan edi. Mirshavkatning murg'ak tasavvurida suvga tushsa, uni chorlayotgan onasiga yetib oladigandek tuyuldi. Bolakay o'zini suvga otdi...

Evo!.. Ming yillar mobaynida ne-ne ko'chkilar, to'fonlar, ne-ne jonlar oqqan ko'hna to'polon soyi bir zumda yuz berguvchi bunday fojiani ko'rmagan edi.

Baxtiqaro onani, norasida go'daklarni toshdan-toshga urib, oqizib borayotgan soy go'yo o'zi ham dodlab borayotgan edi. Yo rab, suv ham gapirarmikan? Ha, yaxshilar, uning faryodiga quloq tuting-a!.. U bag'rida oqib borayotgan onadan o'pkalanayotgandi:

Yerga bossang tovoning,
Kuydirguvchi cho'g'midi?
Manzilingga borsang, ayt,
O'zga yo'llar yo'qmidi?

Suvni bir kaltak bilan
To'rt taraf bo'lib bo'lmas.
Tiriklik o'zi baxt-ku,
Shunchaki o'lib bo'lmas.

Zamin uzra oqaman,
Borliqqa hayot bo'lib.
Nechun farzand ko'rganding,
Ketsang shunchaki o'lib.

Madinangni oqizib,
O'zim yetolmay qoldim.
Qo'llarim yo'q-da, ona,
Axir tutolmay qoldim.

Darding kimga aytganding,
Qay jafodiling tildi?
Ko'zlaringdan oqqan qon,
Yuzimni qaro qildi.

Sen ketding-ku bag'rimda
Fig'on, faryoding qoldi.
Toshlarga boshin urib,
Butun avloding qoldi.

Madinang oqib ketdi,
Ortidan ketding o'zing.
Mirshavkat qirg'oqdaydi,
Ko'rib turgandi ko'zing.

O'g'lingni chorlab nechun,
Soylarga solding sado?
Bu dunyoda bormikan,
Ayt, sendek baxtiqaro?

Jism-u joning tosh ezib,
Oqib ketayotibsan.
Ohing bilan meni ham,
Yoqib ketayotibsan.

Yerga bossang tovoning
Kuydirguvchi cho'g'midi?
Manzilingga borsang, ayt,
O'zga yo'llar yo'qmidi?

O', birodarlar, endi toshlar aytarini ham bir eshiting.
Ularning ohi ham dilni tiladi, toshlar ham so'zlay biladi:

Suvlar kelar bu tog'ning
Boshida abad qormish.
Norasida go'daklar
Dodi bizni tars yormish.

Suv oqizdi, biz ezdik,
Murg'ak edi jussalar.
Endi bizni ezadi,
Bizdan og'ir g'ussalar.

O'sma ketar, qosh qolar,
Bizlar shu soyning toshi.
Oqib ketguvchi suvlar,
Asli ko'zimiz yoshi.

O'g'ling ko'zingda yulduz,
Qizginang oymasmidi?
Yomg'ir yig'lab turmasa,
Oyog'ing toymasmidi?

Baxtiqaro Gulbahor,
Baxtiqaro go'daklar.
Endi achinib yig'lar,
Qaydadir tosh yuraklar.

Qahri qattiq, qahri tosh,
Qiyosni bizdan olar.
Ayting, odamzod qachon
O'ziga nazar solar?

Boshi toshga tegmayin
 Qilmaydi-da e'tibor.
 Yo'lda yotgan bir toshga
 Qoqilsa, tosh gunohkor.

* * *

Toshlar aro bir ona,
 Ikki go'dak yotmishdir.
 Qarindoshlar qon qaqshab,
 Bir-biriga tosh otmishdir.

Suvlar shovqini aro
 Qayg'uning sadosi bor.
 „Bolam, qaydasan?“ degan,
 Bir ona nidosi bor.

Bir ota bo'zlab kelar,
 Shu soyda dunyosi bor.
 Umrini qaro qilgan,
 Ko'zlarin qarosi bor.

Gulbahor, ko'ksingdagi,
 Ozormidi, o'qmidi?
 Farzanding olib o'tsang,
 O'zga yo'llar yo'qmidi?

Bir-birini tutolmay, ne bo'lganini anglab yetolmay,
 goh suv yuzida qalqib, goh suv ostida oqib sho'rliklar
 uvol ketdilar.

Mirsolih uyiga kelsa xotini, bolalari yo'q. Onasidan
 so'ragandi, hech nima demay chiqib ketganligini aytdi.
 Odatdagidek, „Onasining uyiga ketgandir“ degan xayol
 bilan beparvo yuraverdi.

Lekin ertasiga ham, indiniga ham ulardan darak bo'lmadi.
 Ota axtarib borgani yo'q. Izlab borganda bilgani shu bo'ldiki,
 ona-bolalar u yerga bormagan ekan. Butun qarindosh-
 urug' oyoqqa qalqdi.

Axtardilar charx urib nolon,
Axtardilar ko'zda yosh bilan.
Ko'rdim demas hech bitta inson,
Axtardilar egik bosh bilan.

Qizim, desa kuydi qarog'i,
O'g'lim, desa o'rtandi dili.
Yori qani, uyin chirog'i,
Peshonaga mushtladi qo'li.

G'amlar ota ko'ksini tildi,
Tirnog'idan tirqiradi qon.
Opalari sochini yuldi,
Singlisidan topolmay nishon.

Kunlar o'tdi motamga botib,
Tonglar otdi anduhdan so'zlab.
Qalam qoldi qog'ozda qotib,
Bu faryodni yozolmay bo'zlab.

Ha, azizlar, bu faryodni bitmoq mushkul. Hamonki yozishga jur'at qilibsiz, unda joningdan yo'nilgan qalamni bo'g'zigacha qoningga to'lib turgan yuraging — siyohdonga botirmoq lozim. Shu bois oradan yil o'tib ketsa hamki, qo'linga qalam olishga botinolmadim. Dostonning davomini yozolmadim. Lekin tushlarimda o'zlarining murg'ak tasavvurlarida bu bevafo dunyoni, uning ba'zi toshmehar odamlarini la'natlab oqib ketayotgan farishtadek pok go'daklar menga qo'lchalarini cho'zaverishadi. Ular: „Bizni qutqaring, bizlar kabilarni qutqaring! Kiyim-kechakning, aysh-u ishratning, mol-u dunyoning quli bo'lib qolayotgan bag'ritosh ota-onalarning malomatlaridan, qahr-u g'azabidan qutqaring!..“ deya hayqirayotgandek tuyulaveradi.

Yana qo'lga qalam olaman. Endi yozmaslik gunoh. Bu faryodni eshitib, bu fojining mohiyatini anglab, toki

arzimas turmush tashvishlari tufayli bir nafasda g'azab ostonasiga borib qoluvchi ayrim kimsalar, shu ostonadan bir qadam narida ajal turganini, bir marta berilgan umrlari uvol ketishini, ortidan sha'nlariga abadulabad malomat va ta'na toshlari otilajagini, qolaversa, o'zlarini halok qilish bilan dunyoning azob-uqubatlaridan qutulib bo'lmasligini, aksincha, jigargo'shalarini bir umr armon va faryodlar ummoniga tashlab ketishlarini o'ylab ko'rsalar zora...

Keling, yaxshilar, endi dostonning davomini eshiting.

Dodi toshlarni yondirib, ko'z yoshi suvlarga qorishib ikki farzandi o'rtasida oqib ketgan Gulbahorning holi ne kechdi?

Har bir otguvchi tongning bandalariga hadya qilguvchi quvonch va tashvishlari bor. Kimga to'y, kimga aza deganlaridek, tarozining bir pallasida shodlik, ikkinchisida qayg'u turishi rostdir. Nazdimda quyosh ham har tong falakda baxt va baxtiyorlik ramzi bo'lib yuz ochadi, kulgu sochadi. Lekin kun bo'yi odamzod boshiga tushgan qayg'u va anduhlardan qon yutib, bir barkash cho'g' timsolida shomda kuyib ufqqa bosh qo'yadi.

Oradan bir kun o'tdi. Goho oyog'i ostidagi narsani ko'rmay, unga qoqilib yurguvchi odamlar bu fojidan bexabar qolishdi. Tongning tumori falakka sochib yuborgan kokilini tog'larga taratib yuz ochgan quyosh soy bo'yida qoniga qorishib yotgan, kiyimlarini toshlar burdalab tashlagan, suvda shishib ketgan ayolni ko'rdi-yu, bir nafas tog'lar tepasida qotib qoldi. Quyosh nurlari ko'z yoshga aylanib, xira tortib, goh xijolatdan bulutlar ortiga berkinib, goh ma'yus yuz ochib choshgohda Gulbahor qoshiga yetib keldi-da, o't sochib turaverdi. Aslida u ko'kdan hayqiradi:

— Hoy, g'ofil bandalar! Ko'rmaysizmi, ko'rgingiz kelmaydimi? Axir ayol-ku! Ona-ku! Ahvoliga bir qarang, toshlar yig'layapti. U ham kechagina siz kabi baxtiyor edi.

Mehrsizlikning, jahlning qurboni bo'lgan bu ayolga rahmingiz kelsin. Toshzurak bo'lmang, uni toshlar orasidan oling!

Quyoshning ohi odamlarga yetdi, uni ko'rib qolishdi. Lekin yoniga yaqinroq borishga jur'at qilisholmadi. Odatda, tiriklar doimo mayitdan qo'rqishadi. Bir-biriga xabar berib, tegishli odamlar kelishib, ayolni olib ketguncha kun qorayib qoldi. Kun o'sha kuni erta qoraydi. Uyatdan qoraydi, faryoddan qoraydi...

Biz o'lmaymiz asli, yoronlar,
Mehrsizlik o'ldirar bizni.
O'ldiradi tuhmat, yolg'onlar,
Hasad avrar har birimizni.

Ota degan so'z lazzatidan,
Goho shirin aysh-u ishratlar.
Ayol ayro o'z iffatidan,
Ko'zimizdan tomar minnatlar.

Goh gunohdan yoqamizdir chok,
Goho g'iybat mayidan mastmiz.
Tazarrular aylolmagay pok,
Qiyomatda maysadan pastmiz.

Tog'lar titrar kulfatimizdan,
Azada ham oshga to'yamaymiz.
Yer yorilar uyatimizdan,
Bizlar esa qalqib qo'yamaymiz.

Biz o'lmaymiz, toshbag'irlar bor,
Paymonamiz erta to'lmishdir.
Yo'qotamiz, so'ng yig'laymiz zor,
Gulbahorlar shunday o'lmishdir.

Kelganlar ayolni ko'rib nadomat qilishdi. Tegishli joylar voqeadan ogohlantirildi. Bir hafta o'tdi hamki, jasadning egasi topilmadi. Shu orada uning suratini ayoli, bolalarini qidirib yurgan Mirsolihga ham ko'rsatishdi.

— Yo'q-yo'q, bu mening ayolim emas, — dedi u. Chunki ayol shishib ketgan, uning kimligini aniqlash qiyin edi. — Axir bu qanday qilib mening ayolim bo'lsin? Unda o'g'lim qani, qizim qani?! Bu ayol rasmidan musulmon ayoliga o'xshamaydi...

Bu savolga har kim turlicha javob berdi. Yuvib, tarab musulmon mozoriga ko'madigan mard topilmadi. „Tog'ga o'ynagani, sayrga chiqqanlardan bo'lsa kerak“, degan fikr hammaga ma'qul keldi. Shu kuni momo Yer nafratdan titradi, osmon azobdan ingradi.

Tobut bo'lgan har yog'och yig'lar,
Nega yig'lamaysiz, odamlar?
Qurib qolgan qayrag'och yig'lar,
Nega yig'lamaysiz, odamlar?

Ne qilyapsiz, ey ahli nodon,
Begonamas, ayol — musulmon,
Yer yig'laydi, yig'laydi osmon,
Nega yig'lamaysiz, odamlar?!

Soyda ikki bolasi qolgan,
Ikki ko'zin qorasi qolgan,
Har bir toshda nolasi qolgan,
Nega yig'lamaysiz, odamlar?!

Odam Ato ohi yer yorar,
Momo Havo ko'kda to'lg'onar,
Farzandidan, ayting, kim tonar,
Nega yig'lamaysiz, odamlar?!

Bunday o'lmoq o'limdan yomon,
 O'lsang, topilmasa qabriston,
 Diyonat qaydadir, qaydadir iymon,
 Nega yig'lamaysiz, odamlar?!

Gulbahorni shunday ko'mishdi. Lekin qarindosh-urug'larining, erining bormagan joyi, axtarmagan yeri qolmadi. Ularning ohi osmonga yetib, dodi toshni yorsa hamki, ojiz edilar.

Gulbahor ikki bolasi bilan yo'qolgan kunning o'n to'rtinchisi edi. Uning jasadi topilgan joydan ikki-uch chaqirim quyida soyda mashinalarga shag'al yuklayotgan ekskavatorchi suv bo'yida qumga beligacha ko'milib, yuztuban yotgan yosh bolani ko'rib qoldi. U onasining ortidan o'zini suvga otgan Mirshavkat edi.

Faryod bosdi butun qishloqni,
 Yig'ladilar qushlar, daraxtlar.
 Kim ko'tarar bunday qiynoqni,
 Yig'ladilar darddan karaxtlar.

Ota o'g'lin bosdi bag'riga,
 Nabirasin quchdi buvisi.
 So'ng chopdilar soyning qa'riga,
 Qani ona, qani singlisi?

Butun qishloq qalqdi oyoqqa,
 Yoyildilar soyga, qirg'oqqa.
 Suv kechdilar ahli iymonlar,
 Pisand qilmay sovuq, qiynoqqa.

Izladilar jonlari halak,
 Ohlaridan o'rtanar falak.
 Topishdilar ikki tosh aro
 Yotar edi Madina — malak.

Tishlab olib chuchuk tilini,
Mushtga tugib ikki qo'lini,
Oh, o'n to'rt kun kutdi Madina,
Otasining kelar yo'lini.

Darmoni yo'q dodlar solgani,
Madori yo'q qo'lga olgani,
Ota behush, aka yo'l kutar...
Qaro yerga birga borgani.

Ming afsus va nadomat bilan qarindosh-urug'lar, qishloq ahli go'daklarni yerga qo'yishdi. Shundan keyin „Soy bo'yidan topilgan ayol jasadi Gulbahor emasmikan?“ degan xayol har dildan o'ta boshladi. Gumonlar suronga aylandi. Qabristonni ochishga qaror qilishdi. Ha, baxtiqaro ayol Gulbahor bo'lib chiqdi.

Soylar ichra sochlaring sochib,
Nima topding o'zingdan qochib,
Qon yig'lashdi qabringni ochib,
Bu qanday o'limdir, Gulbahor?

Hamma sig'gan dunyo senga tor,
Aytmay ketding, qanday darding bor,
Jasading ham ayladilar xor,
Bu qanday o'limdir, Gulbahor?

O'g'ling endi o'ngingda yotar,
Qizing so'lib so'lingda yotar,
Qabristonda yo'lingni kutar,
Bu qanday o'limdir, Gulbahor?

O'g'ling minar toychog'i yig'lar,
Qizingning qo'g'irchog'i yig'lar,
Otasining so'rog'i yig'lar,
Bu qanday o'limdir, Gulbahor?

Ostonangga armon ko'mildi,
Bir uydan uch inson ko'mildi,
Ne deb o'lding, aytgin, kim bildi,
Bu qanday o'limdir, Gulbahor?

Gulbahorning jasadini akasi, opalari erining uyiga berishmadi. Singlisining o'limidan keyin ham uning boshiga tushgan xor-zorlik ularni karaxt qilib qo'ygandi. Gulbahorni uyiga olib borishgandagi faryodning bayonini to'liq bitilsa, qog'oz yonib ketishi aniq. Faqat „Yo parvardigor, hech bandangning boshiga bunday qaro kunlarni solmagaysan, buningdek azobdan, xorlikdan o'zing saqlagaysan!“ deya Yaratganga iltijo qilishdan o'zgasiga ojizmiz.

O'sha kuni Gulbahorning to'rt opasi aytib-aytib bo'zlaganlarini eshitgan odamlarning hammasi ko'ziga yosh olishdi. Buni biz baholi qudrat oqqa ko'chirdik. Zero, xalqda shunday ibora bor, kishi baxtsiz odamlarning holiga boqmay, baxtiyorligining qadriga yetmaydi.

Birinchi opa:

Sochlari soyda qolgan,
Gulbahorim, ne qilding?
Qoshlari yoyda qolgan,
Gulbahorim, ne qilding?

Boshdagi bol-u parim,
Topilmas zeb-u zarim,
Uvol ketgan jigarim,
Gulbahorim, ne qilding?

Qizin tutolmay qolgan,
O'g'lini chorlab olgan,
Soylarga suron solgan,
Gulbahorim, ne qilding?

Seni kimlar o'ldirdi,
Gulim, erta so'ldirdi,
Qaro yerning bag'rini,
Kim sen bilan to'ldirdi?

Dod dastingdan, dod, o'lim,
Tanglayda qotdi tilim,
Dog'da qoldirgan singlim,
Gulbahorim, ne qilding?

Ikkinchi opa:

Peshonam sho'r ekan-o,
Ko'zimda to'r ekan-o,
Bir ko'nglingni so'rmagan,
Opang ham ko'r ekan-o...

Mirshavkat yodgor edi,
Madinang mador edi,
Uvol ketdi ikkisi,
Bir-birdan dildor edi.

Kelmay ota yoniga,
Kelmay ona yoniga,
Ma'yus mozor o'rtangan,
Ruhining fig'oniga.

Bu o'lim qanday o'lim,
Yursam yonadi yo'lim.
Kimning yoqasin tutsin,
Qaqshagan ikki qo'lim?

Uchinchi opa:

Otangdek asramadik,
Onangdek asramadik,
Qiyomatda ne deymiz,
Kuningga yaramadik?

Qoshing qayrilma yoy-da,
Osmon uzoq, oy qayda?
Voy jigarim, jigarim,
Joning qoldimi soyda?

Dor bizning boshimizda,
Or bizning boshimizda,
Afsus-u armon oqar,
Ko'zdagi yoshimizda.

To'rtinchi opa:

Bolishimga g'am botar,
Tongimda motam otar,
Qay ona mozorida,
Qiz, o'g'lin olib yotar?

Dardimga yetmas hech kim,
Ko'zimdanda qonlar ichgum,
Ko'ksimga uray desam,
Bir pichoq tutmas hech kim.

„Kenjam qaylarga ketdi?“ —
Tushimda izlar otam,
„Boshingga kimlar yetdi?!“ —
Tushimda bo'zlar onam.

Otang uchun bo'zlayin,
Onang uchun bo'zlayin,
Voy jigarim, jigarim,
Seni qaydan izlayin?

Bu kabi dil o'rtar faryodlar bilan Gulbahorni qabristonga olib ketishdi. Gulbahor o'n to'rt kunlik ayriliqdan keyin shirin-shakar o'g'il-qizining sovuq jasadlarini o'zining sovuq bag'riga oldi. Suvda tutolmagan bolalarini qaro yer bag'rida tutdi va diydor qiyomatga qoldi. O'sha qaro kunda mudhish voqeaning guvohi bo'lganlarning

hammasi yig'lashdi. Bu dunyo bevafoolidan, shu bevafo dunyoda insonning goh bir jonzotcha qadri yo'qligidan yig'lashdi. Odamlar Gulbahor va uning norasida farzandlarining bebaxtligidan ozor chekdilar. Chunki bu fojia tufayli ular o'zlarini topishgandi. Qabristonda bir nafas egilgan bosh, gunohkor qalb, titragan vujud bilan Alloh qarshisida yolg'iz qolib, o'zlarining savobdan ko'ra ko'proq gunoh ostonasida ekanliklarini anglab yetgandilar. Ular bu o'tkinchi dunyoda toshbag'ir bo'lib qolganlaridan, otabolani, aka-ukani tanimay, faqat o'zlarini o'ylovchi xudbinga aylanib qolganlaridan yig'lardilar.

Kech ochilgan shu ko'zlar uchun,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!
Kech bukilgan shu tizlar uchun,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!

Yuzin chayib kurtaklar yig'lar,
Shovullashib teraklar yig'lar,
Toshbag'ir, toshyuraklar yig'lar,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!

Ma'yus boqqan maysaga qarang,
O'zin tutib turibdi arang,
Madinani maysam deb yig'lang,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!

O'g'lonini o'ldirguvchi el,
Gulin erta so'ldirguvchi el,
Er bo'lmasmi, bu kun qaro yer,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!

Toshlar ezgan ayol tanasi,
Axir buning kimga ta'nasi?
Har bir ona elning onasi,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!

Qabristonni quchoqlab yig'lang,
Qalbingizni taroqlab yig'lang,
Bir pok iymon so'roqlab yig'lang,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!

Bir nafasga ko'zingiz yuming,
Nafsingizni qabrga ko'ming,
Haqni taning, xayolga cho'ming,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!

Oftob misol beminnat yashab,
Yo hiloldek nurdan par to'shab,
O'tkazgin deng, halol rizq oshab,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!

Biz ham kelar shu makon uchun,
Bevaqt o'lgan har inson uchun,
Uyg'ongan shu pok vijdon uchun,
Mayli yig'lang, yig'lang, odamlar!

Gulbahorning qabriga tuproq tortildi. Imomning hazin tilovati odamlarning boshlarini yanada xam qilib qo'ydi. Yigitlar tobutni to'ntarib, joyiga eltib qo'yishdi. Qabr og'ziga tergan guvalaklardan ortib qolganini ham olib borib qo'ydilar...

Odamlar o'zlarining ko'ngil yoshlariga g'arq bo'lib, qabristondan oqib chiqib ketdilar. Mirsolih esa shu yosh daryosiga cho'kib qolgandi. Baxtsiz ota qalbini armon kemirardi. Aslida uning armonlari ham soyda oqib ketgandi. Uning bu dunyosi soyda oqib ketgandi. U ayoli, farzandlari qabriga cho'k tushib, yuz bergan mudhish fojia uchun taqdirini la'natlardi.

Bo'zlasam, bo'zim yonar,
Ko'z yoshdan ko'zim yonar,
Uch qabr orasida,
Dodimdan to'zim yonar.

Orim kimga ham kerak,
Zorim kimga ham kerak.
Boshimga ne qaro kun
Solding, ey zolim falak?!

Mirshavkatim — polvonim,
Madinam — mehribonim,
Qanday o'lim topdingiz,
Kuydi ikki jahonim.

Qo'limdan berdim sizni,
Yo'limdan berdim sizni.
Qahri qarog'da tig'im,
Tilimdan berdim sizni.

Gulbahorim, nodonim,
Orzularim, yolg'onim,
Qay shaytonga qul bo'lding,
Kul qilding xonumonim.

Ko'zim sirib yosh qoldi,
Ko'ksim yorib tosh qoldi,
Nasibamga toabad,
Zahar bo'lgan osh qoldi.

Yaxshilar, bu faryod, bu g'amnok qissa aslida poyoniga yetdi. Lekin nima uchundir unga nuqta qo'ya olmadim. Sababi, ko'z o'ngimdan Gulbahor ketmadi. U xayolimda goh soy bo'yida odamlar yoniga borishga jur'at eta olmayotgan, toshlar ezib tashlagan holda, goh o'zgalar mozorida yashikka solingan, xorlangan yo'sinda, goh qabristonda ikki bolasini uyg'ota olmayotgan ona qiyofasida gavdalanaveradi. Uning bezovta ruhi meni tinch qo'ymasdi.

— Nechun o'zingga bunday o'limni ravo ko'rding, Gulbahor? Norasida go'daklarning uvoli kimni tutadi, Gulbahor?

— Men yanglishdim! Lekin siz yozing, o'zgalar mendek xorlanmasin. Tiriklikning qadriga yetmaslik bu baxtsizlikning ibtidosidir. Inson uchun o'limdan oson ish yo'qligini men juda kech angladim...

Mirsolih akamlarni qabristondan olib keting. Men u kishini bir umr malomat va armon botqog'iga tashlab qo'ydim. Siz yozing, hech kim mendek yanglishmasin!

Beixtiyor yodimga muqaddas Hadislarning birida aytilgan ushbu ibratli hikmat keldi: „Ogoh bo'lingki, umringizning qolgan qismi yashab turgan kuningizning qolgan qismi kabidir“.

Yana xayolan Mirsolih qoshiga qaytaman: Ayoli, uvol ketgan go'daklari qabriga cho'k tushib, bu dunyoni unutgan, bebaxt otani o'rnidan turg'izaman. Kech ochilgan ko'zlarning yoshlari qurimagan. Bu yoshlar hali-beri qurimaydi ham. Kechagina yulduz kulgan bolishiga endi mixlar qadalgan, kechagina o'g'ilchasining yumshoq qo'llari quchgan bo'yniga endi malomatning bir shoda tikani osilgan.

— Xudoyim, — deyman, — hech bandangning boshiga bu baxtiqaro ota kabi o'zini oqlolmaslik azobini solmagaysan?

Qabriston... Bu dargohning sukunatini buzishga hatto qushlar ham iymanishadi. Bunda ochilgan gullar ham gul bo'lib yaralganidan afsuslanayotgandek tuyuladi kishiga. Chunki ular ko'z yoshlaridan suv ichib ko'karishadi. Mirshavkat, Madina kabi ochilmay xazon bo'lgan norasidalarining qonlaridan rang oladi. Gulbahor kabilarning armoni bo'lib ochiladi, bu gullar!

Qabriston qayg'ularga eshik, armon va musibatlarga beshik bo'lgan muqaddas joy. O'ylab qolaman. Rostdan ham qabriston muqaddasmi? Axir kuni kecha otasi yoqasini tutishga or qilmagan badbaxt ham, umr bo'yi onasiga ro'shnolik ko'rsatmay, ayoli, bolalari ko'z yoshini ichkilikka

qo'shib ichib, nafsining qurboni bo'lgan do'zaxi ham, mol-dunyoning quliga aylangan, tanasini pullab xalqning tavqi la'natiga duchor bo'lib, erta xazon bo'lganlar ham, ota meros hovli-joyini talashib, bir-birini qurbon qilganlar ham, arzimas turmush mojarolariga asabi chidamay yengiltaklik qilgan, yoshi ulug'larning beminnat koyishi, tejab-tergashiga dosh bermay o'ziga o't qo'ygan, bo'yniga arqon solgan, og'u ichgan kimsalar ham shu yerda yotibdi-ku!

Qabriston muqaddas! Bu sukunat og'ushida yotganlarning aksariyati halol mehnatni, poklikni, mehr-u oqibatni, el qadrini tumordek e'zozlab kelganlar. Izlariga duolar to'kilgan. Xudo bergan umrini shukronalik bilan o'tkazganlardir. Bu dunyoni aslida ana shunday insonlar tutib turibdi.

Odam Ato, Bobojonim,
Momo Havo, Momojonim,
Qodir egam, mehribonim,
Yoshin yashab o'tsin odam!

Dunyo qolar, bizdan qolar,
Ham bahor-u kuzdan qolar,
Joyimiz bir bizning borar,
Yoshin yashab o'tsin odam!

Mehr dilda bir mohitob,
Iymon esa bo'lsin oftob,
Qadamida unib savob,
Yoshin yashab o'tsin odam!

Madinadek gul so'lmasin,
Mirshavkatlar hech o'lmasin,
Paymona erta to'lmasin,
Yoshin yashab o'tsin odam!

Tong otayapti. Kelayotgan bahordan elchi bo'lib esayotgan iliq sabolar shoxlarda mo'ralab, iymanib turgan kurtaklarning yuzlarini mayin silab qo'yishadi. Jilmaygan kurtaklarni ko'rgan qushlar shoxdan shoxga qo'nib, hayotga, tiriklikka, bahorga olqish aytishadi. Quyosh ham olamga yorug' kun va'da qilib, tog'lar ortidan osmonga bir quloch nur sochib yuboradi...

Men esa qo'lda qalam, to'kilgan dil bilan g'amgin qissamning og'ushida o'tiribman. Aslida... Aslida bu voqeadan so'ng yillar o'tdi. Lekin ko'hna soy qirg'og'iga borishga yuragim zirqiraydi. Sababi quloqlarimga hamon Gulbahorning faryodi, bolalarning nolasi eshitilaveradi. 1995-yilning 24-fevral kuni — muborak ramazon oyining qutlug' juma tongida bu faryod bayoniga nuqta qo'yar ekanman, so'nggi iltijoim barcha olamning sarvari Yaratgan egamning o'ziga bo'ldi.

XOTIMA

Tun o'tdi qissamning fig'oni bilan,
Yo rabbim, bir tiniq tonglar tilayman.
Qish o'tdi qahri, qahratoni bilan,
Yo rabbim, bahoriy ranglar tilayman.

Ko'zlarda mehrning munavvar nuri
Tandirning taftidek qo'lni yondirsin,
Baxt inson zotining bebaho duri,
Sururin suroni dilni yondirsin.

Saodat sultoni o'zingsan, egam,
Jismimdagi jonning farmoni senda,
Beshiklar bo'zlasa, o'zimdan shubham,
Ul rost dunyolarning yolg'oni menda.

Va lekin karaming kengdir Allohim,
Nurli nigohingda jannatlar sasi,
Senga intilganning bo'lsin, ilohim,
„La ilaha illalloh“ so'nggi nafasi.

Tun o'tdi bir mungli navolar bilan,
Tong otsin bir nurli duolar bilan,
Kim ketdi xazondek vidolar bilan,
Qolganga umr ber vafolar bilan.



OTAMNING O'KINCHI

(Doston)

Bir mo'min otaxon Xizr alayhissalomga ro'baro' kelib qolibdilar. Shunda otaxon benihoya shodlanib:

— Yaratganga shukr, meni Sizga yo'liqtirdi, haqimga duo qiling, — debdilar. Xizr alayhissalom duo qilibdilar.

— Endi yana bir iltimosim bor. Farzandlarim haqiga ham duo qilsangiz.

Shunda Xizr alayhissalom:

— Yo'q, otaxon, farzandlaringiz haqiga o'zingiz duo qiling, men omin deb turayin. Zero, ota-onaning duosi Xizrning duosidan ham ustun turadi.

Rivoyat.

Muqaddima

Bola edim, bir baxtli bola edim,
Quvonch quchgan qirdagi lola edim.

Shalolaning shabbodasi edim men,
Ota-onam xush bodasi edim men.

Quloch yozsam osmonni quchar edim,
Chanqaganda shodlikni ichar edim.

Go'zallikdan entikardi bu olam,
Baxtli edi dunyodagi bor odam.

Kapalakning qanotlarin silardim,
Qaldirg'ochning ko'zlarida kulardim.

Yurmas edim men qo'ynimga tosh solib,
Tillashardim chumolini tutvolib.

Boshim, tegram, ko'nnglimda quyosh edi,
Shabnam ichgan maysalar dildosh edi.

Orzu otlig' oq otlarim bor edi,
Qayg'u menga, armon menga yot edi.

Nogoh menga yuzin ochdi bir tuyg'u,
Nomi uning xiyonatmi yo qayg'u.

Tuyg'u emas, yuz ochgan odam edi,
Bolalikda birinchi nolam edi.

Bu odam boy, mullo, na oqin edi.
Nazdimda oddiygina sotqin edi.

— Namuncha qovog'ingizdan qor yog'masa? — dedilar uyg'a xomush kirib kelgan otamni qarshi olgan onam.

— Onasi, men o'z kasb-korimni o'rgatib, yana yaxshi bir shogirdni kamolga yetkazdim deb xushnud yurgandim. Aslida bag'rimda ilon asragan ekanman.

— Nega bunday deysiz? Xudoga shukr qiling, bir emas bir nechta shogirdlaringiz bor. Hammasi ko'rkam, chiroyli imoratlar qurib, el-u yurtning koriga yarab turibdi.

— To'g'ri-kuya, lekin bir kun kelib ulardan biri keksayganimda menga xiyonat qiladi, sotqinlik qiladi, deb o'ylamagandim...

— Sotqinlik degani nimasi? Axir u sizni qanday sotishi mumkin? Qolaversa, sizni nimangizni sotadi, kimga sotadi?

— E onasi, gap shunda-da. Menda-ku sotadigan hech vaqo yo'q. Lekin qornining quli bo'lgan odamdan qo'rqish kerak. Bundaylar nafi yo'lida nafaqat ustozini, Vatanini sotishdan ham qaytmaydilar!... Endi senga bor gapni aytsam... Odatdagidek, bir odamning imoratini qurib berayotgan edim. Kunbay haq to'layotgan edi. Bugun tongda borsam:

— Usta, endi sizni ishlatolmaymiz, — dedi uyning erkagi.

— Tinchlikmi, tushunmadim? — deya hayratimni yashira olmadim.

— Siz keksayib qolgansiz... Sekin ishlarkansiz... To'g'ri, menga ham qiyin, sizga bu gaplarni aytish. Nima qilay, axir o'zingizning shogirdingiz kelib aytdi... „Usta qarib qolgan, ishlatmanglar, o'zim kelib tezlik bilan imoratingizni bitirib beraman“, dedi. Qolaversa, kuz ham eshik qoqdi. Xafa bo'lmaysiz, bizga ham tezroq bitgani ma'qul.

— Onasi, ishonsang, bu gaplarni eshitib, turgan joyimda qalqib ketdim! Ko'zimga yosh keldi... Shu paytgacha qarib qolganimni his qilmagandim. Birdan cho'kib qolganday bo'ldim. Asbob-uskunamni yig'ishtirib, uyga qanday kelganimni bilmayman. Menga shogird tushganda qo'lida tesha ushlashni bilmagan yigit qaysi yuz bilan shunday dedi? Xo'sh, ayt-chi, bu xiyonat emasmi?... Bu sotqinlik emasmi?! Agar men keksaygan bo'lsam, og'irimni yengil qilish o'rniga, bola-chaqamning rizqini qiyadimi, ko'namak?... Bugunoq uyiga boraman, yuziga tupuraman bunday shogirdni!..

— Qo'ying, adasi, bunday qila ko'rmang. Shaytonning so'ziga uchmang. Ustoz o'z shogirdini qarg'asa, bolasini qarg'agan bilan barobar... Yaratganning o'zi ko'rib turgandir bu holni... Och qoladigan zamon emas, Xudoning o'zi mehribon.

Otam ortiqcha bir so'z demay uyga kirib ketdi. Lekin men uchib yurgan osmonimdan tushib qolgandek bo'ldim. Beg'ubor ko'nglimga ilk bor xiyonat, sotqinlik degan sovuq so'zlarning ko'lankasi tushdi. Otamning yig'laganini eshitib, mening ham yig'lagim keldi. Qani endi, birdan ulg'ayib qolsam-da, otamning qo'lidan arra-teshasini olib, shu imoratni o'zim qurib bersam. Afsuski...

Bolaligim bog'iga,
Kulin sochdi xiyonat.
Ko'z ochmagan ko'nglimda,
Yuzin ochdi xiyonat.

Sotqinlikni sadosi,
Qulog'imni tars yordi.
Yuzlarimni yondirib,
Ko'zimdan yomg'ir yog'di.

Men ham xuddi otamdek,
O'ychan bo'lib qolgandim.
Men nimaga qoqilib,
Men nimadan tolgandim.

Qayda axir dushmanim,
O'zi yo'g'-u, yodi bor.
Nechun uning nogahon,
Yuragimda dodi bor?

Otamga armon bo'lgan,
Dardmi yo alam edi.
Otamning o'kinchlari,
Mening ham nolam edi.

Xiyonatning yoqasi,
Tushsa edi qo'limga.
Sotqinlikni o'zimcha,
Mahkum etdim o'limga!

Sotqinni sotib bo'lsa,
Qul qilib sotar edim.
Sotqinni otib bo'lsa,
O'ylamay otar edim.

Bo'yimga bo'y ulanmay,
O'yimga o'y ulandi.
Beg'ubor ko'nglim ko'rki,
Bulutlarga belandi.

Qanday qilib otamning,
Ko'nglini olsam derdim.
Bir so'z topib malhamday,
Yoniga borsam derdim.

Bormadim, borolmadim,
O'z-o'zimga so'zladim.
Otam panoh so'rgan zot —
Xudoyimga bo'zladim.

Otang bormi, xiyonat,
Onang bormi, xiyonat?!
Aytgin, sening ustingdan
Kimga qilay malomat?!

Sotqin kimning bolasi,
Sotqin kimning jolasi?
Jismimga sig'may borar,
Yuragimning nolasi.

So'rab ko'nglim xun bo'lar,
Shogird o'zi kim bo'lar?
Ustoz qadrin bilmagan,
Chirog'i yo'q tun bo'lar!

So'rab ko'nglim xun bo'lar,
Sotqin o'zi kim bo'lar?
Ko'karmaydi to abad,
Qarg'ishda kukun bo'lar!

Har kimga ham elining,
Xush duosi darisin.
Vale sotqin bo'lsa kim,
Qarg'ishlarda qarisin.

Yomon niyat yodida,
Tebratmagum qalamim.
Sotqinlarga sochgayman,
Dildagi bor alamim.

Haqdan qo'rqsin har kimsa,
O'ziga nazar qilsin.
Yaxshilarga yor bo'lsin,
Yomondan hazar qilsin.

* * *

Otam o'tdi dunyodan,
Armonin olib ketdi.
Men ulg'aydim. Bu armon,
Qalbimda qolib ketdi.

Avval shukrim tangriga,
O'g'il berdi, qiz berdi.
Yo'ldosh bo'ldi yaxshilar,
Nazar berdi, tuz berdi.

Ammo bir kam dunyoning,
Kami sira to'Imaskan.
Yaxshi ming yil yashamas,
Yomonlar ham o'Imaskan.

Puli yo'qqa bu dunyo
Bozorligi bekordir.
Ayshi ko'pga olamning
Ozorligi bekordir.

Tilaganing bermasa,
Tilanchilik ham azob.
Ochmasang, o'qimasang,
Tosh bilan tengdir kitob.

Har kunning o'z quvonchi,
Har kunning o'z dardi bor.
Har kunning o'z sotqini,
Har kunning o'z mardi bor.

Har tong otam qarshimda,
Tilovatda tirilar.
O'sha tanish xush nafas,
Yuzlarimga urilar.

Uzukur ham yodimda,
Savobga chorlab turar.

Yo'l axtarsam gohida,
Yog'dudek porlab turar.

Deydi: — O'g'lim, unutma,
Yolg'on yozib yashama.
So'ng ta'nalar toshida,
Patdek to'zib yashama.

Dunyo dardin oldida,
Sening darding bir tomchi.
Qog'ozingga ham sig'mas,
Bu olamning quvonchi.

Haq so'z Haqning hukmidir,
Tig'i tegar yurakka.
Rahming kelsin eng avval,
Bo'zlab turgan yurakka.

Yuzin bulut to'sganda,
Oyni armon ezadi.
Haqsizlik bandasini,
Toshdan yomon ezadi.

Otamga armon bo'lgan,
Dard edi, alam edi.
Otamning o'kinchlari,
Mening ham nolam edi.

Bolalikda bag'rimga
Botgan toshlar hamon bor.
Jilmayadi xiyonat,
Sotqin, kaslar omon, bor.

Ajab dunyo ekan bu,
Yaxshilikdan tolmaydi.
Zavoli ham ko'p ekan,
Yomonlikdan qolmaydi.

Azobning ovozi

O'... birodarlar, balki o'ylarsiz, bu ne shoirkim, doston aytsa g'amdan aytar, ko'zlardagi namdan aytar! Netayki, taqdiriga tosh tekkan kimsalar, huzuringda qon yig'lab tursalar. „Yozing, shoir, borin yozing, ko'nglimizning zorin yozing“, desalar. Aslida ham mavjud g'amning yuziga parda tortib, hali tug'ilmagan quvonchni izlab yurgan shoir qalamini o'z yuragiga sanchib qo'ya qolgani ma'qul. Zero, „banda tadbir qiladi, Alloh taqdir qiladi“. Taqdiriga qayg'u bitilsa ham sabrga sultonlik qilib, yotning yamog'idan hazar qilguvchilar qancha... Aksincha, bir luqma xush taom, lahzalik lazzat, bir siqim pul uchun yetti pushtining ruhini qon qaqshatib, yetti avlodini sotib yurganlar qancha!...

Vatanni sevmoq iymondandir, deyiladi. Vatanni sotish nimadan boshlanadi? Ko'ngilni sotishdanmi? Nafs g'olib kelgan joyda ko'ngilning ko'zi ko'r bo'ladi.

Yozmoq oson, ko'ksingga,
Quvonch gul taqib tursa.
Yuragingdan yo'l solib,
Baxt seli oqib tursa.

Yozmoq og'ir joningdan,
Ming bir alam taralsa.
Iqbol so'rsang va lekin,
Peshonang sho'r yaralsa.

Demish asli bu dunyo,
Sinov uchun maydondir.
Kimga yashash ko'p qiyin,
O'zgasiga osondir.

Birin baxti boshqasin,
Ko'zin chiqarib kelgan.

Go'daklar bor dunyoga,
Sochi oqarib kelgan.

Bir-bir aytsang dunyoning,
Sitamiga poyon yo'q.
Doston bo'lsa ne ajab,
Yuragimda yongan cho'g'.

Bu anduhlar faryodi,
Tug'ilgan makonimda.
Hasrati tilimda-yu,
Tikoni tovonimda.

* * *

Eri xiyonat qilgan ayolning ko'zlariga ko'zingiz tushganmi? Xotini xiyonat qilgan erkakning-chi? Ulardan ko'ngil so'rganmisiz? Ularga ko'ngil berib bo'ladimi o'zi? Xiyonatda ko'ngil bormi aslida?.. Uning yuzi, tusi qanday bo'ladi? Buni bir-biriga xiyonat qilgan ota-onadan emas, xiyonatning jabrini tortayotgan go'daklardan so'rang.

Ular sevishib turmush qurishgandi. Parvardigor ularga ikki qizcha, bir o'g'il ato etdi. Yangi yopilgan non isiday bir-birlarining dimog'laridan bir-birlarining mushkanbarlari ketmasdi. Tog'lardan jildirab tushayotgan irmoqlar bir-birlariga qo'shilib ketganda ularni ajratib bo'lmaganidek, er-xotinning mehr irmoqlari oila degan musaffo daryoda qo'shilib oqardi, jo'sh urib oqardi.

Yo'ldan shayton otliq badbaxt chiqdi. Uning qo'lida xiyonat otliq to'g'on bor edi. Bu to'g'on erning qo'li bilan mehr irmoqlari yo'liga tashlandi. Er ayoliga xiyonat qildi. Xiyonat kimlargadir oshkor bo'ldi. Ikki kishi bilgan sir sir emas. Ayol nazdida eri vijdonini sotgandi, imonini sotgandi. Bir so'z bilan aytganda, u sotqinlik qilgandi...

Ayol bu alamga chidolmadi... Bu xiyonatni ko'tarolmadi... O'zini o'zi yoqib yubordi. Katta qizi o'n olti, o'g'li o'n ikki, kichkinasi uch yosh edi... Badbaxt er bolalari bilan yolg'iz qolib ketdi...

Bu uyda kecha-kunduz,
Bo'zlashadi bolalar.
Gir aylanib onasin,
Izlashadi bolalar.

Kattasining ohlari,
To'kilganda tilidan.
Iymoni bor odamning,
Qonlar oqar dilidan.

— Aya, aya, ayajon,
Uyga sig'may ketyapman.
Kunduz chopib, tun chopib,
Sizga yetmay o'tyapman.

Devordagi osig'liq,
Ro'molingiz yig'laydi.
Uy ichida charx urib,
Uvolingiz yig'laydi.

Jismimizda jon yig'lar,
Dasturxonda non yig'lar.
Piyolada choy yig'lar,
Yulduz yig'lar, oy yig'lar.

Sizni kunduz axtarsam,
Kunduz yig'lar biz bilan.
Uydagi gul, dov-daraxt,
Ildiz yig'lar biz bilan.

Ukajonim kulgusi,
Yuzlariga sig'masdi.

Nain kulgu, bu dunyo,
Ko'zlariga sig'masdi.

Chohga tushgan toychoqdek,
Talpinadi siz tomon.
Tilin tishlab yig'laydi,
Ko'rmaysiz-da, onajon!

Jism-u jonim qaqshatib,
Deydi bir kun nogahon:
— Otang o'lsa bilmadim,
Onang o'lsa ko'p yomon.

Oh, onajon, onajon,
Bo'zlayverib sil bo'ldim.
Borsa kelmas yo'llardan,
Izlayverib sil bo'ldim.

Ovutolmay singlimni,
Yig'laydilar dadam ham.
Boshin mushtlab, jonini
Tig'laydilar dadam ham.

Ko'rgim kelar, ayajon,
Yuzingiz, ko'zingizni.
Bizni uydan kuzatib,
Yoqibsiz o'zingizni.

Qandoq go'zal edingiz,
Qandoq yonib-o'chdingiz.
Gunohimiz ne edi,
Bizdan nechun kechdingiz?

Bo'lardi-ku, ayajon,
O'ylasangiz bizlarni.
Kim oladi bag'riga,
Yetim o'g'il-qizlarni.

Sizsiz dunyo qorong‘u,
Xunuk ekan uyimiz.
Ezib qo‘ydi bizni g‘am,
O‘smay qoldi bo‘yimiz.

Singlim Gulshan bir tuni,
Sizni yo‘qlab tolgandi.
Alamidan mast bo‘lib,
Dadam uxlab qolgandi.

Uyimizga nogahon,
Uchib keldi kapalak.
Qanotlari qip-qizil,
Cho‘chib keldi kapalak.

Gir aylandi boshimda,
Qo‘rqdim biroz jon halak.
Singlimning bolishiga
Sekin qo‘ndi kapalak.

Qaramadi dadamga,
Qaragisi kelmadi.
Kapalakjon dadamni,
Nega ko‘zga ilmadi?

Kapalakjon, kapalak,
Sen ayamning arvohi.
U dunyodan keldingmi,
Dadamning ne gunohi?

Oh, gunohkor bo‘lsalar,
Yig‘laydilar ne uchun?
Boshin mushtlab jonini,
Tig‘laydilar ne uchun?

Sizsiz, aya, tun uzoq,
Tonglar sira otmaydi.
Sho‘rpehona bu boshim,
Bolishlarga botmaydi.

Ovutmoq-chun singlimni,
Bir nima topish kerak.
Eng yaxshi o'yinimiz,
Oq terakmi, ko'k terak?!

Yaxshi o'yin deymiz-u,
Yig'lab-yig'lab o'ynaymiz.
Bag'rimizni, ayajon,
Tig'lab-tig'lab o'ynaymiz!

— Oq terakmi, ko'k terak,
Gulshan senga kim kerak?

— Biymaysizmi shuniyam,
Menga ayamla keya-y...

— Oq teyaymi, ko'k tea-y...
Apcha, sizda kim keya-y?

— Singiljonim, menga ham,
Ayam, ayamlar kerak.

— Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?

— Xudo, Xudo, Xudojon,
Bizga ayamlar kerak!

Takrorlaymiz ming bora,
Yurak yara, dil pora.
Ayt, Xudojon, Xudojon,
O'limga bormi chora?

* * *

Gar oy chiqsa osmonga,
Kimning ko'ngli yorishmas.
Yetimlarning ko'z yoshi,
Quvonchga hech qorishmas.

Bu dunyoning ohlarin,
Har kim tortar o'zicha.
Bu dard-u g'am bormikin,
Shu bolalar bo'zicha?

Bo'tadek bo'zlayotgan,
Bolalarning yonidan.
Ko'zin yumib o'tsa kim,
Ayrilgan iymonidan.

Uying kuysin, xiyonat,
Bo'ying kuysin, xiyonat.
Yolg'on dunyo senga ham,
Boqiy emas, omonat!

Iymonini sotganlar,
Vijdonini sotganlar.
Go'dak ohi ko'r qilar,
Yuragi tosh qotganlar.

Qaysi uyda xiyonat,
Jilmayadi tun-u kun.
O'sha uyga diyonat,
Begonadir, bag'ri xun.

Qay uyga quyosh tushmas,
Oy boqmaydi osmondan.
Shu uyda biror kimsa,
Ayrilgandir vijdondan.

Bu dunyoda yoronlar,
Xiyonatning to'ri ko'p.
Bo'zlar hatto xoqonlar,
Sotqinlarning turi ko'p.

Qalamim qon qaqshaydi,
Oq qog'ozning ustida.
Jonim chaqar dardlar bor,
Yuragimning ostida.

* * *

Bulutlardek bir-birin
Quvib o'tadi kunlar.
Goh yomg'irmas, ko'z yoshdan
Ivib ketadi kunlar.

Bir bechora ohidan
Sarg'ayarmish oftob ham.
Tutilgan ul oy kabi
Mung'ayarmish oftob ham.

Qayg'u bilan quvonchning
Oralig'i chindimcha.
Qishdan olib chiqmaydi
Odamzodni hech nimcha.

Ko'zin yumar kim, qachon,
Yorug' kunda yo tunda.
Cho'bir otni to'rt odam
Ko'taradi bir zumda.

Qabristonga shohlar ham
Kiradilar piyoda.
Bir nimchacha tafti yo'q
Otalar bor dunyoda.

Ota desam yodimga
Kelaverar o'z otam.
Bolalikda bo'g'zimni
Tilgan o'sha ilk nolam.

Yoshim o'tib ellikdan,
Birovdan hech kulmadim.
Qartaygan qul Xudoga
Qandoq yig'lar, bilmadim?!

Men otamning yodida
Insof yuzin ko'raman.
Rizq axtargan bandasin
Halol tuzin ko'raman.

Tilovatim totidan
Zora ruhi shod bo'lsa.
Mangu yotar manzili
Toabad obod bo'lsa.

Dilim ezilar hamon
Otamning armonidan.
Asrasin o'zi Egam
Odamning yomonidan.

Keling, birga tinglaylik
Bir azobning ovozin.
Chertilmay chil-chil singan
Bir hur qizning g'am sozin.

Nola

Bir qiz yashar bir uyda,
Yuray desa yurolmas.
Yigirma yil to'shakda,
Turay desa turolmas.

Armon degan xo'rsiniq
Tomirida oqadi.
Yolg'on degan bir og'riq
Jism-u jonin chaqadi.

Yolg'on desa dunyoning
Yolg'oni shuncha ko'pmi?
Odamzodning nazardan
Qolg'oni shuncha ko'pmi?

Bir suluv qiz qosh-ko'zi
Unda ham bor yoronlar.
Yuragini yaralab
Qo'ygan faqat yomonlar.

Tug'ilganda Dildora,
Ziyo bo'lib tug'ildi.
Onasining ko'z yoshi,
Daryo bo'lib tug'ildi.

Otasiga maqtashib
Yuzini ochishmadi.
Beshigining boshidan
Sochqilar sochishmadi.

Qiz tug'ildi, otasi
Sudda yurdi sudralib.
Niyati onasidan
Ketmoq edi ajralib.

Onaizor bolasin
Yetim bo'lsin demadi.
Sevib qurgan oilasin
O'tin bo'lsin demadi.

Gapirsa ham boy o'g'li,
So'z desin-da, dunyoda.
Aytmasa ham ularning
Aytganidan ziyoda.

Sud zalidan otasi
Bamisli ketdi uchib.
Onaizor qon yig'lab
Qoldi bolasin quchib.

Ko'hna dunyo, bor dunyo,
Qilmading-a, or, dunyo.
Shu go'dak ko'z yoshiga
Edingmi sen zor, dunyo?

Ayolga uvol qilding,
Umriga zavol qilding.
Qoshin hilol qilganding,
Qomatini dol qilding!

Dunyo, sening ko'changda
Yigirma yil sar-sari.
Ko'z yoshidan sarg'aydi
Ular umr daftari.

Har neki intiho bor,
Ibtidodan boshlanar.
Salomdan boshlanmasa,
Bil, vidodan boshlanar.

Ona borki, mehrning
Belanchagi tebranar.
Onang bo'lsa suvsiz ham
Ostonangda gul unar.

Farzand-chun muz ichra ham
Zumda yonolgan ona.
Qayg'ularning qatiga
Quvonch qadolgan ona.

Ona dildan zorlansa,
Zamin to'lg'onar ekan.
Ayol erdan orlansa,
Toshlar uyg'onar ekan.

Ayol borki, oridan
Er kishi aso qilar.
Erlar borki, g'ururin
Tutunga kasov qilar.

Quvonchining qaymog'i
Qat-qat yurgan kimsalar.
Sitamining salmog'i
Ezganni bir ko'rsalar.

Afsusning alangasi
Kul bo'lguncha kutganlar,
Odamning or-nomusi
Pul bo'lguncha kutganlar.

Savollar bor, javobi
Jonimni chimchilaydi.
Dunyo dardini xitobi
Ruhimni qamchilaydi.

Axir, dunyo poyoni,
Borar manzil qabrdir.
Iymoni bor insonni
Sulton qilgan sabrdir.

Shodligini shamolga
Sovurib yurganlar bor.
Qayg'usini qoniga
Qovurib yurganlar bor.

Bir bechora armonin
Qirq tuya ko'tarmaydi.
Tuyani tirik yutib
O'zgasi yo'talmaydi.

Savol ko'pdir, yoronlar,
Javobi chertilmagan.
Tirik yetim ko'rmadim
Yuragi yirtilmagan.

* * *

Siz keltirib dunyoga
Nima ko'rdim, otajon?!
Jonni tutib jafoga
Gina ko'rdim, otajon!

Bir qiz bo'lib silkinib,
Yerda yayrab yurmadim.
Mehringizga yelpinib,
Oyog'imda turmadim.

Siz ham, biz ham omonat,
Oy osmonda boqiydir.
Qilmas sira xiyonat
Quyosh nurga soqiydir.

Qorda qolgan qushmasman,
Don kerakmas, otajon!
Go'sht ko'rmagan tishmasman,
Non kerakmas, otajon!

Qizim degan shonimni
Qidirib yashayapman.
Men jismimdan jonimni
Sidirib yashayapman.

Ko'changizdan tobutda
Yulduz bo'lib o'tarman!
Otasidan or qilgan
Bir qiz bo'lib o'tarman!

* * *

Yuragingda yolg'on bor,
Yonib yashay olmayсан.
Tuslanmagin, aslingdan
Tonib yashay olmayсан.

Tomiringdan chiqqan qon
Ulg'aydi, inson bo'ldi.
Sen xushsan, ko'rmaysan-da,
Uning bag'ri qon bo'ldi.

Farzand irmoq, irmog'ing
Talpinadi sen tomon.
Ota bo'lsang, daryo bo'l,
Bag'ringga chorla, nodon!

Bilsang, Alloh otani
Bir tog' qilib yaratgan.
Har bir farzand qalbida
Chiroq qilib yaratgan.

Chirog'i o'chgan ko'ngil
Dunyoni xush ko'rmagay.
Go'dak Tangrining guli,
Riyoni xush ko'rmagay.

Uning dilgir dilidan
Sitamini sitib ol.
Ochgil ko'ngil ko'zini,
Qo'llaridan tutib ol.

Birga bosgan qadaming
Jannatga yetaklaydi.
„Ota“ desa, „bolam“ de,
Tangri umring tilaydi...

* * *

Ota bo'lish sharafli,
Asli ulug' inoyat.
Otalarni, yo Tangrim,
O'zing qilgin hidoyat!

Gar otalar yanglishsa,
Farzandlar yo'l yo'qotgay.

Otalar oqil yurtning,
Quyoshi xushnud botgay.

Lolalarning lablari,
Sabolarda ochilgay.
Joynamozning jamoli,
Duolarda ochilgay.

Otalarning ibrati,
Chiroq bo'lsin dillarda.
Qoqiltirish qasdida,
Tosh yotmasin yo'llarda.

Vale ko'hna dunyoda,
O'y boshqa, hayot boshqa.
Gohi katta podani,
Buzarkan bitta qashqa.

Oriyat elagidan,
O'tolmay qolganlar bor.
Nain ota, elining,
Qarg'ishin olganlar bor.

Dasturxonning boshida,
Duo qilardi otam.
— Ham o'zingdan, ham eldan,
Begona qilma, Egam.

Bugun otam duosin,
Takrorlab turgum bot-bot.
Otam ruhi madadkor,
Otam ruhi zo'r qanot.

Axir eldan begona,
Bo'lganlarni ko'rdim men!
O'zi tirik, la'natda,
O'lganlarni ko'rdim men!

Aytarimning davomi,
Og'ir bo'lsa qaytayin.
Bu dostonni o'zgacha,
Yozolmasam netayin.

Xiyonat

Ochilmaydi ko'zimiz,
Tushaverib chohlarga.
Ketayapmiz dunyoni,
To'ldirib gunohlarga.

Yetmish yil yashab gohi,
Bitta savob olmaymiz.
Ko'rsatmagan mehrimiz,
Talab qilib tolmaymiz.

Sotamiz borimizni,
Sotamiz orimizni.
Sotolmayin xunobimiz,
Qishdagi qorimizni.

Mayli sotsin bandasi,
Bu dunyoda topganin.
Unutmasa bo'lgani,
Vatanda ko'z ochganin.

Sotib bo'lmas Vatanni,
U cho'ntakka sig'maydi.
Qalb ko'zi ko'r kimsalar,
Vale buni bilmaydi...

— O'g'lim, sen yo'qsan! Hayotmisan va yo?! Bilmadim, bu yolg'iz Yaratganga ayon. Biz onang bilan sen yomonning umrini tilay-tilay qalbiz sham misol so'nib-so'nib borayapti. Bizning faqat jismimiz odamga o'xshaydi, bolam! Men seni yomon dedim. Ayt, juvonmarg! Yaxshi bo'lsang yurtni tashlab ketarmiding?! Bizni tashlab

ketarmiding?! Biz seni qanchalik yaxshi ko'radik?! Qirg'izni qalqitguvchi qad-qomating, guldek hunaring bor edi, ko'rnamak! Biz g'aflat bandalari bolamiz ichmaydi, chekmaydi... namoz o'qiydi deb, kerilib yuravergan ekanmiz.

O, g'aflat, g'aflat!.. Yoshim oltmishdan oshdi. Nega men seni o'z jism-u jonimda ko'rmay keldim. Nahot, sen menda yasharding? Men o'zimdan xafaman! O'zimdan nafratlanaman! Meni el taniydi, meni el hurmat qiladi, qarindosh-urug', yor-u do'stlar o'rtasida obro'yim yaxshi deb o'ylabman-u, bag'rimdagi bolamning ko'nglini, iymonini shayton o'g'irlaganini ko'rmabman!..

Ayt, o'g'lim! O'zga yurtlarda seni kutayotgan qarindosh-urug'laring, yor-u do'stlaring yo'q edi-ku! Ozod o'lkada, ozod odamga ato etilgan imkoniyat va baxtning hammasi senda mujassam edi. Sendan ko'nglim qoldi, bolam! Seni onang bilan shu umidda kamolga yetkazganmidik? Qartayganda bizni eldan ayirding, yuzimizni shuvit qilding, nonko'r!

Parvardigor nolamni senga yetkazsin, bolam! Sen yurtga qayt! Yig'lab tiz cho'k! Bo'zlab tiz cho'k! Bag'ri keng el bu, kechirguvchi el bu! Kechirmasa, yuzingga qaro surtib, shu tuproqda o'! Toki biz oxiratgacha yuzimizga qaro surtib bormaylik! O'g'lim, xiyonatkor farzandga ota-ona bo'lib qolish azobini boshiga tushganlar biladi. Men huni hech qaysi ota-onaga ravo ko'rmagan bo'lardim.

Bolam, sen yo'qsan, lekin har kuni sen bilan suhbat quraman. Seni bag'ringa chorlayman. Seni yaxshi ko'raman. Yo'q-yo'q! Seni yomon ko'raman. Sen yomonim bo'lib eshikdan boshingni egib kirib kelsang-chi? Qarg'ab alamdand chiqay, urib alamdand chiqay! Tirikmisan o'zi? Tirik bo'lsang, mening bolam bo'lsang, emaklab bo'lsa ham yurtga kelganingni ko'rishim kerak! Yo'qsa... Xudoga solaman!.. Qattiq qarg'ayman!.. Oq qilaman, nonko'r!.. Oq qilaman!!!

* * *

Ne sirlar bor o'zing guvoh,
Biz bandamiz, bizlar gumroh,
Mehribonsan o'zing, Alloh,
Dodiga yet, shu otani!

Afsusida alanga bor,
Oh, o'zidan qilmoqda or,
Do'st-dushmanga qilmagin xor,
Dodiga yet, shu otani!

Yomon odam ko'kdan tushmas,
U makonsiz uchar qushmas,
Bolam yomon bo'lsin demas,
Dodiga yet, shu otani!

Bo'zlayverib bo'zdek bo'ldi,
Osh ko'rmagan tuzdek bo'ldi,
O'g'li o'lmay o'zi o'ldi.
Dodiga yet, shu otani!

Uning dardi toshdan og'ir,
Tobutdagi loshdan og'ir,
Zahar tushgan oshdan og'ir,
Dodiga yet, shu otani!

Qariganda kun ko'rmadi,
Oy jilmaygan tun ko'rmadi,
Oh, o'zidek xun ko'rmadi,
Dodiga yet, shu otani!

Bizlar yaxshi, bizlar yomon,
O'zing yersan, o'zing osmon,
Sendan imdod, sendan farmon,
Dodiga yet, shu otani!

Tuproq uysak, tog' bo'lmagay,
Yantoq gullab bog' bo'lmagay,

Oqpadar hech oq bo'lmagay,
Dodiga yet, shu otani!

Sotqin bo'lmay o'lsin o'g'li,
Boshin egib kelsin o'g'li,
Mayli, keyin o'lsin o'g'li,
Dodiga yet, shu otani!

Ona osmon, uning og'irligi sening yelkangga tushmaydi, deydilar. Ammo yomon farzand dog'i, qora qilmishi osmonni ham egib qo'yarkan. Bugun yurtimizning ayrim go'shalarida o'z ohidan o'zi o'rtanib, dilida „mening o'g'lim sotqin bo'lishi mumkin emas, men unday o'g'il tug'gan emasman“, deya bo'zlab Xudoyimga nola qilayotgan onayizorlarning borligi achchiq haqiqat. Haqiqatga tik qarash esa hamisha ham oson kechavermagan. Xudoning birligiga shak keltirishdan qo'rqqan odam, onadek buyuk zotni ayblashdan ham qo'rqadi. Zero, har bir ona farzandim yomon bo'lsin demaydi. Alloh Odam Atoni, Momo Havoni yaratganidan buyon dunyoga ko'z ochgan har bir go'dak poklik, beg'uborlik timsoli bo'lib kelgan. Unda... ular qaydan yaralgan?..

Hamma yaxshi, yomon go'dak yo'q,
Bu dunyoda yomon chechak yo'q,
Tinglayversang yomon ertak yo'q,
Sotqinlarni kim tug'gan, Ona?!

Kimdir tanin, kim molin sotar,
Kim bozorda hammolin sotar,
Yana kimdir jamolin sotar,
Sotqinlarni kim tug'gan, Ona?!

O'g'il ota obro'sin sotar,
Qay qiz ona qayg'usin sotar,
Bir firibgar jodusin sotar,
Sotqinlarni kim tug'gan, Ona?!

Bulbul sotib, zog' olganlar bor,
Qarang, bepul tog' olganlar bor,
Sabring siqib yog' olganlar bor,
Sotqinlarni kim tug'gan, Ona?!

Iymonni ham arzon sotishar,
Vijdonni-ku, oson sotishar,
Goh yo'liga biroz tortishar,
Sotqinlarni kim tug'gan, Ona?!

Xiyonatning bedorligidan,
Mozor yig'lar mozorligidan,
Bozor yig'lar bozorligidan,
Sotqinlarni kim tug'gan, Ona?!

Qul sotilar, el sotilmaydi,
Gul sotilar, dil sotilmaydi,
Yurt sotishga mard botinmaydi,
Sotqinlarni kim tug'gan, Ona?!

* * *

Qanday yozay ko'ngil zorini,
Aytgim kelar dilda borini.

Kimki bo'lsa hayotga oshiq,
Jon jomiga chertgay xush qo'shiq.

Tongda esar hayot shamoli,
Yuz ochadi yurtim jamoli.

Uyg'onadi yaxshi ham yomon,
Rizqin tilar kimda jon omon.

Quyosh to'yib shabnamlar ichar,
Bolariga gullar bol tutar.

Qirga shoshar jon-jonivorlar,
Odamzodning mehriga zorlar.

Mingni chorlar ming bitta yumush,
Parkent soyi toshdagi kumush.

Jilvalari jon olib oqar,
Suv oqizgan tog'lar xush boqar.

Biqir-biqir qaynar buloqlar,
Yer tagida yongan chiroqlar.

Jism-u joning poklik o'raydi,
Oy nurlari soching taraydi.

Sen ko'klarda uchib yashaysan,
Go'zallikni quchib yashaysan.

Bunda ming yil yashaging kelar,
Bunda zumda armonlar o'lar.

Kim tog'larda bo'lsa biladi,
Osmon yerga yaqin keladi.

Bunda toshlar oynadek tiniq,
Boqsang o'zing ko'rasan aniq.

Tirik odam tiz cho'ksin faqat,
Qay yurtida bor bundayin jannat?

Bog'larida bahor balqigan,
Tangri xushlab, Tangri alqagan.

Ey shodligim chashmasi — Vatan,
Ko'zlarimning tashnasi — Vatan.

Kel, jonimga o'rab yashayin,
G'amlaringni kurab yashayin.

Vatan, seni sotib bo'lmaydi,
Senga toshlar otib bo'lmaydi.

Iymoni but har odam bilar,
Onasini og'ritgan o'lar.

Ey mardlarga ergashgan soya,
Yel xurjiga yemrilmas qoya.

Unutmasin, yov zoti hech chog',
Bu Vatanning erlari uyg'oq!

— O'g'lim, dostonim poyonida senga ikki og'iz so'z aytgim keldi. Zero, bu vatanning erlari safida sen ham borsan! Inshoolloh, kelajakda sening o'g'il-qizlaring, mening nabiralaring ham bo'lgay! Aytarimning avvalida bobolarning tafakkur durlaridan to'kilgan uch kichik hikmat nurlanib turgay. Shuni unutmaginki, „Maydonga tushgan alp manglayini qashlamas“. Sen esa Ozodlik maydonidasan, Hurlik maydonidasan! To'rt tarafdin ham sen elning nigohidasan. Elning elagidan esa hamma o'tavermaydi, o'g'lim!

Yana deydilarki, „Toza suv loyqa suvni tindirolmaydi. Loyqa suv esa toza suvni bir zumda loyqatadi“. Ilohim, har bandani loyqa suv bo'lishdan, er kishini mijg'ovlikdan asrasin!

To'g'ri so'z kishini uyqudan uyg'otadi. Mana bu hikmatga quloq tuting-a: „Boylik, bu mol-dunyo ko'pligi bilan emas, balki nafsning to'qligi bilandir“. Nafsga qul bo'lish, bu shaytonga qul bo'lish demakdir. Umidvormanki, bu fikrning sharhini o'zing anglab yetgaysan, o'g'lim!

O'zing anglab yetgaysan yana,
Oqil aytar Vatan bittadir.
Goh chapingdan o'ngingga boqmay,
Sendan so'rmay kunlar o'tadir.

Men onamning duosin oldim,
Shukr, ko'rdi taqdir izzatin.
Erta ketdi, afsus, dunyodan,
Qilolmadim otam xizmatin.

Kecha otam o'kinchin tinglab,
O'rtagandi jonimni alam.
Bugun meni zorlatgan armon,
Qiynaydimi seni ham, bolam?

Baxt bekorga boqavermaydi.
Sen yo'liga chiroq yoqmasang.
Oqqan daryo oqavermaydi,
Irmoq bo'lib o'zing oqmasang.

Yomonlikdan yiroq bo'lgin-u,
Lek yomondan qochib yurmagin.
Sen va'dani vafo deb bilib,
Sirlaringni sochib yurmagin.

Kindik qoning tomgan tuproqqa,
Kindik qoni tomsin bolangni.
Quvonchingga quchoq ochganlar,
Malol ko'rar goho nolangni.

Yot yeguncha yoningda turar.
Shoh bo'lmasang Vatanda xok bo'l.
Ruhim abad shod bo'lsin desang,
Ginasiz el ko'nglidek pok bo'l!

Xotima

Otam rahmatli bir so'zni takrorlashni xush ko'rar-dilar: «Bolalarim, unutmanglar, Parvardigor asralganni asraydi!» Inshoolloh, shunday bo'lgay. Biz Vatanni, Vatan bizni asragay!

Qushlar uchar osmon to'la,
Sayyod yurar tadbir ila,
Otolmaydi u bir yo'la,
Asralganni asrar Xudo!

Qanoting yo'q, ko'kka uchma,
Yutoqib hech suv ham ichma,
Qoqilibsan, chohni so'kma,
Asralganni asrar Xudo!

Birov ko'rmas ko'zing uchun,
Nur topdingmi izing uchun,
Sado izla so'zing uchun,
Asralganni asrar Xudo!

Vatan bizda, biz Vatanda,
Bitta jonda, bitta tanda,
Mingashsak ham oq samanda,
Asralganni asrar Xudo!

Hurlik tug'i jonda tursin,
Qadr qalqib qonda tursin,
O'zbek nomi shonda tursin,
Asralganni asrar Xudo!

Demang, Mahmud g'amdan yozar,
Ko'zlardagi namdan yozar,
Biz yo'qotgan shamdan yozar,
Asralganni asrar Xudo!

Doston bitdi, shukrim bisyor,
Yaratganga zikrim bisyor,
Yurak deydi: aytgin takror,
Asralganni asrar Xudo!



TO'RTLILKLAR

Ko'zimning kurtagida ochilgan guldin uzing,
Ko'nglimning chashmasida qaynagan maydan suzing.
Siz meni tushunsangiz tumoringiz bo'layin,
Jisimingiz jamolini mening jonimga chizing.

* * *

Xudoni men halol tuzdan izladim,
Bahor, yozim o'tdi, kuzdan izladim.
O'zimdand topmadim, gunohim ko'pdir,
Ayo do'st, men uni sizdan izladim.

* * *

Bir maysa terakka shivirlab dedi:
Yerga boq, ildizing qurtlar yedi.
Yonimda yig'lagan shu g'arib to'nka,
Kecha sening kabi kerilgan edi.

* * *

Oftob oyni ko'rmagay bir osmonda yursa ham,
Ildiz o'z gulin ko'rmas, jonidan suv bersa ham,
Bu dunyoni yaratgan Egamda hech minnat yo'q,
Olovga omonlik bor, cho'g' kul ichra tursa ham.

* * *

Quyoshning quvonchi otashda ekan,
Oshiq dil quyoshdek sargashta ekan.
Ko'ngil osmonida Allohing tursa,
Ne g'am, davrada joy gar pastda ekan.

* * *

Bir rayhon bo'yida shunchalar atir,
Har gulning o'z bo'yi tahsinga arzir.
Shu qadar ehsoning ko'pki, Xudoyim,
Bandasi, oh, sendan qanchalar qarzdin.

* * *

Toshlar otmoq uchun yaratilganmas,
Yoshlar sochmoq uchun yaratilganmas.
Shunchaki yig'lama, bandai g'ofil,
Ko'z yoshing gunohing yuva olsa has.

* * *

Uyingning tomida bir qush ko'rmabsan,
Tonggacha yotibsan, bir tush ko'rmabsan.
Qo'yingda tosh bormi, qarab ko'r, do'stim,
O'zingni o'zingdan sen xush ko'rmabsan.

* * *

Qarindosh qadrini qondan qidirgin,
Hurmatni xush ko'rsang, jondan qidirgin.
Umring uvolini yillardan so'rma,
Shabnam duv to'kilgan ondan qidirgin.

* * *

Kelmoqni qutlaymiz, ketmoqni ko'zlab,
Rahmonni sen deymiz, shaytonni sizlab,
Iymon dilda bo'lsa, shayton qondadir,
Shu bois gunohni yuramiz izlab.

* * *

Soat chiq-chiqida savol bor emish,
Yerdagi uvoqda uvol bor emish.
Bo'yingni qamishga bo'ylayverma ko'p,
Tiz cho'k, maysada ham kamol bor emish.

* * *

Zulmatda chiroqni har kim tutmagay,
Nokas kutilmagan mehmon kutmagay.
Tikanni tishingda sug'urib olsang,
Og'riq azobini jon unutmagay.

* * *

Do'ppini shunchaki yurmagin kiyib,
To'ning zaridan ham ketmagin iyib.
Bolam, yiqilishing kutib yotarlar,
Belbog'ni belingga bog'lablar qo'yib.

* * *

Oqilga shunchaki shondan hazardir,
Yovning yeridagi kondan hazardir.
Devona qo'liga kishan solmagin,
Unda ham kibrli jondan hazardir.

* * *

Oftobning alami kuymagan jonda,
Bulbulning alami suymagan jonda.
Shabnamni sahroga sochmagin, Mahmud,
Iymon nima qilsin to'ymagan jonda.

* * *

Qushlar qanotida tosh ko'tarmagay,
Kipriklar bir umr yosh ko'tarmagay.
Uchragan niholni bosib o'tmagin,
Kim aytar, maysalar bosh ko'tarmagay.

* * *

Halollik hikmati otam so'zida,
Mehrning qudrati onam ko'zida.
Lekin dillarida bir so'roq takror,
„Qay birin ko'rgaymiz bolam o'zida“.

* * *

Toshgan daryolarga to'g'onlar xasdir,
Chayonga chaqmoqlik oddiy havasdir.
Ochning qulog'ida aytilgan qo'shiq,
Qurigan quduqda ingragan sasdir.

* * *

Bedil bulog'idan bir qultum ichdim,
Men uni senga ham tutaman, do'stim.
So'zning saltanati samoda ekan,
Zulmat aro go'yo quyoshni quchdim.

* * *

Ichmang deysan, gulim, lek ichgim kelar,
G'unchaning g'uborida quchgim kelar.
Na qilay, sharob ichsam, oshiq bo'lsam,
Turnalardek boshingda uchgim kelar.

* * *

Yor, yoningda yot bo'lib qoldim,
O'z-o'zimga dod bo'lib qoldim.
Kech ochilgan ko'zimga boqma,
Shoh seniki, men mot bo'lib qoldim.

* * *

Toshga tushgan tomchi yorildi,
U loygamas, toshga qorildi.
Gulim, loyning qorganda egam,
Senga emas, menga yor edi.

* * *

Omonat umrimning oromi senda,
Labingdan ichirsang may jomi senda.
Qulingdirman, vale shoh qilay desang,
„Begim“ degin, Tangri kalomi senda.

* * *

Ko'ngilning to'kilgan shabnami sog'inch,
Bilmaysan, oshiqning har dami sog'inch.
Bulbulning faryodi bo'g'zida gullar,
Majnunga Laylining malhami sog'inch.

* * *

Oqqan daryo qirg'og'in o'par,
Parvonalar chirog'in o'par,
Chavandozlar g'olib kelganda,
Tulporining tuyog'in o'par.

* * *

O'tgan ishga domangir bo'lma,
To'kilmasang, shunchaki to'lma.
Yot kulgini qaroqqa yashir,
G'amli uyda chirmanda chalma.

* * *

Baxilning tosh yorar ko'zi bor, do'stim.
Tumorda Tangrining so'zi bor, do'stim.
Iymon-e'tiqodda sobitsan agar,
O'zingda Xudoning o'zi bor, do'stim.

* * *

Tuproqning tilini kulol bilmaydi,
U axir gulgamas, loyga iylaydi,
Qarqunoqdan bulbul chiqmasa chiqmas,
Hamma Tangri bergan tilda kuylaydi.

* * *

Dilingdagi tikanning nashtari so'zingdadir,
Tilingdagi yolg'onning daftari ko'zingdadir.
Javdar ekib, bug'doy kutsang nodon demishlar,
Baringdan to'kilganni bil, bari izingdadir.

* * *

Bu ko'ngil ko'kida mudom quyoshmas,
Gohida boshingga bir tomchi tommas,
Borida shuhratning sharobidan mast,
Yo'g'ida oh urgan odam odammas.

* * *

Qahratonning qahri oppoq qor ekan,
Yo rab, bunda qanday hikmat bor ekan.
Erimoqni or bilguvchi muzlar ham,
Boychechakning kulgusiga zor ekan.

* * *

Oyni maqtar yuzidagi dog'ni ko'rmaslar,
Soyni maqtar qo'ynidagi toshni so'rmaslar.
Muhabbatning ko'zi ko'rmi, shunchalar, Egam,
Odam zoti dildan oqqan yoshni ko'rmaslar.

* * *

Ummonda ummonning siri pinhondir,
Osmonda osmonning siri pinhondir,
Nechun yerga sig'may qolar odamzod,
Yo Rabbim, bandangda ne sir nihondir?

* * *

Sen o'zingni gunohlardan forig' tutmagin,
Yaratganga bir tavbangni darig' tutmagin.
Sayyodga ham goh-gohida muruvvat darkor,
Rahm qilgin, sayidingni oriq tutmagin.

* * *

Gul so'lsa xazonning bayrami bo'lur,
Dil to'lsa kiprikning shabnami bo'lur,
Qurigan yog'ochning kuldagi vazni,
Tugagan umrning motami bo'lur.

* * *

Quyosh kulib tursa, ko'k chaqmoq chaqmas,
Olomon odamning ko'ngliga boqmas.
Hasadgo'y maydonga tushmagan kabi,
Eshiging zulfini dushmaning qoqmas.

* * *

Quyosh quvonchini xazonda ko'rmas,
Shamol ishonchini to'zonda ko'rmas.
Dunyoni qiyomat qo'pard, ey, do'st,
Gar Tangri qudratin insonda ko'rmas.

* * *

Qushning qanotida samo shuhrati,
Kimga ozor bermish maysa minnati.
Tikan ta'rifini atirgul aytsin,
Bulbulga dil bergan g'uncha ziynati.

* * *

Otlar tuyog'ida ezilmas maysa,
Maysa quvonarmish otlar ko'paysa.
Quvonar maysadek muloyim elim,
Elni el qilguvchi zotlar ko'paysa.

* * *

Bog' kezib har niholdan o'zimga do'st izladim,
Qumrilarga qo'shilib, so'zimga do'st izladim,
Kun kelib tuproq meni tillashgani chaqirsa,
Ortimdan yo'qlab borar izimga do'st izladim.

* * *

Yursang yo'ling unarkan, tursang toshga o'xshaysan,
Umringga o'lchov so'ra, ko'zda yoshga o'xshaysan.
Dilingdan bir qatim nur qidirganlar quvonsa,
Oqshom oyga, kunduzi sen quyoshga o'xshaysan.

* * *

Qo'ng'iroq ko'kdan kelsa, jarangi baland bo'lur,
Burgutga kamon tutgan burgutga monand bo'lur,
Sen boshingdan balandga sakrashni odat qilma,
Tuvakda gullagan gul, albat tuvakda so'lur.

* * *

Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar emish,
Yomonga yaqin yursang, balosi yuqar emish.
Qozonni qaro qilgan, yomonni bino qilgan,
Aslida shu odamzod, o'zidan qo'rqar emish.

* * *

Sen tosh otding — men tillo topdim,
Sen qarg'ading — men duo topdim.
Yomonlikka yaxshilik qilib,
O'z dilimdan men Xudo topdim.

* * *

Bu ne dardkim, ko'nglim ashki ko'zim daryosiga sig'mas,
Bu ne dilki, talpinurda yer-u samosiga sig'mas.
Bu ne so'z kim, aytilurda o'zin sadosiga sig'mas,
Bu ne ruhkim, tandan chiqib ikki dunyosiga sig'mas.

* * *

Bu dunyoni tugal ko'rdim onajonim duosida,
Dunyo go'yo kulib turar, duolarning sadosida,
U dunyoning vafosini bu dunyodan axtarurman,
Bihamdulloh, maning ko'nglim ikki dunyo Xudosida.

* * *

Kurtak ko'z ochganda daraxt titraydi,
Bir xazon ohiga daraxt qartaydi.
Ey, gunoh bandasi, hargiz unutmang,
Tangri sendan yolg'iz tavba tilaydi.

* * *

Tunning chirog'ini Tangri tutgaydir,
Bo'ylama, ul joyga bo'ying yetmaydir.
Bugungi davlating ketguvchi mehmon,
Uni erta o'zga mezbon kutgaydir.

* * *

Tulpor tog'ga chopib chiqmas,
Baliq gavhar topib chiqmas,
Qarich bilan qadamlama,
Soxta ko'z yosh qalqib chiqmas.

* * *

Demagil, qilmishing barchasi sirdir,
Yuzingni yulmagil, ko'nglingni sidir.
Chinqirib dunyoni chiylolmagaysan,
Ayo do'st, o'zingdan o'zingni qidir.

* * *

Yuzingning yog'dusi yoqar dunyoni,
Ko'zingning jodusi o'rtar riyoni.
Olamda odamdek yurmog'im mushkul,
Panoh aylamasam agar Xudoni.

* * *

Ko'kdagi moh qaro tunning yuragi,
Yongan chiroq tiriklarning tilagi,
Yuzga chiqib yugurgisi kelar odamning
Gar bilsaki, bordir elga keragi.

* * *

Sening zaboningdan sachragan atir,
Mening tillarimda ishqiy bir satr,
Visoling bir onlik munavvar nuri,
Qirq yil yashab qo'ygan umrimga tatir.

* * *

Shabnam sharobidan xushdiansan, Mahmud,
Oshiqsan, ko'kdagi qushdiansan, Mahmud.
Bulbuldek bo'g'zingda qalqisa joning,
G'uncha ko'rolmagan tushdiansan, Mahmud.

MUNDARIJA

Siyratim sadosi (<i>so'zboshi o'rnida</i>)	3
--	---

AYT ENDI, YURAGIM

Ayt endi, yuragim	11
Omonlik tilayman	12
Mashrab	13
Chumoliga kelar havasim	14
Sizni yo'qlab keldim	15
Nola	16
Bobur armoni	17
Suyib netsin boshqalar	18
Tiniqlik	19
Qodiriyning so'nggi so'zi	20
Shu odam	20
Yulduzlar	21
Hofiz nidosi	22
Yong'ir	23
Belbog'	24
Faryod	25

BIZ NECHUN UCHRASHDIK

Parkentda tong	31
Qaydasan, muhabbat?	32
Poklik	33
Kapalak	34
Turnalar	35
Uyg'otar	36
Qaylardan so'roqlay	37
„Sening kulgularing...“	37
Kelmading	38
Kulging	39
„Shoir ahli muhabbatga...“	39
Biz nechun uchrashdik	40

Boychechak	41
Sog'indim	42
Tongda	43
Iltijo	44
Senga yolvoraman	45
Gunohi ne ahli Parkentning?	46
Savob	47
She'ringa	48
Aso	49
„Og'zi oshga yetganda...“	49
Cho'lpon	50
Armon	51
Otamning so'zi	52

MUHABBAT SHEVASI

Olov mening chamanim	55
Qaldirg'och	56
Yolg'onchilar yetmas murodga	57
Navro'zni yetaklab keladi bahor	58
Bobolarim	59
Rayhonlar islarin bulog'i Vatan	60
Karam	61
Qadr	62
Baxt	63
Ming yil yumalasa	64
Sizni yod etarmiz	65
Baxil	66
Ona	67
Ot mingan yigit (<i>rivoyat</i>)	68
Ey do'st	71
Sizdan o'rgandim	72
Bemor bolalarni yig'latmang aslo	73
Ortingizdan otadi toshni	74
Bolajon	75
Umidim unar	76
Bemor bo'lmasin	77
Kabutarim	78

Vatan	79
Do'stim	80
Ko'rgaysan, bolam	81
Tulporim	82
Qirq kokil	83
Kel, ketaylik	84
Malikam	85
Qarolar	86
Kumushbibi aytganlari	87
Aylonayin	88
Ko'nglim	89
Kel endi	90
Muhabbat shevasi	91
Qo'lingni ber, gulim	92
Mohim	93
Tilab-tilab olganim	94
Kulgularingdan	95
Sog'insam men	96
„Xayolimda yog'ar yomg'irlar“	96
Hijronning sadosiman	97
Gunohimni ayting	98
„Mening ko'nglim kabi...“	98
„Gulim, iltifotlar qilding...“	99
„Qizg'aldoqning qiziga...“	99
Yonar bo'lsam	100
Ra'no	101
Yomg'ir bo'lib	102
Armon ulg'ayar	103
Bu kecha	104
Tosh	105
Ishq uvog'i	106
Men vaslin istagan	107
Asragay	108
Ona rizosi	109
Qadim dunyo	110
Munojot	111
Yassaviy bobo	112

So'nggi yo'l	113
Tingladim	114
O'zingga yetsin ohim	115
Senga yetmay	116

QIQIB KETGAN ARMONLAR

Anglagim kelar	119
Zanjir	120
Sabr	121
Qadim so'z	122
Uzr	123
Bekor	124
Ona tilim	125
Elning ardog'i	126
O'zbekimiz	127
Jiyda guli	128
Tulporlarim, qaydasiz?	129
Istak	130
Hayrat	131
Momolar	132
Ayol	133
Qushim	134
Momo yer	135
Tangridan tila	136
Allohdandir	137
Umrin	138
El	139
Shoirning orzusi	140
Sevganlar, sevilganlar	141
Kuygim kelar	142
Namozshomgul	143
Umidim undi	144
Tushingizga kirgim kelar	145
Armon	146
„Armon — sochlarimda...“	147
Ko'rdim	148
Jonimni qalam qildim	149

Sabr sadosi	150
Muhabbat	151
„Yo'lga chiqdim,...“	152
Zorimiz tinglamaysiz	153
Ostonasi osmon yor	154
Baxtingiz bolishida	155
Izhor	156
Malagim	157
Sochilgan sochlaringiz	158
Suvlar	159
Yurmayin yetgim kelar	160

BARMOQLAR BODASI

Qalbingda bahoring bor	163
Yig'laydi	164
Ko'hna qo'shiq	165
Ko'rmangiz	166
Muhtoj bo'lmaysan	167
Uyg'oq dil	168
Yo'ldagi tosh	169
Mard bilan yurgin	169
Ko'rmadim	170
Yig'lagin demayman	171
Bo'lmas	172
Men ketsam	173
Salom bor	174
O'zanidan ulug' daryo	175
Ustina	176
Biz baxtlimiz	177
Yuragimda yongan o't	178
Ko'zim hayrat yoqqan chiroq	179
Orzu	180
Bu dunyo	181
Vajib	182
Seni so'roqladim	183
Dildosh bo'lay	184
So'zlarga sig'maydi	185

Sozning sadosi	186
Shifo so'radim	187
Hurriyat	188
Shoyad	189
Yurgin	190
Dehqonim	191
Do'stning qadri qadahda emas	192
Yurgaysan	193
E'zoz	194
Tumor bo'lgin	195
Jamoling jonimni gulida, Vatan	196
Tugatmas	197
Yerni ko'r	198
Barmoqlar bodasi	199
Gulxan yoqdingiz	200
Bir gap aytgim keldi	201
Guloyim	202
Ismingiz	203
Qumrimiz bor	204
Bir bora o'tmaysizmi	205
Ey, dil	206
Toshkentning tillosidan	207
Ko'ngil ko'rki	208
Istarasi issiq qiz	209
Muruvvatlar tiladim Sizdan	210
O'rtamizda bir sir bor	211
Bevafo erkam	212
Tamannodan titradim	213
Osmon uzoq	214
„Hilolning hayosida jilmaysa jamolingiz...“	215
Nozligim	216
Visolingiz	217
Sizni ko'rgandan beri	218
Tilmoch kerakmas	219
Bizlar emas	220
Gul tutsak	221

Bir tola soch bering	222
Singlim	223
Ketsam	224
Bolarining bayotidasiz	225
Xalq ohangida	226
Ayting	227
Muhabbat yashar	228
Yaxshiyam siz borsiz	229
Jilmaysa jamolingiz	230
Meni toshlar tinglashadi... ..	231
Dil bersang.....	232

DOSTONLAR

Oqib ketgan armonlar (<i>Doston</i>)	235
Otamning o'kinchi (<i>Doston</i>)	257
To'rtliklar	288

**84(50')
T60**

Toir, Mahmud.

Saylanma: 2 jildlik, 1- jild (Mahmud Toir;
So'zboshi muallifniki). — T. „O'qituvchi“
NMIU, 2008.

J.1 — 304 b.

BBK 84(50')6

MAHMUD TOIR

SAYLANMA

I jild

(Ikki jildlik)

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi

Toshkent — 2008

Muharrirlar: *Muhammad Ismoil,*

S. Xo'jaahmedov

Badiiy muharrir *Sh. Xo'jayev*

Texnik muharrir *S. Tursunova*

Kompyuterda sahifalovchi *K. Hamidullayeva*

Musahhih *M. Mirsolihov*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 5.08 2008. Bichimi 84x108^{1/2}.

Ofset bosma usulida bosildi. Tip. Tayms garniturası. Kegli 11
shponli. Shartli b. t. 15,96.+0,42 rangli vkl. Nash t. 9,22+0,28 rangli vkl.

5000 nusxada bosildi. Buyurtma № 333.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi,

30- uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy.

Shartnoma № 12-85-08